

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası

UMUMIY PEDAGOGIKA

fanidan
O'QUV –USLUBIY MAJMUA



Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5120100- Filologiya tillarni o'qitish (ingliz tili tili kunduzgi)
	5120100- Filologiya tillarni o'qitish (nemis tili kunduzgi)

Tuzuvchi: NamDU, pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD M.Tashibekova

Taqrizchilar: NamDU, Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası
dotsenti M.Nishonov
NamDU, Ta'lim menejmenti kafedrası dotsenti Q.Shodmonov

Mazkur o'quv uslubiy majmua "Pedagogika nazariyasi va tarixi"
kafedrasining 2023-yil, "___"-iyundagi № ___-sonli majlisida
muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: D.Inamov

O'quv uslubiy majmua Pedagogika-psixologiya fakulteti kengashining
2023-yil, "___"-iyuldagi № ___-sonli majlisida ma'qullangan va
tasdiqqa tavsiya etilgan.

Fakultet dekani : M.Boltayeva

O'quv uslubiy majmua Namangan davlat universiteti o'quv uslubiy
kengashning 2023 yil "___" iyuldagi "___" - son yig'ilishida ko'rib chiqilgan va
foydalanishga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

O`quv materiallari
Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari (uslubiy ko`rsatmalar)
Glossariy (alfavit tartibida atama va terminlarni o`zbekcha, rus va inglizcha ta`lqini.....
Ilovalar
Ishchi fan dasturi
Tarqatma materiallar
Testlar
Ishchi fan dasturiga muvofiq bahlosh mezonlarini qo`llash bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar.....
Fanni o`ziga xosligiga qarab o`rganish bo`yicha boshqa materiallar

1-Modul. O`zbekiston Respublikasining ta`lim tizimi.

1-mavzu. Umumiy pedagogika - ta'lim-tarbiya nazariyasi. Umumiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari

Reja:

1. Umumiy pedagogikaning ob'ekti, predmeti va tuzilishi va pedagogikaning asosiy kategoriyalari.
2. Pedagogikaning tarmoqlari va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
3. Pedagogik tizimlar tushunchasi va uning asosiy tarkibiy qismlari. Asosiy ta'limiy kontseptsiyalar va yondashuvlar.
4. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari. Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish metodi, kuzatish metodi, pedagogik tajriba-sinov metodi, suhbat metodi, so'rovnoma, ta'lim muassasalari hujjatlarini o'rganish metodi, matematik statistika metodi, test metodi va b.

Tayanch so'zlar: pedagogika, maqsad, vazifa, ob'yekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pedagogika fani metodologiyasi, ilmiy tadqiqot metodlari.

1. Pedagogika fani maqsadi va uning asosiy kategoriyalari.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida - «bola» va gogike - «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika - ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi.


Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi. Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining **ob'yekti** - yaxlit pedagogik jarayon. Pedagogika fanining **predmeti** - ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari. Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va

vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shaxsning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalarning mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:



2-rasm. Pedagogika fanining asosiy vazifalari

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta’lim (o‘qitish, o‘qish), bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, ma’lumot, shakllantirish, rivojlantirish.



3-rasm. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Shaxs- psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya- muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim - o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllantirish - shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

2. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, va ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

Etika - shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

Estetika - shaxs tomonidan go'zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iqtisod - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiyani tashkil etish va ularning moddiy-texnika va

zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim- tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Fiziologiya - o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anotomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni o'rganishga yordam beradi.

Gigiena - o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishga nazariy va amaliy g'oyalarni taqdim etadi.

Psixologiya - shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarixiy tajribani yosh avlodga o'rgatish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik - o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

Umumiy pedagogika - pedagogikaning kontseptual masalalari va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi - pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

Pedagogika tarixi - pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'lim turlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat - o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik

xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Metodika - xususiy fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlari, tashkiliy shart-shroitlarini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti - ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

Oila pedagogikasi - oilaviy ta'lim-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rganadi.

Xalq pedagogikasi - xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir.

Qiyosiy pedagogika - qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadigan pedagogik fan sohasi.

Pedagogik innovatika - pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadigan, shuningdek pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lim loyihalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya ta'lim oluvchi va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarni o'rganish hamda ta'lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Neyropedagogika - bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi.

Muzey pedagogikasi - pedagogika, psixologiya va muzeyshunslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lim-tarbiya berish yo'llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'ullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

Pedagogik antropologiya - falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta'lim oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'limning antropologik modeli va ta'xnologiyasini o'rganuvchi fan sohasi.

Pedagogik akmeologiya - barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsning yetuk rivojlanish cho'qqisi - «akme shaxs» darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi.

3. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va tadqiqot metodlari.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchliligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarli tashkil etish va o'tkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funktsiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi ob'yektning nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi - tadqiqotchi uchun aniq mo'ljal olishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi - nazariy va me'yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: «metodologiya» tushunchasi ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologik bilimlar va faoliyat tizim sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot ob'yekti va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

- pedagogikani ob'yektiv borliqni ma'naviy jihatdan o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli tomonlarini ilmiy asoslash;

- pedagogika sohasidagi ishlarni fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash;

- maqsadning aniqligi; maxsus tadqiqot ob'yektini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xil qo'llanilishi;

- pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish;

- tadqiqot asosnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot ob'yekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya qilinadigan holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati; pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi; pedagogik fanlar tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti - faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy asoslari vatuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda

etadiganaxborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lgakiritishga doir faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati - bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi - metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlari, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi - metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki, birinchisi «qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo'llash mumkin» degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi - umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimiga qaratiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalasi respublikamiz va jahon miqyosida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur muammo ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini tashkil qilish texnologiyalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'langan. Ularning to'laqonli hal etilishiga esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda yanada moslashuvchan va taraqqiyparvar yondashuvlarni keng joriy etish orqaligina erishish mumkin. Buning uchun esa ilmiy asoslangan tadqiqot metodlariga tayanish talab etiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari esa o'z navbatida metodologiya tushunchasi bilan ataluvchi nazariy prinsiplar majmuasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili

«metodologiya», shuningdek, «pedagogik metodologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko'proq ustuvorlik kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra «metodologiya» tushunchasi, mazmunan «gnoseologiya» (bilish to'g'risidagi fan), «nazariy bilish» kabi tushunchalarga yaqin turadi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari masalaga bir tomonlama yondashib, metodologiyani faqat «bilish metodlari to'g'risidagi ta'limot» yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu o'rinda, ushbu tushunchaning «borliqni o'zgartirish metodlari to'g'risidagi ta'limot» ekanligini e'tibordan chetda qoldiradilar va metodologiyani gnoseologik qolip bilan cheklab qo'yadilar.

Pedagogika fani metodologiyasi - jamiyatning rivojlanishi s haroitidauzluksiz taraqqiy etib boruvchi pedagogik muhit holatini haqqoniy aksettiruvchi, pedagogika nazariyasi hamda amaliyoti, ta'lim olish hamda ungayondashuv mezonlari haqidagi bilimlar tizimi.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqotlarining g'oyasi, mazmuni natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanib borishi

shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilastirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba- sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o'tish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1)kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik; 2)kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;

3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish; 5)xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;

4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish; 5)suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;

6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish; 8)olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida

pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi.

O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo turdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta‘minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta‘minlaydi. Intervyu respondent e‘tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta‘lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta‘lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma‘lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod muassasalarni amaliyotidagi bajarilish holatini o‘rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta‘lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ta‘lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O‘quv mashg‘ulotlarining jadvali, o‘quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig‘ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta‘lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta‘lim muassasasi jihozlari (o‘quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar. Mazkur metod muayyan yo‘nalishlarda o‘quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi, ilg‘or pedagogik tajribalar mazmunini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi savollardan iborat:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o‘z yondashuvlariga ko‘ra to‘g‘ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma‘lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma‘lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko‘rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko‘rish», «tajriba qilib ko‘rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma‘lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodkaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogika fani nimani o‘rganadi?
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo‘nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.

2-mavzu. O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonlari va uning huquqiy-me'yoriy asoslari

Reja:

1. Mustaqillik yillarida inson kapitalini yaratish borasida amalga oshirilgan islohotlar.
2. O'zbekistonda komil insonni tarbiyalashning huquqiy asoslari. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishlari haqida.
3. Ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari. Ta'lim tizimi va ta'lim turlari.
4. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashning milliy modeli. Ta'lim tizimini isloh qilish yo'nalishlari.

Tayanch so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, Maktabgacha ta'lim vazirligi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keying talim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

1. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va uning maqsad va vazifalari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qib o'qish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdagi qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

«Ta'lim-insonlarga yaxshiroq hayot tarzi va mavqe imkoniyatlarini beradi. Odamlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga yordam beradi. Odamlarga o'zlari va dunyoni tushunishdagi bilimni oshiradi. Odamlardagi bag'rikenglikni shakllantiradi. Yoshlarning hayotga va dunyoga bo'lgan qarashini

shakllantirishga yordam beradi. Millatni rivojlantirishga yordam beradi”¹-deydi amerikalik pedagog olim A.Muur. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko‘rsatiladi:

- «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv, ilmiy- ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

-kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;

-kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

-ta’lim oluvchilarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

-ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish; yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish;


-ta’lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllanti-rishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

-uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir: *shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.*

¹Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturivatarbiya. Rutledj. Ikkinchinashr. 2012. 35-bet



Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta'limsohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ulami amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi.

Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun o'z oldiga bir qator faoliyatiga oid muayyan bir maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga etuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va uz bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi».

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega.

Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon etadi olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida

davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun etarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

1. Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga;

2. Majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

3. Davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

4. Davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

5. Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;

6. Sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga. *Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlashtizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.*

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston

Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim;

2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

3. Kasb-hunar ta'limi;

4. Oliy ta'lim;

5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

6. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; 7. Maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiymetodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi».

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlaydi va ulardan foydalanadi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaradi.

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy- pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zahirida yosh olimlarning, obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi».

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy- texnik jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi.

Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab etishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

3. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimini xalq bilan muloqot va ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son Farmoni va «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadidabir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda quyidagilar yo'nalishlari etib belgilandi:

- birinchidan, maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ikkinchidan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- uchinchidan, respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

- to'rtinchidan, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;

- beshinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

- oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- yettinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

- sakkizinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirish;

- to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3304-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3304-son Qarori asosida O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyati takomillashtirildi.

Mazkur qarorga muvofiq, quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilansin:

- birinchidan, xalq ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

- ikkinchidan, o'rta ta'lim maktablari hamda o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash orqali 11 yillik o'rta ta'limni joriy etish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini amalga oshirish;

- uchinchidan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilariga kasb-hunar o'rgatish hamda umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlariga va maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq xalq ta'limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatishda metodik rahbarlik qilish;

- to'rtinchidan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va mehnat ta'limini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- beshinchidan, o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o'quvchilarning o'quv, psixologik va jismoniy yuklamasini optimallashtirishni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- oltinchidan, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangilangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodi yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish;

- yettinchidan, mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashish;

- sakkizinchidan, rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning (shu jumladan inklyuziv) ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora- tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini

yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini muvofiqlashtirish;

- to'qqizinchidan, xalq ta'limi muassasalarida O'zbekiston yoshlar ittifoqi bo'limlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalari yanada chuqur singdirish, «ommaviy madaniyat» ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

- o'ninchidan, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan davlat ta'lim standartlari va talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;

- o'n birinchidan, ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni hamda byudjet intizomiga rioya etishni ta'minlash;

- o'n ikkinchidan, ta'lim muassasalarida bino va inshootlardan samarali foydalanish ishlarini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish.

“Maktabning maqsadi insonlarga kasbiy va avocotsional maqsadlariga erishishda yordam berishi kerak, qaysiki o'zlarining hohishdagi qobiliyatga mos ravishda ushbu jarayonni o'zida mujassamlashtiraolgan insonlar o'zlarini ko'proq band, mahoratli hisoblaydi va jamiyatni barpo etuvchi bo'lib tarbiyalanadi.”² - degan edi Gardner.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabinternatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda; 2019/2020 o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariga o'qishga qabul qilish umumta'lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-son Farmoniga muvofiq, majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, kasb-hunarta'limi ixtiyoriylik asosida kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladi.

² Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum And Culture. Alex Moore.148-bet.

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining 10-11-sinflari oʻquvchilari taʼlim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar oʻrgatish, oʻquvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning taʼlimni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari boʻyicha mehnat faoliyati bilan shugʻullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, oʻquv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan taʼminlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi «Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining 10-11-sinflari oʻquvchilariga kasbiy taʼlim berishga ixtisoslashgan oʻquv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish choratadbirlari toʻgʻrisida»gi 868-son qarori qabul qilindi.

Oʻquv-ishlab chiqarish majmuasi - oʻquvchilarga kasbiy bilimlar berish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik asoslarini, mehnat va kasb koʻnikmalarini egallashlari, shuningdek ularning oʻziga xos kasbiy qobiliyatlari va sifatlarini rivojlantirilishini taʼminlaydigan taʼlimni tashkil etish shakli.

Oʻquv-ishlab chiqarish majmuasida kasbiy taʼlim berishning vazifalari etib quyidagilar belgilab qoʻyildi:

- oʻquvchilar tomonidan kasb-hunar koʻnikmalarining oʻzlashtirilishini taʼminlash, maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasblarni oʻrgatish orqali ularning kasb-hunar olishga boʻlgan ehtiyojini qondirish;

- kasbiy taʼlim berish jarayonida «usta-shogird» anʼanalari, mahalliy va xorijiy ilgʻor tajribani oʻrgangan holda eng maqbul usullardan foydalanish hamda kasblarning malaka talablari va kasbiy taʼlim berish jarayonining metodik taʼminotini takomillashtirib borish;

- kasbiy taʼlim berish jarayoniga innovatsion pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali kasbiy taʼlim berish sifatini taʼminlash;

- oʻquvchilarda mustaqil ijodiy fikrlagan holda mehnat jarayonini tashkil etish koʻnikmalarini shakllantirish orqali ularning mehnat faoliyati bilan faol shugʻullanishi imkonini beruvchi kasb egasi boʻlishlarini taʼminlash;

- mehnat bozori uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etilmaydigan kasblar boʻyicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni taʼminlash.

Akademik litsey - oʻrta maxsus oʻquv yurti. Akademik litsey oʻquvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal oʻstirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yoʻnaltirilgan bilim olishlarini taʼminlaydi.

Akademik litseyda oʻquvchilar oʻzlari tanlab olgan taʼlim yoʻnalishi

(gumanitar, texnika, agrar va b. sohalar) boʻyicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanlarni chuqur oʻrganishga qaratilgan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish natijalari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini koʻrsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish, ulardagi taʼlim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy taʼlim

muassasalariga o‘qishga kirish ko‘rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish hamda akademik litseylarda o‘quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumta‘lim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumta‘lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun shartsharoitlar maqsadida siyosiy ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2829-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning 2-bandida akademik litseylarning muhim vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari belgilab berildi:

- umumta‘lim maktablarining eng iste‘dodli o‘quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o‘qishni oliy ta‘lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash;

- o‘quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi va faollashishiga ko‘maklashuvchi, individual iste‘dodlarni va har bir o‘quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta‘lim muhitini yaratish;

- ilg‘or mahalliy va xorijiy ta‘lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

Oliy ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qarorga ko‘ra, quyidagilar oliy ta‘lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

- har bir oliy ta‘lim muassasasi tomonidan xorijdagi etakchi turdosh ilmiy ta‘lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta‘lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o‘qituvchilari va olimlarini jalb etish;

- oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta‘lim muassasalaridagi ixtisoslik yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollari inobatga olgan holda optimallashtirish;

- yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

- pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;

- oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etish;

- oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talabayoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish; -oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

- oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2017 yil 16 fevraldagi PF4958-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017yil 22-mayda «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- tayanch doktorantura;
- doktorantura;
- mustaqil izlanuvchilik.

Tayanch doktorantura - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida

tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Doktorantura - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMLarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMLarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida» 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmonigamuvofiq oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining o'qitish shakllari va usullarini, pedagog kadrlar tarkibining sifat darajasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining

2015-yil 20-avgustdagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida»gi 242-son qarori bilan «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagi 103-son Qarori bilan mazkur Nizomga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi - yangi kasbiy bilimlar, mahoratlar, zamonaviy ko'nikmalar hamdaboshqaruv va pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur hajmda va yetarlidarajada hamda davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv- ta'lim jarayonigatalab qilinadigan sifatni ta'minlaydigan darajada vakolatlarni nazarda tutadigan oliy ta'limdan keyingi o'qitish shakli.

Yuqorida qayd etib o'tilgan hujjatlarga asosan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o'quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o'quv dasturlari bo'yicha ikki oy davomida, ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari o'qishni tugatgandan keyin attestatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladigan attestatsiyadan o'tishlari kerak. Attestatsiya komissiyasi tegishli sohalardagi yetakchi olimlar va mutaxassislar, ilmiy kengash a'zolari, o'quv-uslubiy ishlar sohasidagi yirik

mutaxassislar safidan kamida 7 kishidan iborat bo'lgan oily ta'lim muassasasi rektori yoki fan doktori ilmiy unvoni berish bo'yicha ilmiy kengash raisi boshchiligida shakllantiriladi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan o'tmagan oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari bir yil mobaynida pulli asosda o'qishning tegishli yoki turdosh yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yakunida attestatsiyadan o'tishadi.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini takroran o'zlashtirishi asosiy ishdan ajralmagan holda kurslarning o'quv dasturlarini mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari bo'yicha tayyorlanib kelgan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga kiritiladi. Yakuniy attestatsiya tegishli yo'nalishlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari huzuridagi attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan takroran o'tmagan yoki asosiy ish joyi bo'yicha belgilangan muddatda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan takroran o'tmagan taqdirda, ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan hamda bo'sh turgan pedagog lavozimini egallash tanlovi davrining tugagan muddatidan qat'i nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi. Bunda ular o'z pedagogik faoliyatini boshqa ta'lim muassasalarida (oliy ta'lim muassasalaridan tashqari) davom ettirishi yoxud boshqa tashkilotlarda ishlashi hamda o'zining kasbiy malakasini mustaqil ravishda oshirishi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining tarkibiy qismlariga izoh bering.
3. Uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi qanday omillar bilan bog'liq?
4. 11 yillik majburiy ta'limga o'tilishining sabablarini izohlang.
5. O'quv-ishlab chiqarish majmuasining asosiy maqsadini tushuntirib bering.
6. Kasb-hunar ta'limini tashkil etishga yangicha yondashuvnii qanday baholaysiz?
7. Oliy ta'lim tizimining isloh qilinishi asosida qanday natijalarga erishiladi?
8. Oliy o'quv yurtidan keying ta'lim bosqichlariga izoh bering.

9. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan talablarga baho bering.

SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOYILASHUVI YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

Reja:

1. "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi.
2. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rnini. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.
3. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari.
4. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi.

Tayanch tushunchalar: pedagogik antropologiya, individ, shaxs, individuallik, o'sish, rivojlanish, ijtimoiylashuv, irsiyat, muhit, tarbiya, yosh davrlari.

"Shaxs" tushunchasi va shaxs rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'ikerak.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyektini, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Shaxs rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush taj-ribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'mini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldannaslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha sub'ektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta‘sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs shakllanishiga oid turli yondashuvlar. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to‘rt yondashuv qaror topgan:

1. **Biologik yondashuv** - inson tabiiy mavjudot bo‘lib, uning butun xattiharakatlari tug‘ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo‘ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. **Ijtimoiy yondashuv** - inson biologik mavjudot sifatida tug‘iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta‘siri ostida ijtimoiylashadi.

3. **Psixologik yondashuv** - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo‘nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. **Yaxlit yondashuv** - shaxs yaxlit tavsifga ega bo‘lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta‘sir ko‘rsatadi. SHu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o‘ ynaydi.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to‘rt - biologik, ijtimoiy, psixologik va yaxlit yondashuv qaror topgan.

Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta‘lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta‘siri kuchli bo‘ladi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi.

Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘ tganlar. Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, yig‘inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta‘siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual - o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. “temperamentum” “qismlarning

bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1.Go‘daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.

2.Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3.Maktabgacha bo‘lgan yosh davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4.Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar) -7 yoshdan 11-12 yoshgacha.

5.O‘rta va kata maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar, ilk o‘spirinlar) - 12-17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Go‘daklik (1 yoshgacha);

2. Ilk yosh (1-2 yosh);

3. Ilk yosh guruhi (2-3 yosh);

4. Kichik yosh (3-4 yosh);

5. O‘rta yosh (4-5 yosh);

6. Katta yosh (5-6 yosh);

7. Maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta’lim).

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o‘shiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi.

O‘rta va katta maktab yoshi (o‘smirlik, ilk o‘spirinlik 12-17 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘shisi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe‘l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi.

Bu davr o‘spirinlarning ilk balog‘atga etgan davridir. Mazkur davrda jinsiy etilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘zo‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O‘spirinlik - bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislat-larini namoyish eta

boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

5.Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. "Gender" atamasi 1968 yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'rganilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. "Gender tarixi", "Gender psixologiyasi", "Falsafaning gender tomonlari", "Gender antropologiyasi", "Gender sotsiologiyasi", keyinchalik esa "Gender pedagogikasi" kabi fan tarmoqlari shakllandi. "Gender" tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi.

Pedagogik ma'noda gender - o'g'il va qiz bolalarning murakkabta'limiy sotsiomadaniy birligi bo'lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti vaemotsional xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarinio'z ichiga oladi.

Bugungi kunda o'g'il va qiz bolalarning rivojlanishidagi fiziologik, axloqiy, emotsional, xulq-atvorga oid farqlar to'liq o'rganilgan. Ana shu asosdan kelib chiqib, o'quvchilarning rivojlanishida hisobga olish lozim bo'lgan quyidagi gender xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

- qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ikki marta ko'proq savol berishadi;
- qizlar to'g'ridan-to'g'ri o'zining istaklari haqida gapirmaydi, lekin tezda kelishib ketadi; o'g'il bolalar esa, hal qiluvchi fikrni ayta olishadi va o'z nuqtai nazarida qolishni afzal ko'rishadi;
- mustaqil hal etish bilan bog'liq vazifalarni bajarishda o'g'il bolalar sifati, qiz bolalar esa hajmini hisobga olishadi;
- o'g'il bolalar ko'proq falsafiy fikr yuritadi, fikrning mantig'iga e'tibor berishadi; qizlarga ko'proq psixologiya, adabiyot yoqadi;

Shaxsning ijtimoiylashuvi - ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologikfunksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvorme'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni vanatijasi.

Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil - madaniy, axloqiy, xuquqiy,

mehnat, psixologik ko‘rinishlarini aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o‘ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e‘tibor bilan qarab o‘tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni - tarbiyalanganlik, ta‘lim olganlik, ma‘lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o‘zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud:

- ana‘naviy - oila va yaqin muhit orqali o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar-sharoitlarni yaratish;

- institutsional - ijtimoiy institutlar va ta‘lim muassasalari tomonidan o‘quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;

- shaxslararo - o‘quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;

- reflektiv - o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini loyihalashni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy **mexanizmlari** mavjud: ana‘naviy, institutsional, shaxslararo, reflektiv

O‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo‘nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yishda o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajribani kabilar kiradi.

Ijtimoiy tajriba o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o‘zida aks ettirib, faoliyatga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o‘quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o‘zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig‘indisini o‘zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o‘z-o‘zini tashkillashtirish va o‘zo‘zini korrektsiyalash madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan “o‘z-o‘zini boshqarish tajribasi”ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. O‘z-o‘zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalari sifatida individni sub’yekt-sub’yekt munosabatlariga jalb etish; sub’yektda tashabbuskorlikni shakllantirish; hayotiy faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini tashkillashning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o‘zaro aloqador yo‘nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma‘naviy-axloqiy me‘yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo‘naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega

o‘z-o‘zini boshqarishda aks etuvchi o‘zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liqlikni o‘zida aks ettiradi. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo‘naltirilgan sohalar uyg‘unligini talab etadi hamda rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim: ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o‘zining rolini aniqlay olish,

vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik; loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini anglash, individual xulq-

atvor strategiyalarini tanlay olish; interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me‘yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

1. Pedagogik jarayon va uning tuzilishi. Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishiga e‘tibor qaratilsa, shu narsa ko‘rinadiki, dastlab uning doirasida differensiallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan bo‘lsa, keyinchalik ta‘lim va tarbiya bir-biriga qarama-qarshi qo‘yila boshladi: o‘qituvchi o‘qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda ob‘yektiv nuqtai nazardan ta‘lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F.Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta‘limda vosita bor, lekin maqsad yo‘q, ta‘limsiz esa maqsad bor, vosita yetishmaydi.

Nemis pedagogi A.Disterveg, ta‘limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: “Ta‘lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo‘ladi, yoki aksincha”

Pedagogik jarayonning yagonaligi g‘oyasi K.D.Ushinskiy g‘oyalarida chuqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining ma‘muriy, o‘quv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi.

K.D.Ushinskiyning taraqqiyparvar g‘oyalari uning izdoshlari: N.F.Bunakov, P.F.Lesgaft, K.BElniskiy, V.PBaxterov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F. Kapterev alohida shug‘ullandi. U pedagogik jarayonlarning ko‘ptomonlama ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: “Ta‘lim, o‘qitish, o‘rgatish, tarbiya, pand-nasihat, o‘git va boshqa bir qator so‘zlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yaxlit pedagogik jarayondir”.

Pedagogik jarayon - pedagogik fanlarning eng muhim, asosiytushunchalaridan biri.

Pedagogik jarayon kattalarning pedagogik faoliyati va tarbiyachilarning boshqaruvchilik roli tufayli hayotiy faoliyat natijasida bolaning o‘zini-o‘zi o‘zgartirishining maqsadga yo‘naltirilgan mazmundor, tashkiliy harakatidir.

U haqiqatdan ilmiy asoslangan, rivojlantiruvchi va takomillashib boruvchi tizim sifatida mavjud bo‘ladi hamda tarbiya qonuniyatlari, pedagogning

ijodkorligi va ta'lim oluvchilarning yosh bilan bog'liq o'zgarishlari dinamikasiga asoslanadi.

Pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog'langan. Uning mohiyati, mazmuni va yo'nalganligi ijtimoiy jarayonlarning holati, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining real o'zaro harakatiga bog'liq bo'ladi.

O'quv-tarbiya jarayonining asosiy xususiyati - yaxlitlik, undagi barcha muhim tarkibiy qismlarni saqlab qolish zaruriyati.

Yaxlitlik asosiga ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlash pedagogik jarayonning mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik jarayon - ko'plab jarayonlarning ichki aloqadorligi yig'indisidir. Unda o'qitish, ta'lim, tarbiya, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari **birlashadi**.

Pedagogik jarayonning umumiyliigi va birligi uni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni yagona maqsadga bo'ysundiradi. Pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlari:

- uni tashkil etuvchi jarayonlarning birligi va mustaqilligi; -undagi jarayonlarning yaxlitligi va teng huquqliligi;

- umumiy mavjudlik va o'ziga xoslikni saqlashda namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonga uning tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorlikda qonuniy joy egallashi birligini o'zida ifoda etuvchi yagona tizim sifatida qarash mumkin. **Tuzilish**(struktura) - bu tarkibiy qism(element)larning tizimdagi joylashuvidir. Tizimlarning tuzilishi tarkibiy qismlarni qabul qilish mezonlarida belgilangani bo'yicha, bundan tashqari ular orasidagi aloqadorlikda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonning o'zi maqsad, vazifa, mazmun, metodlar, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati shakllari, shu bilan birga erishilgan natijalar bilan xarakterlanadi.

Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga quyidagilarkiradi: pedagoglar; tarbiyalanuvchilar; tarbiyaviy shart-sharoitlar.

Jarayonning **aniq maqsadli tarkibiy qismi** pedagogik faoliyatning barcha ko'p obrazli maqsad va vazifalarini: bosh maqsad - har tomonlama va barkamol shaxsni tarbiyalashdan - alohida sifatlarni shakllantirishning aniq vazifasigacha o'z ichiga qamrab oladi.

Mazmunli tarkibiy qism umumiy maqsad bilan birga, xuddi shunday aniq vazifani qo'yadigan ma'noni aks ettiradi.

Faoliyatli tarkibiy qism - jarayonni tashkil etish va boshqarishda belgilangan natijalarga erishishga doir pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati va ularning hamkorligi. Mazkur tarkibiy qism pedagogik adabiyotlarda tashkiliy yoki tashkiliy-boshqaruvga doir qism, deb ham nomlanadi. Jarayonning **natijaviy tarkibiy qismi** uni amalga oshishi samaradorligini aks ettiradi, qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda muvafaqqiyatli o'zgarishlarga olib kelish bilan xarakterlanadi.

Professor I.P.Rachenko ta'lim tizimidagi tarkibiy qism(komponent)larni quyidagicha strukturalashtiradi:

- tizim faoliyatini aniqlashtiruvchi maqsad va vazifalar;
- ta'lim va tarbiya mazmuni maqsad va vazifalarining amalga oshishini
- ta'minlovchi pedagogik kadrlar;
- tizimning ilmiy asosda ishlashini tashkil etuvchi ilmiy kadrlar;
- ta'lim oluvchilar(ta'lim oluvchilar);
- moddiy-texnik ta'minot;
- tizim va uning samaradorligi ko'rsatkichlarining moliyaviy ta'minoti;
- shart-sharoit(psixofiziologik, sanitar-gigienik, estetik va ijtimoiy);

tashkil etish va boshqarish. Amerikalik pedagog F.G.Kumbs quyidagilarni ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari deb hisoblaydi:

- tizimning faoliyatini aniqlashtirib beruvchi maqsad va asosiy vazifalar;
- ta'lim oluvchilar hamda tizimning asosiy vazifasi hisoblanuvchi o'qitish;

tizim faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlik va baholashni amalga oshiruvchi boshqarish;

2.Pedagogik jarayon qonuniyatlari - bu obyektiv mavjud bo'lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorlik, mazkur jarayonning alohida tomoni.

Pedagogik jarayon qonuniyatlari - bu obyektiv mavjud bo'lgan,takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorliklar yig'indisi.

Pedagogik taraqqiyot sifatidagi bu qadar murakkab, katta va dinamik tizimda ko'plab turli tavsifiy aloqalar namoyon bo'ladi.

Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayon qonuniyatlarning yagona tasnifi mavjud emas. Shu sababli quyida mavjud tasniflardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

I.P.Podlasiy tasnifi bo'yicha:

Tarbiya va ijtimoiy tizimlarning aloqadorligi: aniq tarixiy sharoitlardagi tarbiya xarakteri jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy, milliy-madaniy o'ziga xosliklari bilan aniqlanadi.

Ta'lim va tarbiya orasidagi: bu jarayonlarning o'zaro bog'liqligini, ularning ko'ptomonlama o'zaro ta'sirini, birligini belgilab beruvchi aloqadorlik.

Tarbiya va faoliyatning aloqadorligi: tarbiyalash - faoliyatning turli turlariga tarbiyalanuvchilarni jalb etish demakdir.

Tarbiya va shaxs faolligining aloqadorligi: agar uning ob'ekti(shaxs) bir paytning o'zida subyekti sifatida aks etsa, tarbiya muvafaqqiyatli amalga oshadi, ya'ni shaxs o'zining faol xulq-atvorini, shaxsiy erkinligini, mustaqilligini, faoliyatdagi ehtiyojini namoyon etadi.

Tarbiya va muloqotning aloqadorligi: tarbiya jarayoni har doim odamlar - o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro harakatida kechadi.

Bola tarbiyasi muvafaqqiyati to'g'ridan-to'g'ri shaxslararo aloqalarning intensivligi va boyligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonning dinamik qonuniyati - ta'lim oluvchining keyingi barcha muvafaqqiyatlarining qimmatini uning dastlabki bosqichlardagi muvafaqqiyatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonda shaxsning rivojlanishi qonuniyati - shaxs rivoji darajasi va sur'ati: irsiyat; tarbiya va ta'lim muhiti; pedagogik ta'sir etish usul va vositalarining qo'llanishiga bog'liq bo'ladi.

O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish qonuniyati - pedagogik ta'sirning samaradorligi: ta'lim oluvchilar va pedagoglar orasidagi qayta aloqalarning intensivligi; ta'lim oluvchilarga ko'rsatiladigan korrektsiyali ta'sirlarning asoslanganligi hamda xarakteri, qimmatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonda hissiyot, mantiqiylik va amaliyotning birligi qonuniyati - o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi: hissiy idrokning sifati va intensivligi; idrok etilganing mantiqiy anglanishi; anglanganning amaliy qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

Tashqi(pedagogik) va ichki(bilish) faoliyatning birligi qonuniyati pedagogik jarayonning samaradorligi: pedagogik faoliyatning sifati; tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'quv-tarbiyaviy faoliyatining sifatini shart qilib qo'yadi.

M. Kodjaspirov bo'yicha:

Ijtimoiy shart-sharoitlar bilan shartlanganlik qonuniyati: ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlarga bog'liqligi.

Inson tabiati bilan bog'langanlik qonuniyati: shaxsni shakllantirishda muloqot va faoliyatning hal qiluvchilik roli; ta'lim va tarbiyaning ta'lim oluvchilarning yosh va individual o'ziga xosliklariga bog'liqligi.

Tarbiyaviy jarayon mohiyatining shartlanganlik qonuniyati: tarbiya, o'qitish, ma'lumot va shaxs rivoji jarayonlarining o'zaro bog'liqligi; o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs va ijtimoiy guruhlarning o'zaro aloqasi.

3.Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillari. Yaxlit pedagogik jarayon qonuniyatlari singari tamoyillari masalasida ham turli qarashlar mavjud. Hatto ba'zi pedagoglar ularni qonuniyat sifatida e'tirof etishga moyildirlar. Biroq yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qonuniyatlar ob'yektiv, eng muhim, barqaror, o'zgarishdagi, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi. Pedagogik jarayon qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni tamoyillar(prinsiplar) deb ataymiz.

Pedagogik jarayon qonuniyatlari asosida uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan qo'yiladigan muhim talablar tamoyillar deb ataladi.

Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillarining ham hozirgacha turli tasniflari adabiyotlarda o'z aksini topgan. Agar ularni sinchiklab o'rganib chiqilsa, tasniflarning bir-biriga yaqinligini ko'rish mumkin. Shu sababli biz quyida ko'pchilik tomonidan tushunarli deb topilgan ikkita (Yu.K.Babanskiy,

B.T.Lixachev) tasnifini keltirib o'tishni ma'qul deb topdik.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.“Individ” tushunchasi nimani ifoda etadi?
- 2.Odamning shaxs sifatida shakllanishining asosini nima tashkil etadi?
- 3.Shaxsning rivojlanishi tushunchasiga izoh bering.
- 4.Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

5.Shaxs rivojlanishiga zamonaviy yondashuv, yosh davrlariga tavsib bering.

7.Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari deganda nima tushuniladi?

8.Shaxs ijtimoiylashuvining mazmun-mohiyatini yoritib bering.

9.Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasiga izoh bering.

10.Yaxlit pedagogik jarayonning komponentlariga nimalar kiradi?

11.Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlari deb nimaga aytiladi?

12.Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillari tushunchasiga ta'rif bering.

DIDAKTIKA - PEDAGOGIK TA'LIM NAZARIYASI. O'QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA

Reja:

1.Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari.

2.Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi.

3.O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.

4. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

Tayanch tushunchalar: didaktika, o'qitish, o'qitish jarayoni, didaktikaning asosiy kategoriyalari, ta'lim paradigmatlari, ta'lim qonuniyatlari, ta'lim tamoyillari.

1.Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.

Didaktikapedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasini «ta'lim nazariyasi» ma'nosini anglatadi. Didaktika «yunoncha» so'zdan olingan bo'lib, «didacticos» - o'rgatish, o'qitish ma'nosini bildiradi.

Didaktika - ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati» deb tushuntirdi.

«Didaktika» atamasi ilk bor nemis pedagogi Wolfgang Ratkening «Didaktika yoki ta'lim san'ati» (1613-yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan. Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida ochib berilgan. Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish

jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Pedagog – olimlar yillar davomida ta'lim tizimida *Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? Qaerda o'qitamiz?* kabi savollarga javob izladilar. Didaktika “nimaga o'qitish?”, “nimani o'qitish?”, “qaerda o'qitish?”, “qanday o'qitish?” kabi savollarga javob beradi.

Ushbu holatga asosan 1990 yillarning o'rtalarida ta'lim sohasiga oid teoriyalar va ularning asoschilari, o'sha davr amaliy darslari va o'qitish tarixi, talqin qilish kabilar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Men o'z hamkasblaringa qarata o'zida “qanday o'qitish” kabi savollarga javob topish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'llanmalar avval ham, hozir ham ta'lim jarayonida asosiy ustun bo'lib kelgan va talabalar, izlanuvchilarga amaliy maslahat ko'rsata olgan deb ayta olaman.³**Didaktikaningob'yekti** - o'sibkelayotganavlodgajtimoiytajribalarni, milliyvaumuminsoniyamadaniyatnitarkibtoptirishgayo'naltirilganfaoliyatningasosi uturihisoblanganta'limberishdir.

Didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchilarning bilish faoliyati), ularning o'zaro harakati aks etadi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir

³ AleksMuur. Ta'limberishvata'limolish: Pedagogika, ta'limdasturivatarbiya. Rutlej. Ikkinchinashr. 2012. – B. (Ikkinchinusxauchunso'zboshida).

predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi.

2. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.

O'rgatish - o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O'rganish - anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulqatvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish - qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Ta'lim - o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim - ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Ko'nikma - egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

Malaka - avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

Maqsad - o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.

Mazmun - o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish - qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl - o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod - o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita - o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob'jekt.

Natija - o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

1. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. 2. Zamonaviy ta'lim paradigmalari.

3. O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari.

4. O'qitish jarayoni bosqichlari.

5. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.

6. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

3. Zamonaviy ta'lim paradigmalari. Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Paradigma - aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarnianiqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiyyutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabulqilingan nazariya.

Ta'limning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy- iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, u butun madaniy

rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari - har bir alohida inson hayotining o'ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e'tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e'tirof etib, insonning o'z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o'zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo'yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko'radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi.

Asosida ta'limga yangicha yondashuv yotadigan g'oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo'shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta'limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta'limiy, tarbiyaviy), ta'limning bosh maqsadi - madaniyatga yondashuvga, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra paradigmalari farqlanadi.

Ta'limning keng tarqalgan beshta paradigmasi mavjud: an'anaviy (bilimga yo'naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi); ratsionalistik (bixevioristik, xulq- atvorga doir); texnokratik; ezoterik.

An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmada ta'limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari - ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash

vaqtda sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an'anaviy paradigmaga qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmuni emas, o' quvchilarning turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta'lim muassasasining maqsadi - ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi.

Suning uchun «xulq-atvor» atamasi «barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar - uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati»ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta'lim muassasasiga ta'lim oluvchilarning maqbul xulqatvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasi - bu yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korrektsiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o'zo'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot sub'ekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta'limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya'ni ta'lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e'tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi.

Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- ta'limning ijtimoiylashuvi - o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqloq g'oyalariga asoslanish;

- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

- ta'lim (xususan, kasbiy ta'limi) jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

- pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, talabalar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

- mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

- ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

- ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim - kuch», shuning uchun inson qadrdimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha- yo'q», «biladi - bilmaydi», «tarbiyasi - tarbiyasiz», «egallagan - egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiy paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zma-so'z tarjimasida «sirli», «yashirin» ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

4.O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. O'qitish - o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to'liq anglash mumkin: $DJ=M+Ao'f + Ao'fb$ Bu yerda: DJ - didaktik jarayon. M - motivatsiya.

$Ao'f$ - o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati algoritmi.

$Ao'fb$ - o'quvchilarning billish faoliyatini boshqarish.

O'qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O'qitish jarayonining **ta'limiy vazifasi** o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat. O'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'liqligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O'qitishning **tarbiyaviy vazifasi** ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviyaxloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z ifodasini topadi. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qitish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qitishning **rivojlantiruvchi vazifasi** o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellectual sohalarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, ob'yektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni malakasini rivojlantirishga erishiladi.

5.O'qitish jarayonining bosqichlari. O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish. O'rganilayotgan ob'yekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va fahmlab olish jarayonida o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati - bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokozolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o'quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

6.O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ma'lumki, bilish faoliyatining sub'yekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy- pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va

yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun harakterlidir. SHu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; sub'yekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktiv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xakteri

-uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari xakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi xuddi etuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub'yektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatining xakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi - javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, «men o'qidim, o'rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'lga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quv- harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha.

Hatto o'qishning etakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o'quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir etadi.

Ma'lumki, o'quv jarayoni modeli o'zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning jadal o'zaro faoliyati. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro harakatini

konstruktiv pedagogika nuqtai nazaridan qator belgilariga ko'ra tasnif etish mumkin: yo'nalganligiga ko'ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko'ra (o'zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo'nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko'ra.

O'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, o'quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtai nazardan qarash to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur: o'quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o'zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo'tadillashgan bosqichga o'tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o'quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; o'quvchining sub'yektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin (4-rasm).

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo'lishi - bu rivojlanib boruvchi, o'zgaruvchan jarayon. O'qituvchi yordamida o'quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o'tib boradi. Ko'p jihatdan o'quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasdan qolishi o'qituvchiga bog'liq.



4-rasm. O'quvchilarning bilish faoliyati ko'rsatkichlari

Didaktlaming ishlarida shu narsa yaqqol ko'rinadiki, o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat sub'yekt-sub'yekt tavsifiga ega bo'lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim - bu keng tarzda sotsiumning bo'lajak a'zosini umumiy mehnat, hamkorlikka o'rgatish uchun zarur bo'lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarning rollar orqali namoyon bo'lishi quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

- o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtirokchisi;

- namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;
- o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi.

7. **Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogikada qonuniyatlar** - bu qonunlarning aniq sharoitlaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta'lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko'rib bo'lmaydi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'yektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik ta'lim qonuniyati deb ataladi.

Ta'limning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi: **ta'limning maqsadi** jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi;

ta'lim mazmunini belgilashda ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari; ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

ta'limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish: o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqtiga bog'liq;

ta'lim metodlari samaradorligi ta'lim maqsadiga; o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga; ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga bog'liq;

ta'limni boshqarish samaradorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta'sir ko'rsatishning asoslanganligiga bog'liq; **ta'limda rag'batlantirish samaradorligi** ichki va tashqi stimullarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Shuningdek, pedagogikada ta'limning xususiy qonuniyatlari ham mavjud:

gnoseologik: ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq;

psixologik: ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq; **kibernetik:** ta'lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to'g'ri olib borilishiga; ta'lim sifati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq; **sotsiologik:** individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan individlarning rivojlanishiga; ta'lim samaradorligi "intellektual muhit"ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning

jadalligiga; o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq; **tashkiliy:** ta'lim natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga; o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq.

Ta'limning xususiy qoniniyatlariga gnoseologik, psixologik, kibernetik, sotsiologik, tashkiliy qonuniyatlar kiradi.

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil ilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlarigabinoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchiboshlang'ich qoidalardir. Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim vatarbiyaning uyg'unligi.

Ta'limni insonparvarlashtirish - uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yunaltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiq ta'sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'nomantig'i ham ana shundadir. Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarni shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma - shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar - shaxsning o'zini o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'ziga ta'lim berish va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta'limning ilmiylik tamoyili - o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shartsharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni ob'yektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsifalanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'lim olish va axloq: Skinnerning "qonunni ijobiy tarzda mustahkamlash" nazariyasi. Bir nazariyachining ishi nafaqat talabalarga maktablarning va o'qituvchilarning munosabati usullarini o'zida aks ettirdi, balki jarayonga ichki hissiyot bilan qarashni o'stiradi. Umumiy (masalan, maktabdagi ham ichki, ham tashqi vazniyatni) rivojlantirish yuz berishi va vaziyatni nazorat qilishni o'rganib chiqqan bu nazaryotchi Byurhis Fredrik Skinnerdir (1953). Skinnerning ko'plab nazariyalari makraziy ko'rish atrofida aylanadi, insonlar "to'g'ri javobgarliklar" yoki javobgarliklar, ya'ni potentsiyal vaziyatlarda "to'g'ri javobgarliklar"ning (ba'zida "ta'sir etuvchi qobiliyat" deb aytiladi) dalili bo'lib, ko'rinishi orqali yaxshi o'rganadilar. Torndikning "qonunning ijobiy ta'siri" (Torndik 1914)dan ilhomlanib, Skinner o'zining "qonunni ijobiy tarzda mustahkamlash" deb nomlangan dasturini ishlab chiqdi. Dastur agar kattalarning hulq-atvori yoshlarga o'rnak bo'larli bo'lsa,ular maktab o'quvchilariga va ularning mukofotlash, o'rnak qilib ko'rsatish g'oyasini ham o'z ichiga olgan. Bugungi kunda bunday mukofotlar "ahloqi uchun baho" jamoatchilik maqullagan va ijtimoiy imtiyozga ega bo'lgan bir qancha shakillar tarkibiga kiradi.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi:
ta'limningtizimliliigi va izchilligi; ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik;
ko'rsatmalilik;ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim ko'nikma va malakalarnipuxta va ^ mustahkam o'zlashtirish tamoyili; tushunarliklik.

Ta'limning tizimliliigi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis - qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari,

Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayonini sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni

didaktikaning “oltin qoidasi” deb atagan. Unga binoan ta’limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o‘quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko‘rish bilan ta’limga intilishimiz kerak - deb ta’kidlaydi u - agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo‘lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o‘rganilsin».

Ta’limning o‘quvchilarga mos bo‘lish tamoyili deganda o‘quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga - saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo‘lishi tushuniladi.

Ta’limda bilim ko‘nikma va malakalarni puxta va mustahkam o‘zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya’ni o‘quvchilar tomonidan tizimli va ongli o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o‘z turmush faoliyatlarida qullay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta’limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an’anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo‘yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g‘oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o‘zlashtirish, o‘rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta’limning tushunarligi tamoyili o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog‘lig‘iga yomon ta’sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta’limning tushunarli bo‘lishi o‘quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o‘qishning mazmunini to‘g‘ri aniqlash demakdir, ya’ni, har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilar egallab olishi zarur bo‘lgan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari hajmini to‘g‘ri aniqlashdir. Bu tamoyil o‘quv jarayonini o‘quvchilarda qiyinchiliklarni engish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg‘usini yuzaga keltirishga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko‘zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o‘quv masalalarini echishdagi ishonchsizlikni yo‘qotishga yordam beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Didaktika nimani o‘rganadi? Mazkur sohaning ob’yekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.
3. Zamonaviy ta’lim paradigmalariga nimalar kiradi?
4. O‘qitish jarayonining asosiy vazifalariga izoh bering.
5. O‘qitish jarayonining bosqichlariga ta’rib bering.
6. O‘quvchilarning bilish faoliyatining tuzilishi va o‘ziga xosliklarini izohlang.
7. Ta’lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
8. Ta’limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?
9. Ta’limning xususiy qonuniyatlariga nimalar kiradi?

10. Ta'lim tamoyillari deb nimaga aytiladi?
11. Ta'limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?
12. Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga izoh bering.

TA'LIM MAZMUNI.

Reja:

1. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni.
2. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar.
3. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar.
4. Davlat ta'lim standarti.

Tayanch tushunchalar: ta'lim mazmuni, kompetentsiya, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari, o'quv-metodik majmua.

1.Ta'lim mazmuni tushunchasining umumiy xususiyatlari. Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Ta'lim mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagibilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrofmuhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Ta'lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
- 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta'limning maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darajasi;
- 5) axborotlarning hajmi va ko'lami;
- 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yimoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va

malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'zo'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o' rta ta' lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborotverbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgariidan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanidachuqur anglab yetilganligi vao'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'limga doir muammolarni tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydanilmoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funktsiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o' rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka»ni oltita birlik (sikstet) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka - Amaliy faoliyat tajribasi - Kompetensiya - Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) -

«Bilim - Ko'nikma - Malaka»ni oltita birlik (sikstet) - «Bilim - Ko'nikma - Malaka - Amaliy faoliyat tajribasi - Kompetensiya - Kompetentlik» tarzidatahlil etish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'limda kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'limdan farqli ravishda «umumta'limiy kompetensiya» tushunchasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyani o'zida to'liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

Umumta'limiy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan ob'yektlariga munosabatini taqozo etuvchi o'quvchining semantik (ma'nomazmun) yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir.

O'quvchi uchun kompetensiya - bu uning kelajak obrazi, o'zlashtirish uchun aniq mo'ljal (orientir). Biroq maktab ta'limi davrida o'quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta'limiy nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Umum ta'limiy kompetensiyalar maktabda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maktab ta'limi davrida o'quvchi eng asosiy - fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va ta'limning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

2.Ta'llim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Ta'lim mazmunini loyihalash quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

Ta'lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va

amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta'lim mazmunida aks ettiriladi.

Ta'lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi mezonlarga asoslaniladi: ta'lim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish; ta'lim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi; ta'lim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi; ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi; ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi; ta'lim mazmunini loyihalashda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olish. **3. Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar.** Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me'yoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir. O'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi.

«Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimimamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil

etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat ta'lim standartining **vazifalari** quyidagilardan iborat: umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi **asosiy prinsiplarga** asoslanadi: o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi; davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi; umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda

innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi; o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi; rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash

tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish. Davlat ta'lim standarti quyidagi **tarkibiy qismlardan** iborat: umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi; umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi; umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning **tayanch o'quv rejasi** umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quvsoatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi

vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quvfanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketmaketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjathisoblanadi. O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari quyidagilardan tashkil topgan: bilim - o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma - o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka - o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi - davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari asosida o'quv materiallari o'quvmetodik majmuada o'z ifodasini topadi.

O'quv-metodik majmua - darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodikqo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik - davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi - ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan

ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvofiglashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatarni shakllantirishdan iborat; **o'qitish vazifasi** darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Mashq daftari - darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma - darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari - axborot- kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ta'lim mazmuni deb nimaga aytiladi?
2. Ta'lim mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud?
3. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nima tushiniladi?
4. Ta'lim mazmunini loyihalash tamoyillariga izoh bering.
5. Ta'lim mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?
6. Davlat ta'lim standarti nima va u qanday komponentlardan iborat?
7. Tayanch o'quv rejasiga izoh bering.
8. O'quv dasturida qanday masalalar o'z aksini topadi?

9. O'quv-metodik majmua nima va u o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?

6-MAVZU:TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI.

Reja: 1.Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari.

2. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.

3. Ta'lim metodlarinig mohiyati va mazmuni.

4. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. 5. Ta'lim vositalari va ularning vazifalari.

Tayanch tushunchalar: metod, ta'lim metodi, ta'lim usuli, qoida, intrefaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, ta'limning texnik vositalari.

1.Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Metod, usul va texnologiya. Ta'lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta'kidlash mumkin. Ko'pchilik mualliflar ta'lim metodini o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.

Shu qoidani boshlang'ich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada batafsil ko'rib chiqish va uning ilmiy ta'rifi kelishga harakat qilamiz.

Metod so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Metod - eng umumiy ma'noda - maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ko'rinadiki, bu o'rinda ham o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o'quvchilarning faol o'quv-bilish faoliyati uyg'unlashadi.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashgaqaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchiningo'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishusullari yig'indisi tushuniladi.

Didaktikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi. **Ta'lim usuli** - ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar

bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Ta'lim usuli - o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Masalan, o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o'qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchining namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

O'qituvchilarning ayrimlari esa, "metod" tushunchasining o'rniga "uslub" tushunchasini ham qo'llaydilar. Ammo "uslub"

tushunchasi "metod" atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko'proq xususiy (so'z borayotgan holatda aynan o'qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo'lib, aniq maqsadga erishish yo'li sifatida xizmat qila olmaydi.

Pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyoni mazmunidir. Har qanday pedagogik texnologiya, jumladan umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiya ham o'zaro hamkorlik, muloqot, ularning birbirlariga ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bergan holda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va uslublar, talabalar shaxsi faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ular bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatini tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va qarashlarni birgalikda hal etish, auditoriyada ijodiy hamkorlik, ishchanlik muhitini hosil qilishga doir shakl va metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim.⁴

Ta'lim amaliyotida "pedagogik texnologiya" tushunchasi uch darajada qo'llaniladi:

Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo'lib, ularga muammoli, tabaqalashtirilgan, integratsion, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, modulli, masofali o'qitish texnologiyalarini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur texnologiyalar innovatsiya tavsifiga ega bo'lib, novator o'qituvchilar, olimlar va izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqiladi hamda samaradorligi kafolatlanganidan

⁴ AleksMuur. Ta'limberishvata'limolish: pedagogika, ta'limdasturivatarbiya. Rutledj. Ikkinchinashr. 2012. 93-110-betlar.

va amaliyotga keng tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'linganidan so'ng uni amaliyotchi o'qituvchilar o'z faoliyatida qo'llaydilar.

Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirishni o'zida aks ettiradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qish darsini har safar texnologik modeli va xaritasini tuzib kelishi kerak. Hozir ko'p ta'kidlanayotgan texnologik model loyihalashga, texnologik xarita rejalashtirishga to'g'ri keladi.

Natijada har bir fanni o'qitish texnologiyasi yuzaga keladi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish texnologiyasi, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi va boshqalar.

Metodika- qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilganreja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadgamuvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. "Metodika" tushunchasiturli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanilib, ma'lum sohano'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod vavositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi.

"Metodika" va "texnologiya" tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog'liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim "Qanday o'qitish?", "Nima uchun o'qitish?", "Nimaga o'rgatish?" kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, "Qanday tarzda samarali o'qitishga erishish mumkin?" degan savolni markazga qo'yadi. Metodika o'quv jarayoninin qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e' tiborni qaratadi.

2.Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Didaktik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog'liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to'xtalamiz.

Ta'lim metodlari tasnifi: An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)

Ta'lim

O'qituvchi faoliyati

O'quvchi faoliyatimetodining

Nomlanishi

Axboriy- O'quv axborotini Bilimlarni idrok etish, retseptiv uzatish, o'rganilayotgan anglash va yodda saqlash. O'

ob'ekt bilan o'quvchi quvc harakatini tashkil etish hilar

(M.A.DanilovvaB.P.Esipov):

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo‘llash metodlari.

Ta‘limning binar metodlari (M.I.Maxmutov)

O‘rgatish metodlari	O‘rganish metodlari
Axboriy-ma‘lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko‘rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli- undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Yaxlityondashuvbo‘yichata‘limmetodlaritasnifi (Yu.K.Babanskiy):

- Bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.
- O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O‘quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlari.
- O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.

O‘qitishmetodlari (Sruikshank, Bainer & Metcalf)

1. Ta‘limiyo‘yinlaryokiraqobatchilik –

raqobatorqaliyokio‘yinorqaliqaysiguruhyokialohidaolinganshaxsningboshqalard anustunroqekanliginianglashgayordamberadi. Komyuterli o‘yinlar ham juda mashxurdir.

2. Brainstorming – ijodiy fikrlarni to‘plash uchun o‘tkaziladi, bunda ishtirokchilar tanqid va kesatliqlarsiz muayyan muammo yuzasidan o‘z fikrlarini ochiq oydin bayon etadilar va ushbu muammoning yechimini izlaydilar.

Masalan o‘quvchilarga dunyodagi ocharchilik muammosi haqida fikr bildirish vazifa qilib topshirilsa o‘quvchilar o‘z fikr mulohazalarini birin – ketin aytadilar, hamma fikrlar qayd etib olinganidan so‘ng ushbu muammo bilan kurashish usullarining eng maqbul variantlari ko‘rib chiqiladi.

3. Case studi-Case ta‘limi turida 1 ta talaba yoki odatda bir guruh talabalar biror sodir bo‘lgan voqea yoki ma‘lum vaziyatni tafsilotini namoyish etadilar. Keyin ular biror bir aniq va to‘g‘ri fikrga kelishdan oldin, shu vaziyatni muhokama va o‘rganish un yig‘ilgan bilim va tushunchalarni amalda qo‘llashlari talab qilinadi. Tehnologiya bilan ta‘minlangan case ta‘limi odatda tibbiyot ta‘limida qo‘l keladi/foydalaniladi. Bunda case ta‘limi tibbiyot tarixini va bemorning simptomlari, ko‘pincha ko‘rgazmaviy qurollar, turli holatlar bilan bog‘liq simptomlar haqidagi ma‘lumot va mutaxassning ishi haqidagi turli xil fikrlar bog‘liqligi to‘g‘risidagi resurslarni o‘z ichiga oladi. Talabalar esa ma‘lum bir fikrga kelishdan oldin hamma berilgan ma‘lumot va fikrlar ko‘rib chiqib muhokama qiladilar.

Bir qator omillar yaxshilab tushunilib qaralsa, va ma'lum bir vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilinsa, case ta'limining juda ko'plab sohalarda foydasi katta. Chunki case ta'limi talabalarda ko'p va kerakli resurslardan foydalanishni talab qiladi, bu guruhli yoki masofadan o'qitish muhitiga o'rganish imkoniyatini yaratuvchi eng yaxshi yo'nalish hisoblanadi, keyin esa talabalarga mavzu bilan shug'ullanishlari uchun dastlabki imkoniyatlar beriladi. O'qituvchi doim ham hamma kerakli ma'lumotni o'zlari yaratishlari shart emas, chunki har qanday sohadagi eng sara ma'lumotlar internet saytlarida allaqachon joylashtirilgan. Bu dagan o'qituvchi shu berilgan vazifa bo'yicha tushuncha va savollarni berishi keyin esa sayt manzillarini berib va shu orqali atrofda va berilgan vaziyatlarda nima sodir bo'lganligi, asosiy tushunchalar, boshqa o'xshash misollar va kerakli izohlar orqali ma'lumot olishlari mumkin. Bundan tashqari, talabalar uchun bebaho bo'lgan har qanday holatdagi turli muloqotlar talab qilinishi mumkin.

4. Qiziqishlar markazi – muayyan bir mavzuga tegishli turli kolleksiya va ekspozitsiyalar orqali o'quvchilarni qiziqishlarini orttirishga hizmat qiladi. Masalan o'quvchilarga o'zlarining etnik eklib chiqishlarini izohlovchi turli materiallar, oila shajarasining rasmlarini maktabga olib kelish va uni boshqalarga so'zlab berish vazifasi topshiriladi. Bu metod orqali o'quvchilarning dunyo millatlarini kelib chiqishini o'rganishga qiziqishlari ortadi va o'zga madaniyat namoyondalarini hurmat qilishga o'rgatiladi

5. Colliqua – sinfdagilarning qiziqishlaridan kelib chiqib sinfga taklif qilingan mehmonlar o'z faoliyatlari va kasblari haqida so'zlab beradilar. Masalan sinfga taklif qilingan sozanda o'z kasbi va faoliyati haqida o'quvchilarga ma'lumot berishi, jonli ijro orqali esa o'quvchilarda musiqaga bo'lgan muhabbatni tarbiyalashi mumkin.

6. Hamkorlikda o'qitish- yuklatilgan vazifa va muammolarni bir guruh bo'lib hal etishga o'rgatadi.

7. Ommaviy madaniyat tazyiqi (culture jumming)- ommaviy axborot vositalari umuman ommaga qarshi tura olishga va turli stereotiplarni yengishga o'rgatadi.

8. Debat – muayyan mavzu yoki muammoli vaziyatga turli nuqtai nazarlar bilan yondoshish va o'z fikrini omma oldida himoya qilishga o'rgatadi.

9. Debrifing – muayyan tajriba yoki sinovdan so'ng o'z hissiy kechinmalari va intellektual zaxiralari bilan almashinishdan iborat bo'ladi.

10. Demonstartsiya – muayyan jarayon yoki qurilmani sihlash va faoliyat yuritishini ko'rsatish ya'ni namoyish qilishdir.

11. Kashfiyot yoki tadqiqotchilik – muayyan vaziyat yoki holatga nisbatan yangilik yoki o'z nuqtai nazarni ilgari surishni taqazo etadi.

12. Diskussiya – muayyan mavzu, vaziyat yoki holatni muhokama qilish.⁵

Interfaol metodlar va grafik organayzerlar

3.Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni.

⁵ What teachers need to know about teaching methods. Peter WestWood, Camberwell, Vic. : ACER Press, 2008.p 16-36.

Hikoya - o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funktsiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat - faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbatlarda tashkil etiladi.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza - yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimlilik. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakkab tizimlar, hodisalar, obyektlar,

jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma‘ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo‘llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma‘ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o‘quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi. Ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlashda **ko‘rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog‘liq bo‘lsada, didaktikada alohida o‘rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko‘rinishlari - chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko‘rsatishni taqozo etadi.

Namoyish (demonstratsiya) metodi o‘rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma‘lumot berishda keng qo‘llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko‘rinishi (shakli, hajmi, miqdori, ularning o‘zaro munosabatlari)ga e‘tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan obyektlarning subyekt yoki chizmasi yordamida kuzatiladi.

Amaliy metod - o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar - maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnoma yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e‘tiboriga havola etadi.

Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Didaktik o‘yin o‘rganilayotgan ob‘yekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik

darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Ta'lim metodlarini tanlash. Pedagogika fani da, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta'limning umumiy maqsadlari.
- Fanning va o'rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari.
- Biror fanni o'qitish metodikasining o'ziga xosliklari.
- Materialni o'rganishga ajratilgan vaqt.
- O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O'quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
- Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganligi.
- O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

5. Ta'lim vositalari va ularning vazifalari. Ta'lim vositalari. Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari - bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'yekt. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi. Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishliqurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o'qitish» savoliga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funktsiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta'lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funktsiyalarini bajaradi.

Ta'lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo'llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi.

O'qituvchining vazifasi - dars jarayonini faollashtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlab olishdir. Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub'yektiga ko'ra;

- faoliyat ob'yektiga ko'ra;
- o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra; o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.

Faoliyat sub'yekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi.

O'rgatish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

O'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo'linadi. Birinchisiga ko'ra, narsalar o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llanilsa, ikkinchisi - bu o'quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi. **Faoliyat ob'yektlari bo'yicha** ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

Ideal ta'lim vositalari - bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar

-bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya - abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya - nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar - mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq.

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim - kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya - bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish) - haqiqiy (original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar;

audial(eshitish) - radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko'rish-eshitish) - ovoqli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta'limning texnik vositalari. TTV - bu o'zida o'quv- axborotlarini ekranliovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmlari; radioeshittirish; teleko'rsatuvlar.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot;aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari;audiovizual vositalar.Ta' limning texnik vositalari quyidagi **funksiyalarni** bajaradi:

• ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasinishakllantirishga yordam beradi;

TA`LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI

Reja:

1. Ta`limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta`lim turlari.
2. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar.
3. Ta`limni tashkil etishning yordamchi shakllari.
4. O`qituvchining darsga tayyorlanishi.

Tayanch so'zlar: tashkil etish, shakl, ta'limni tashkil etish shakli, ta'limni tashkil etish tizimi, dars, darsning turlari, ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari.

1.Ta'limni tashkil etishning shakllari. Ta'limni tashkil etish shakli - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: **individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksiya-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari.** Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: **individual; sinf-dars; ma'ruza-seminar.**

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli **ta'limning individual shakli** hisoblanadi. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Afzalliklari	Kamchiliklari
---------------------	----------------------

o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individuallashtirish imkoniyatining mavjudligi;	aqtning tejamli emasligi; o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini ta'minlashdan iborat);
niq bir masalani hal etishda ta'lim o'quvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi.	oshqqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat o'qituvchi ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi); amoda ishlash tajribasining shakllanmasligi.

XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini **ta'limning individual-guruhli shakli** egallashiga imkon berdi.

Ulardan biri bolalarning **guruhli (jamoali) ta'limi** sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) **birodarlik** maktablarida ilk bor qo'llanilgan va u sinf- dars shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda hamkeng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) yaxlito' quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlash uchun niqtashkiliy tizim; 2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoabo'lib muhokama qilinishi masalaning echimini birgalikda izlash jarayoni bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanishini ko'rsatadi;	1) tizimning asosan bilimlarni o'rta darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi; 2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar obilyatlarining rivojlanish sur'atining ortga qaytarilishi;
3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;	3) o'qituvchi uchun o'qitish vazirliklari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning individual usuliyatlarini

Olimpedagogikaga o'quvchilarning o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv vaqtlarining kabitushunchalarni kiritdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqibo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsado'lar baxususiyat kasbetdi. Shunga mos ravishda **tanlabo'qitish** shakli yuzaga keldi (AQShda **Batov**, Yevropada **Mangeym** tizimi).

Yevropada AQShda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv shakllarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan **ta'limning individuallashtirilgan tizimi** ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim

dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan **laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi** deb ham ataydilar.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan **ta'limning ma'ruza- seminar tizimi** yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksiya-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksiya-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

2.Dars - ta'lim tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

3.Darsning turlari va tuzilishi.

Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:a)tashkiliy qism;

b)o'tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish); v) yangi mavzuni bayon qilish;

g) o'rganilgan materialni mustahkamlash;

d) o'quvchilarni baholash;

e) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

a)tashkiliy qism;

b)yangi mavzuni bayon qilish;

v) o'rganilgan materialni mustahkamlash;

d) uy vazifasini berish.

O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:a)tashkiliy qism;

b)o'rganilgan mavzularga doir savol-javob o'tkazish;

v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;

g) o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);

v) nazorat ishini o'tkazish;

g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida). Laboratoriya

Laboratoriya darslarining tuzilishi:a)tashkiliy qism;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash;

c) laboratoriya ishini o'tkazish;

g) o'quvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:a)tashkiliy qism;

b)nazariy materiallarni mustahkamlash;

v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;

g) o'quvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

Darsga qo'yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

4.Darsga qo'yiladigan talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan **tarbiyaviy talablar** o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning

yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o‘zib ketish” darajasidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish, o‘quvchilarning intellektual, emotsional, boshlanayotgan o‘zgarishlarni hisobga olish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

5.O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. O‘qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to‘rtta bosqich ko‘zga tashlanadi: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish.** Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi. **Tashxis** didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o‘quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o‘quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o‘zlashtirish, mustahkamlash, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabilarda namoyon bo‘ladi. **Bashoratlash** bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma‘qulini tanlab olish. **Loyihalashtirish va rejalashtirish** o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

6.Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllari. Ta’limning yordamchi shakllari: to‘garak, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg‘ulot, o‘quv ekskursiyalari, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o‘qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o‘quvchilarning **mustaqil uy ishlari** kiradi. Uning asosiy maqsadi - darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o‘quvchilarning individual layoqati, iste’dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi..

Ta’limning yordamchi shakllariga **ekskursiyalar** ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo‘lishi mumkin. O‘quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo‘yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun o‘qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob‘ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to‘la rejani ishlab chiqishi, o‘quvchilarni bo‘lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O‘quv rejasi turli **fakultativ va tanlov bo‘yicha kurslarni** tashkil etishni ko‘zda tutadi. Ular o‘quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog‘liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro‘yxatini aniqlashda faqat o‘quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo‘yicha mashg‘ulotlar majburiy va umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya - o'quv suhbat)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hozirgi vaqtda ta'limni tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
2. Ta'limni tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
3. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Ma'ruza-seminar tizimining o'ziga xosligini izohlang.
5. Dars deb nimaga aytiladi?
6. Darsning qanday turlari mavjud?
7. Darsga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.

O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH.

Reja:

1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.
2. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari.
3. O'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari.
4. Bilim, ko'nikma, malakalarni va kompetensiyalarini baholash mezonlari.
5. Ta'lim sifati monitoringi.

Tayanch tushunchalar: tashxis, tashxis etish, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baho, ta'lim sifati, monitoring.

1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Tashxis - bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning *maqsadi* o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, larni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi vojnitaxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, aholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri - nazorat va hisobga olishdir. Bu

tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalaridarakasini aniqlash, o'lchash vabaholash jarayonini anglatadi. Aniqlash vao'lchash esatekshirish deb ataladi.

Tekshirish - nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat. O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinchi bo'g'ini har* bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxirlash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo'g'ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxirlash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning *to'rtinchi bo'g'ini* o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi - kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxirlash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi - tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinchi bo'g'in* ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha

arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmisligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. **Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilganetalon (ko'rstakich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Bahodeb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamigaaytiladi.**

O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va xokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish - bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, o'quvchi ham o'zlarining eyingi

bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash varivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir. **O'qitish vazifasi** o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini

tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan **nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

2. Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko'rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. Xolislik (obyektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida - bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb etilishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta'lim oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

3. O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi *turlaridan* foydalaniladi: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi.

Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi

natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat - bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat - choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari **asosida o'tkaziladi**.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **beshtashakli** mavjud: **nazoratning ommaviy (frontal) shaklida** o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va faollashtiradi. Bu nazoratni o'quvchilarning bilim saviyasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi. **nazoratning guruhli shaklida** o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlariquyidagilar: og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliytop shiriqlarni bajarishgaasoslangan tekshirish, uy vazifalarinitekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham

ataladi. Ogʻzaki tekshirishda oʻqituvchi oʻrganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan oʻquvchilarga savollar beradi. Biroq oʻquvchilarning nutqini oʻstirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega boʻlishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish - oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri boʻlib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, oʻqituvchi alohida mavzu yoki oʻquv dasturining maʼlum boʻlimini oʻtib boʻlganidan soʻng oz vaqtning ichida barcha oʻquvchilarni tekshirishi mumkin. YOzma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib boriladi. Ammo oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasida bevosita aloqaning yoʻqligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkoni boʻlmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.

Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning toʻgʻriligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat boʻlishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan oʻquvchilarning oʻzlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida oʻquvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qoʻllay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. Oʻquvchilarning oʻzlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish oʻqituvchiga oʻquvchilarning oʻquv ishiga boʻlgan munosabatini, oʻrganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

4.Bilim, koʻnikma, malakalarni va kompetensiyalarini baholash mezonlari. Oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahs talab mavzu boʻlib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» **baho** qoʻyiladi, agar: a) oʻquvchi dasturdagi materialni toʻliq oʻzlashtirib olgan boʻlsa; b) oʻrganilgan mavzu boʻyicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qoʻllay olsa; g) oʻrganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yoʻl qoʻymasdan, maʼlumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» **baho** qoʻyiladi, agar: a) oʻquvchi oʻrganilgan mavzuning mohiyatini bilsa; b) oʻqituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qoʻllay olsa; g) ogʻzaki javob berishda jiddiy xatolarga yoʻl qoʻymasdan, oʻqituvchining qoʻshimcha savollari bilan xatolarini toʻgʻrilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy boʻlmagan xatoga yoʻl qoʻysa qoʻyiladi.

«3» **baho** yiladi, agar: a) oʻquvchi oʻrganilgan mavzuni oʻzlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda oʻqituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj

sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzulishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

«2» **baho** qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

5. Ta'lim sifati monitoring. "Monitoring" atamasi ilk marotaba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972-yil iyun oyida Stokgolm konferensiyasini tashkil etish arafasida "nazorat" atamasiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.

"Monitoring - inglizcha atama bo'lib, "uzluksiz kuzatish" degan ma'nosini anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida eng muhim, boshqaruv sohasidagi nisbatan mustaqil bo'lim sifatida qaraladi hamda ta'lim monitoringi doirasida pedagogik faoliyat natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sifati monitoring tizimi samarali yo'lga qo'yilgan.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus umumiy o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi; tashqi nazorat - ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi; davlat- jamoatchilik nazorati - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi; milliy va xalqaro darajada baholash - Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: **ichki nazorat; tashqi nazorat; davlat- jamoatchilik nazorati; milliy vaxalaaro darajada baholash.**

O'qituvchilar yoki maktab ma'muriyati, o'quvchilarning o'zlari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari o'quvchilarning bilimlarini o'quv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yo'nalish o'ziga xos bir qator afzalliklarga ega bo'lib, baholash bevosita o'quvchining sinfda amalga oshirilgan ishlari bilan bog'liq, bunda o'qituvchi turli uslublardan (masalan og'zaki so'rov o'tkazish, amaliy mashq bajarish, test va h.k.) foydalanib, o'quvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo'yadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda o'quv choragi va o'quv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda o'qituvchilar, maktab monitoring guruhi o'quvchilarning o'zlashtirishi sifati, o'quv yutuqlariga asosiy me'yor bo'lgan davlat ta'lim standartlariga taqqoslagan holda individul baho beradilar.

Baholashning ikkinchi turi hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy o'qitish sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatiladi, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish omillarini aniqlanadi, boshqa maktablar hamda bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisga qo'yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta'lim muassasalari va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralaridagi alohida tuzilmalar tomonidan ta'lim sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida monitoring - yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korrektsiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Umummilliy baholash - barcha o'quvchilarni yoki ma'lum bir guruhdagi o'quvchilarni tanlab olish yo'li bilan muntazam ravishda o'quvchilar o'quv yutuqlari darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligi baholash hisoblanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Didaktik tashxis deganda nima tushiniladi?
2. Tashxislashning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytiladi?
4. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
5. Tekshirish deb nimaga aytiladi va uning qanday bo'g'inlari mavjud?
6. Baholash deb nimaga aytiladi? Baho deb nimaga aytiladi?
7. Tashxislashning tamoyillarini izohlang.

TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI. TARBIYANING UMUMIY METODLARI

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari.
2. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.
4. Tarbiya metodlari haqida tushuncha va tarbiya metodlari tasnifi.
5. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari, tarbiya, metodlari, tarbiya usullari.

1. Tarbiya jarayonining mohiyati, ahamiyati va vazifalari.

Tarbiyapedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisasifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. **Tor ma'nodagi** tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.
Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos etarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- Smadaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.








Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

2. Tarbiya jarayoni **o'ziga xos xususiyatlarga** ega:

- ❖ maqsadga yo'naltirilganligi;
- ❖ ko'p qirrali jarayon;
- ❖ uzoq muddat davom etishi;
- ❖ uzluksizligi;
- ❖ yaxlitligi;
- ❖ variativligi;
- ❖ natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ❖ ikki tomonlamalilik;

3. Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi **qonuniyatlari** mavjud:

-  ijtimoiy muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillariga bog'liqligi;
-  tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;
-  faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli azilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
-  tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari amda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;
-  tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi;
-  tarbiyalanuvchining "ichki olami"ga ta'sir etishning intensivligi;
-  tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari - bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi **tamoyillar** asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;

- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;
- o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.


Tarbiya turlarining umumiy tavsifi. Tarbiya turlari turli sohalarga ko‘ra tasnif etiladi. Ko‘proq umumlashgan tasnif o‘zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo‘nalishlari bilan bog‘liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo‘linadi. Institutsional belgilariga bo‘yicha oila, ta’lim muassasasi, ta’lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta’lim muassasalaridagi tarbiyaga bo‘linadi.

Herbert Spencer - ingliz olimi “Tarbiya - bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashning amaliy jarayonlarini o‘z ichiga olishi kerak” - deb yozadi, va "bolaning yashash sharoitlari uning shaxs sifatida ulg‘ayishiga bog‘liqligi, ta’sirini misollar orqali keltiradi. O‘zining "Butun shaxsni rivojlantirish" kitobida tarbiyaning aqliy, axloqiy va jismoniy turlarini ko‘rsatib o‘tib, ulardan eng asosiysi axloqiy tarbiyadir deb ta’kidlaydi.⁶(The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.)

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko‘ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontseptsiyalar bilan bog‘liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

1.Jamoa haqida tushuncha. Jamoa (lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a‘zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoat» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi.

⁶ The elements of teaching. Jems M. Banner. Gardners Books.



5-rasm. «Jamo» tushunchasitavsifi Jamoadavajamoayordamidatarbiyalash tarbiyatizimidamuhimahamiyatgaegabo'lgantamoyillardanbiridir. Shaxsnishakllantirishdajamoaningyetakchirolo'ynashito'g'risidagifikrlarpedagogikafaniningilkrivojlanishdavrlaridayoqbildirilgan.

Jamodauninga'zolarior'tasidagimunosabatningalohidashakliyuzagakeladi, buesashaxsningjamoabilanbirgalikdarivojlanishnita'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi.

Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, Davlat konstitusisi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo'lmasligi zarur.

Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a'zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishzarur, faoliyat Umumiy tashkil eetilishi kerak. Jamoa a'zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi. Jamoa a'zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g'amqayg'ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

Saylangan umumiy rahbariy organga egalik. Jamoda demokratik munosabatlar o'rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro'li a'zolarini to'g'ridan-to'g'ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o'ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in - bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar

tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o'ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar jamoasi - bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

2.Jamoani shakllantirish bosqichlari. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir. O'quvchilar jamoasini shakllantirish to'rt bosqichda amalga oshiriladi. **Jamoa shakllanishining birinchi bosqichi.** Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan sezilarli darajada qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribaga ega emasliklari bois so'z yuritilayotgan bosqichda o'qituvchining asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tiyyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar

sanaladi. Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfli tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoa faliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. Bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi. Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

3.O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlari.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi shartsharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolinitarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab

o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

- qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;
- talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;
- jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim;
- o'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar.

Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda sinf faolini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi.

O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

4.Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi: kundalik faoliyatan'analari; bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analari ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Muammoli pedagogik vaziyatlar

1. To'rtinchi sinfda har xil buyumlar: qalam, ruchka, rezinka va boshqalar narsalar yo'qola boshladi. Bir kuni sinfdagi qizchani bosh kiyimi yo'qoldi. O'qituvchi topilmalar byurosining faoliyati haqida gapirib berdi. Bolalar topib olingan narsalar qaytarib berilishi to'g'risidagi kattalardan eshitgan misollarni aytishdi.

O'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'llagan? Bu metodning samaradorligi nimalarga bog'liq? Har doim ham ushbu metod samara beradimi?

2. O'qituvchi quyidagicha hikoya qiladi: O'g'lim (8 yosh) qorong'idan va balandlikdan qo'rqadi. Men imkon boricha uni ko'proq ana shu qo'ruvni yenga oladigan sharoitga qo'yaman: Goho ob-havo qandayligini bilib kelish uchun xovliga, goho go'yo esidan chiqqan narsani olib kelish uchun qorong'u xonaga yuboraman.

O'yin paytida ayrim paytlari chuqurlikka sakraymanda, "Daraxtning anavi novdasini menga olib ber. Uni emas, narigi, yuqoridagisini" deyman.

O'qituvchi to'g'ri qiladimi? Bu qanday tarbiya metodi? U nima uchun samarali?

3. Dars boshlanishidan oldin o'qituvchi yerda g'ijimlangan qog'oz parchasi yotganini ko'rib, bir o'quvchiga "qog'ozni ol", deb murojat qildi. O'sha o'quvchi sekin partadan turib "men tashlamaganman, nega olarkanman" deb, yana joyiga o'tirdi.

O'qituvchi nima qilishi kerak? Sinfning ta'sirlanishi qanday bo'ladi va bu nimaga bog'liq?

4. Ko'p bolali oilaning otasi mamnun bo'lib hikoya qiladi: yer ag'darish biz uchun hech gap emas. 1-2 kg konfet, pechene sotib olib kelamanda, qani bolalar bu sizlarga, lekin oldin yerni chopib beringlar, deyman.

-Bolalar konfetsiz yer ag'darishmaydimi, - so'radik biz. -Uncha tirishib ishlashmaydi-da, - tushuntirdi ota.

Ota qo'llagan rag'batlantirish usuliga qanday baho berasiz?

5. 4-sinf o'quvchisining onasi hikoya qiladi: Avvalari o'g'limning hamma ishi joyida edi. Men ishlamasdim, unga ko'p vaqt ajratdim. Ishga kirganimdan so'ng "ikki baholar" ola boshladi. Kechqurun darsini tekshirsam, topshiriqlarning bir qismi bajarilmagan, bajarilgani esa iflos, tushunarsiz bo'lgani uchun uni qayta ko'chirish kerak. Lekin qachon ulguradi. Uxlash vaqti bo'lib qolardi.

Ota-onaning xatosi nimada. Siz qanday yo‘l tutardingiz?

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» - yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Tarbiya amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar - bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiya metodlari tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqigata’sir etish usullari yig‘indisidir.

Tarbiya usullari - umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar - bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar - metodlarga aylanishi mumkin.

Tarbiya usullari - umumiy metodning bir qismi, alohida harakati

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullara deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita - bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat - tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish - bu usullar. So‘z (keng ma’noda) - tarbiya vositasi, biroq replika, taqqoslash - usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi.

Tarbiya vositalari - bu usul ham emas, metod ham emas, usullaryig‘indisi.

Tarbiya metodlari tasnifi. Zamonaviy pedagogikada ba’zilar amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilar faqat nazariy vazifalarni o‘zida aks ettiradigan o‘nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ishontirish, mashq, rag‘batlantirish va tanbeh berishga bo‘linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi o‘ziga xoslikni, qo‘llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko‘proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o‘zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Mariyenkning tasnifida tarbiya metodlari guruhlarini quyidagicha nomlanadi: tushuntirishli- reproduktiv, muammoli vaziyatli, o‘rgatish va mashq metodlari, rag‘batlantirish, to‘sqinlik qiluvchi, boshqarish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash.

Skinner nazariyasi o‘qitish va ta’lim olish jarayonida o‘qituvchilarning o‘zlarini hulq-atvorlari muhim bo‘lmagan rolda ekani uchun tanqid qilinadi, bu mavzuda gap ketganida unga e’tibor berishga chegara qo‘yilgan, bu o‘rinda jazo tayinlash va mukofotlashdan ko‘ra ko‘proq, deydi, o‘qituvchilar o‘zlari (Men termini 5-bo‘limda to‘laroq yoritilgan) namuna bo‘lishlari zarur. Bu

“ahloq o‘ynini o‘ynash”ni istamayotgan o‘quvchilar – mehribonlik ko‘rsatilmagan yoki, ular ta’limda omadga erishmagan, yo ular o‘qituvchi tomonidan maqtab, yo koyilmagan – bilan yuzaga kelgan muammoni hal

qilishishart bo'lgan o'qituvchilarga kichik yordam taklif qiladi.⁷

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.

- Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Hozirgi vaqtda o'zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko'proq ob'yektiv va qulay metodlar qo'llaniladi.

Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:•Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar.

- Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari.

- Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Shaxs ongini shakllantirish metodlari o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna.

Bu guruhga mansub metodlarning mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. O'quvchilarda g'oyaviy onglik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim.

Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari - radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida hamda Internet matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular

⁷ AleksMuur. Ta'limberishvata'limolish: pedagogika, ta'limdasturivatarbiya. Rutledj. Ikkinchinashr. 2012. 5 bet.

tushunadigan soʻzlar vositasida adabiy tilda oʻtkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining oʻquvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini taʼminlaydi, buning natijasida oʻquvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. Oʻquvchilar oʻz atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni koʻrishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

Oʻqituvchining shaxsan oʻzi namuna boʻlishi, ayniqsa, yoshlarga katta taʼsir koʻrsatadi. Ular oʻqituvchining darsda va hayotda oʻzini qanday tutishini, atrofidagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, oʻz vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

Oʻquvchilar oʻzlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, baʼzan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun oʻqituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham oʻzlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda boʻlishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning soʻzi bilan yurishturishi va xatti-harakatlarida tafovut boʻlmasligi kerak.

Oʻz-oʻzini tarbiyalash metodlari. Oʻquvchida oʻz-oʻzini tarbiyalashga, yaʼni, oʻz ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo boʻlgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida oʻz-oʻzini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Oʻz-oʻzini tahlil (nazorat) qilish oʻz shaxsi, mavjud fazilatlari, xattiharakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

Oʻz-oʻzini tahlil (nazorat) qilish uchun oʻquvchi oʻzining yurish- turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

Oʻz-oʻzini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq- atvorini tahlil qilish asosida oʻz shaxsiga baho berishga yoʻnaltirilgan faoliyat usuli.

Oʻquvchining qobiliyatini oʻz kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. Oʻz-oʻzini baholash qiyin, lekin oʻquvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. Shu bois oʻquvchi irodali boʻlishi, oʻz burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos boʻlishi, yaʼni, tarbiyalanishni xohlashi, oʻzini oʻrtoqlari, atrofda gilarining koʻzi bilan koʻrish va oʻz-oʻzini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida oʻquvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda taʼsir etiladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari hamda oʻsmirlar ishonuvchan boʻlishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi maʼlum koʻrsatmani qabul qilishi zarur boʻlgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning taʼsirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-ogʻzaki taʼsir koʻrsatish asosida ularda maʼnaviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan bahsmunozara usuli boʻlib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda oʻtkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar toʻqnashgan vaziyatda oʻquvchilarda maʼlum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me'yorlarinshakllantirish (mashq)metodlari: mashq, pedagogik talab,ijtimoiy fikr, topshiriq, tarbiyalovchivaziyat.

Mashq va o'rgatish metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, tjobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatleri boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar, mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlari:rag'batlantirish,tanbeh berish, uyaltirish.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llabquvvatlash usulidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglash olishi zarur.

Tanbeh berish - eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'quvchiga yuzmayuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Uyaltirish - o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri

uyat, or-nomus va sharm- hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

3.Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas.

Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiya mazmuni. Unutmash kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.
Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi. Yosh bu oddiygina qara yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda hai shakllantirish mumkin. Biroq ha8 bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari hai o'zgarmasdan qiyoiayoayo. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.
Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari.

Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularga individual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitargigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shartsharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.
Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud.

Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchidan ko'p kuch ishlatishni talab etadi.

Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart- sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo'ladi.

Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniladi.

Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Keng va tor ma'nodagi tarbiya tushunchalariga izoh bering.
- 2.Tarbiya mazmuni,maqsadi va umumiy vazifalarini bayon eting.
- 3.Tarbiya jarayoni qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega, tarbiya qonuniyatlarini shrhlab bering.
- 4.Tarbiya tamoyillari va tarbiya turlarining umumiy tavsifini bayon eting.
- 5.Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
- 6.Faoliyatni tashkil etish va ijtimouy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.

Fuqarolik tarbiyasi. Ma`naviy-axloqiy tarbiya

O`quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi

Reja:

1.Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O`quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish.

2. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasining maqsad, va-zifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya.

3. Ma`naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma`naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari.

4. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari, metodlari. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari,vositalari.

5. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari, vositalari.

Tayanch tushunchalar: Dunyoqarash, ijtimoiy jamiyat, tafakkur, ma'naviy-axloqiy qiyofa, e'tiqod.

1.Dunyoqarash haqida tushuncha. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi insonning olamga

munosabati, dunyodagi o'zni, mohiyati, hayotiy yo'nalishini, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «ifodani idrok qilish» kabi tushunchalar bilan yaqin ma'nodosh ekanligini aytish joiz. Dunyoqarash insoniyatni o'tmish merosi, hozirgi hayot va bundagi sharoitlar, tizimlarning anglab olinganligi, qadriyatdir.

Dunyoqarash kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi, madaniyatini yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlariyig'indisidir.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi.

Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. **Ikkinchi bosqichda** ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. **Uchinchi bosqichda**, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

2.O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy vositalari. Agar uning qarashlari tizimi ong birligiga tayansa, inson dunyo haqida bir butun tasavvur hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, dunyoqarashni

shakllantirish shaxsning intellektiga, irodasiga, his-tuygʻusiga, uning amaliy faoliyatiga taʼsir koʻrsatish bilan bogʻliq.

Oʻquvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy vositalari: intellektual tarkibiy qism, ijobiy emosional holat, amaliy faoliyat sohasi, fanlararo aloqadorlik, pedagogning ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasi.

Dunyoqarashning **intellektual tarkibiy qismi** borliqni bevosita hissiy aks ettirishdan, abstrakt tushunchali fikrlashgacha boʻlgan harakatni talab etadi.

Oʻquvchilarning ijobiy emosional holati taʼlim muassasasida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishga - adabiyotlar va sanʼatni ishlab chiqishga, olimlarning hayoti va faoliyati, ijtimoiy faoliyatiga, oʻzining shaxsiy tajribasiga eʼtibor qaratishni uygʻotadi.

Oʻquvchilarning amaliy faoliyat sohasi yetarlicha keng boʻlishi mumkin. Oʻquv-mehnat va ijtimoiy faoliyat oʻquvchilarni keng doiradagi ijtimoiy munosabatlarga jalb qiladi, muloqot tajribasi, har tomonlama axborotlar bilan qurollantiradi.

Taʼlim-tarbiyani tashkil etish jarayonida **fanlararo aloqadorlik**, ijtimoiy va tabiiy omillarning oʻzaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar taʼsirida shaxs kamolotini taʼminlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Taʼlim muassasalarida oʻquv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining oʻquvchilar tomonidan chuqur oʻzlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogning ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili sifatida aks etadi. Dunyoqarashni shakllantirishning muvafaqqiyati koʻpincha, oʻquvchilarning oʻqituvchiga ishonchiga asoslanadi.

3. Aqliy tarbiyaning mazmun-mohiyati va komponentlari. Aqliy tarbiya taʼlim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Uning asosiy vazifasi - taʼlim oluvchilarning fan asoslari boʻyicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish. Ularni oʻzlashtirish natijasida dunyoqarash asoslari shakllanishi zarur.

Aqliy tarbiya **asosiy vazifasi** taʼlim oluvchilarning fan asoslari boʻyicha bilimlar tizimi bilan qurollantirishdir.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- bilish faoliyatini shakllantirish;
- doimiy ravishda oʻz bilimlarini toʻldirish, umumtaʼlimiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- taʼlim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;

• fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish. Agar inson odamlar orasida ijtimoiy muhitda yashar ekan, uning aqliy taraqqiyoti, intellekti haqida gapirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa uning jismoniy taraqqiyoti uchun ham muhim.

Aqliy rivojlanish deganda hayotiy ta’sir etish va oqibatlarining barchamiqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi va fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin.

Aqliy rivojlanishning nima ekanligini aniqlash uchun “fikrlash” va “aql kuchi” tushunchalariga to‘xtalish lozim bo‘ladi.

Amaliy tajribamimizda fikr so‘zini juda ko‘p uchratamiz. Oddiy qilib aytganda, ob’ektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘lgan tuyg‘u **fikr** deb ataladi. Uning tub mohiyati shunda-ki, fikrimiz orqali biz ko‘zimiz bevosita ilg‘amayotgan, ko‘z o‘ngimizda bo‘lmagan, bo‘lgan taqdirda ham o‘sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo‘lgan «sirli» jihatalarini ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz.

Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, u aqliy faoliyat mahsuli. Eng qizig‘i fikrlash merosiy tushuncha, u barcha inchoylarga xos. Falsafiy, pedagogik, psixologiyk adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari: mantiqiy; abstrakt(mavhum); umumlashgan; nazariy; texnik; reproduktiv; ijodiy(produktiv); tizimli; kategorial; induktiv; deduktiv; algoritmik; tanqidiy; mustaqil va boshqalar.

Aqliy rivojlanish - inson psixikasining individual o‘ziga xosliklaridan, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liqlikda hayotiy tajribalarni oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining murakkab dinamik tizimi. Insoniyat tajribasini qanchalik o‘zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zahirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak.

Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta’lim olganlik o‘z aksini topadi. Ta’lim olganlik - bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi.

Aqlning teranligi inson yangi materialni egallashda mavhumlashtira olishi mumkin bo‘lgan belgilarning muhimligi bosqichi va ularni umumlashganligi darajasida namoyon bo‘ladi.

Aqlning sustligi qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdar tizimidan boshqasiga o‘tishdagi qiyinchilikda namoyon bo‘ladi.

Fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o‘zgaruvchanlikni talab etadi.

Aqlning barqarorligi insonga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko‘rinadi.

Fikriy faoliyatning anglanganligi - uning mahsuli sifatida soʻzda ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati.

Aqlning mustaqilligi - yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yoʻllarini faol izlashda namoyon boʻladi.

Fikrning tejamkorligi - kam vaqt sarflab etarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali oʻquvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yoʻlida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy obʻekti fuqaro sanaladi.

Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan eʼtirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) aʼzosi boʻlgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy meʼyorlarga ongli rioya etish, maʼlum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga masʼullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, maʼnaviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega boʻlgan axloqiy va huquqiy meʼyorlarga rioya etishga oʻrgatib borish.

2. Oʻquvchilarga fuqarolik huquq va burchlari toʻgʻrisida maʼlumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida koʻnikma va malakalar hosil qilish.

3. Oʻquvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti shaʼni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. Oʻquvchilarda xalq oʻtmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuygʻusini uygʻotish, ulardan gʻururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, oʻz manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uygʻunlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini eʼzozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik eʼtiborini jalb etish.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarda koʻzda tutilgan talablarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, shaʼni, qadr-qimmatini hurmat qilish; Oʻzbekiston xalqining tarixiy, maʼnaviy-madaniy merosini avaylab asrash; fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish; qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yigʻimlarni toʻlash; Oʻzbekiston Respublikasini himoya qilish. Yuqorida qayd etilgan burchlarni bajarish Oʻzbekiston Respublikasining fuqarosi sanaluvchi har bir kishining muqaddas burchidir.

2.O‘quvchilarni fuqarolik ruhida, tarbiyalashda davlat ramzlarining ahamiyati. Davlat ramzlari muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g‘oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuidir.

Muayyan davlatning bayrog‘i, gerbi (tamg‘asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuini ifodalaydi. Davlat ramzlari o‘zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy-g‘oyaviy mazmunni ifoda etadi. Davlat ramzlari (bayroq, gerb)da tasvirlangan ranglar, tasvirlar muayyan xalq, millat o‘tmishi, qadim an‘analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, hayotiy intilishlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi g‘oyalari tarannum etiladi. Davlat ramzlari davlatning mavjudligini ko‘rsatuvchi belgilar sanaladi. Ramzlar – bu shartli belgilar bo‘lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma‘lum shart-sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi. Bular:

- 1) o‘quv yurtida tashkil etilayotgan ta‘lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;
- 2) fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining saviyasiga bog‘liq;
- 3) tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo‘lishiga erishish;
- 4) oila, maktab va mahalla o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta‘minlaydi;
- 5) o‘quvchilarning axloqiy va huquqiy me‘yorlar, umumiy tartibga qat‘iy rioya etishga o‘rgatish, zimmasidagi burchni to‘laqonli ado etishlariga e‘tiborni qaratish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma‘ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollarga javoblar olish kutilgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi.

Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Bunda o‘quvchining tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostik (tashhis qo‘yish), statistik va qiyosiy tahlil tahlilni olib borish lozim.

Ijtimoiy fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o‘zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burchini bajara olish (o‘z Vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi majburiyatni his eta olish) qobiliyatiga egalik;
- milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lish;
- davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo‘lish;
- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas‘ullik;
- ijtimoiy huquqiy hamda axloqiy me‘yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo‘lish;

- mamlakat milliy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish haqida qayg'urish;

- davlat tili, milliy madaniyat va an'analarga sodiq, ularga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularni asrash;

- ijtimoiy faollik;

- demokratik tamoyillarga amal qilish;

- tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyatli munosabatda bo'lish;

- fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish;

- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lish;

- to'g'ri so'z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo'lmish;

- o'z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;

- baynalminallik, o'zga mamlakatlarning xalqlariga nisbatan hurmatda bo'lish va boshqalar.

3. **Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari.**

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida shaxsda vatanparvarlik (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) tuyg'usini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Binobarin, fuqaro muayyan davlatning a'zosi sifatida uning sha'ni, obro'-e'tiborini ta'minlashi, uning manfaatlari uchun kurasha olishi zarur.

«Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi, Vatan tushunchasi ken va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jumuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir»¹¹.

Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning

¹¹Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuy'usi. – Toshkent, O'zbekiston, 1996. – 139-bet.

porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

1. Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
2. O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik.
3. Vatan va millat tarixidan g'ururlanish.
4. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxurlik qilish.
5. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish.
6. Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish.
7. Vatan va millat obro'i, sha'ni, or-nomusini himoya qilish.
8. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o‘rtasida, aro, «natio» – xalq) o‘zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an‘analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma‘naviy-axloqiy fazilatlaridan biridir.

O‘quvchilar o‘rtasida vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhbat, matbuot konferantsiyasi, viktorina, uchrashuv, ko‘rik-tanlov, bahs-munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, vatanparvarlik va baynalminallik mavzularida yaratilgan asarlar mazmunini birgalikda o‘rganish, kinofilmalar tomosha qilish ham o‘zining ijobiy natijasini beradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo‘lib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1) o‘quvchilarga fuqaro mudofaasi hamda harbiy bilim asoslarini bo‘yicha dastlabki nazariy bilimlarni berish va amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish;

2) o‘quvchilarni milliy mustaqillik, O‘zbekiston Respublikasining davlat qurilishi hamda konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriluvchi tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;

3) o‘quvchilarda g‘oyaviy onglilikni tarbiyalash asosida, ularda terrorizm va diniy ekstremistik g‘oyalarga qarshi nafrat tuyg‘usini tarbiyalash;

4) o‘quvchilarning vatan himoyasini ta‘minlash borasidagi harbiy texnik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

5) o‘quvchilarda favqulotda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko‘ra olish, shuningdek, qurolli hurujlardan himoyalani ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

6) ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda ta‘lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘rtasida bht (boshlang‘ich harbiy ta‘lim o‘quv fani) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni namoyish etish imkonini beruvchi musobaqaning tashkil etilishi bu borada ijobiy natija beradi. o‘qituvchi rahbarligida «shon-shuhrat» muzeylariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar ham o‘quvchilarda harbiy–vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

4.Huquqiy tarbiya.Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta‘lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;

- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;

- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;

- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

- o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish;

- har bir o'quvchini huquqiy madaniyatini oshirishdan iboratdir.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- keng ko'lamli ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;

- shaxs huquqiy ongini shakllantirish;

- shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik jarayonda huquqiy ta'lim-tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o'lchanadi:

- o'quvchilar tomonidan "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari",

"Konstitutsiyaviy huquq" kabi o'quv fanlarining o'zlashtirilish darajasi, ya'ni, huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;

- ularning umumjamiyat axloqiy-huquqiy me'yorlariga amal qilishlari hamda maktab va boshqa o'quv yurtlari ichki tartib-qoidalar, shuningdek, o'quvchilar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-intizomni buzish hollarining kamayganligi, o'z-o'zini nazorat qilish, xatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari – huquqiy ongning muayyan darajasi;

- ijtimoiy-huquqiy faolliklari (o'quvchilar o'z-o'zini boshqaruv organlari, yoshlar uyushmalari, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, jamoat tashkilotlari hamda huquq-tartibotni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyatini uyushtirishdagi ishtiroklari) – amaliy-huquqiy faoliyat ko'lami.

O'quvchilardagi qiziqishni inobatga olgan holda huquqiy mazmundagi, xususan, "Biznes faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari", "Maishiy xizmat turlaridan foydalanishning huquqiy mohiyati", "Oldi-sotdi munosabatlarining huquqiy-axloqiy negizlari", "Yoshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlari", "XXI

asrga narkotiklarsiz qadam tashla!", "Sening huquq va burchlaring", "Yoshlar ijtimoiy mehnatini tashkil etish shartlari", "Nikohmuqaddas bitim", "Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari", "Terrorizm – mudhish jinoyat", "Qonuniy harakat va harakatsizlik nima?" kabi mavzularda ma'ruza va seminarlar tashkil etish, mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o'zlashtirish maqsadida ularni huquqiy adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, jinoiy xatti-harakatlar va ularning oqibatlari xususida davra suhbatlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan uchrashuv va konferentsiyalar o'tkazish, shuningdek, huquqiy mavzudagi kinofilmlar namoyish etish g'oyat muhim.

SHaxsda huquqiy sifatlarni qaror topishi uning ijtimoiy – huquqiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki darajasi va sifatiga bog'liq. Doimiy ravishda, maqsadli tarzda huquqiy munosabatlarga kirishish shaxsda huquqiy madaniyat unsurlarining shakllanishiga olib keladi. Shu bois jamiyat mafkurasi, ijtimoiy tuzumda qaror topgan huquqiy munosabatlar mazmuni, uning g'oyalari o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi. Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi.

SHaxs huquqiy madaniyatini quyidagi ikki asosiy qismga ajratish mumkin; 1) huquqiy ong; 2) huquqiy faoliyat.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotning ma'lum bosqichida – davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, aholining keskin sur'atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo'lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo'llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida ko'zga tashlanadi.

Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiypsixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy faoliyat huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Shaxs huquqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiysavodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy faollik, huquqiy mas'ullik, huquqiye'tiqod, huquqiy salohiyat.

1. Axloq va ma'naviyat tushunchasi. Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan

etukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq - ijtimoiy ong va tarbiyaviy ta'sir etish shakli sifatida. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi.

Axloq (arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ongshakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar axloqiy kategoriya deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi axloqiy tamoyillar deb ataladi.

Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu axloqiy ideal deb ataladi.

Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) - birdamlik (shaxsiy manfaatlarining umumiylikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'ysundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z-o'zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalganligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatli tavsifini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi.

Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir.

Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi ideallarni esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin.

Me'yor - bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna.

Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq- atvorning ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi.

Qadriyatlar - ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlari. Qadriyatlar xilma-xil tasnifga ega bo'lib, eng umumiy tarzda mutlaq va nisbiy qadriyatlar farqlanadi. Absolyut qadriyatlar, ya'ni umumahamiatli (ob'ektiv) tavsifga ega bo'lib, ular o'zida shubhasiz asoslangan, istalgan nuqtai nazardan, turlicha munosabatlar va barcha sub'ekt uchun ijobiy xususiyatga ega. Ulardan tashqari, nisbiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular faqat qandaydir munosabat bilan yoki ma'lum bir sub'ektlar uchungina ijobiy tavsifga ega bo'ladi.

Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti- harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, talabalar tomonidan ularning faoliyatida yorqin namoyon bo'lgandagina, rivojlangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan histuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab etishdan iboratdir.

2.Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiya - yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti- harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa

insonda shaxsning tegishli e' tiqod, ma'naviy moyilliklar, histuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: 1) o'quvchilarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakatlarni tarbiyalash; 2) xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash; 3) axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy **tamoyillariga** quyidagilar kiradi: ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi; ta'lim-tarbiya ishiga o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma'naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish; o'quvchilarning faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning tizimliliigi va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi; oila, ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; o'quvchidagi ijobiy sifatlarga suyanish; o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida sub'yekt-sub'yekt munosabatlarining o'rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixik jarayonlarga (motivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta'sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o'quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

Ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o'git, ko'rsatma, namuna va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o'rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokozolar.

Ma'naviy-axloqiy motivasiyani hosil qilishga doir metodlar: rag'batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar.

3.Ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari. Ma'naviyaxloqiy mavzudagi **hikoya** - axloqiy mazmundagi voqea-hodisalarni yorqin emosional bayon etilishidir. Hikoya tarbiyalanuvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularga axloqiy me'yor va qoidalarni tushunish hamda o'zlashtirishga yordam beradi. Yaxshi bayon tavsifiga ega hikoya axloqiy tushunchalarning mohiyatini

ochib berishgagina xizmat qilib qolmay, balki tarbiyalanuvchilarda madaniy xulq-atvor qoidalariga ijobiy munosabatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy mazmundagi hikoya bir nechta vazifani bajaradi: bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi, tarbiyalanuvchining xulq-atvor tajribasini kattalarniki asosida boyitadi.

Ushbu metodning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) tarbiyalanuvchilarda ijobiy axloqiy hislarni uyg'ota olish, hikoya qahramonlariga hamdardlik bildirish - yutug'idan quvonib, muvafaqqiyatsizligiga birgalishib achinish;

2) tarbiyalanuvchilarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;

3) ma'naviy-axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, tarbiyalanuvchilarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda hamfoydalanish.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi **shartlarga** rioya qilinishi zarur:

1. Hikoya tarbiyalanuvning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun hikoyaning qisqa, emosional, tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo'rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta'minlaydi.

3. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

4. Hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi.

Tushuntirish metodi esa, tarbiyalanuvchilarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor va qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslaniladi. Masalan, ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab u kishining yuziga qarab, kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar orqali tarbiyalanuvchilar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ular axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida tarbiyalanuvchilarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida tarbiyalanuvchilar o'z fikrlarini erkin aytishlariga keng imkon berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari asosida bajarishga urinadilar.

Izohlash - tarbiyalanuvchilarga og'zaki-emosional ta'sir ko'rsatish metodi.

Milliy tarbiyamizda mazkur metod "ta'birlamoq" tarzida ham ishlatiladi. Ta'birlamoq - tarbiyalanuvchida, tarbiyalanuvchilar guruhida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifat-lamoqdir. Tushuntirish va hikoyadan farqli ravishda

izohlashning muhim jihati biror yosh guruhi yoki alohida tarbiyalanuvchiga ta'sir etishga yo'nalganligidadir. Mazkur metodni qo'llashda maktabgacha yosh guruhi va tarbiyalanuvchilar guruhining shaxsiy sifatlariga asoslaniladi. Maktabgacha yosh guruhida sodda izohlash ko'rinishidan foydalaniladi: «Mana bunday qilish kerak», «hamma shunday qiladi» va boshqalar. Izohlash metodi yangi axloqiy sifatlar yoki xulq-atvor shakllarini shakllantirish hamda tarbiyalanuvchilarda ma'lum bir xatti-harakatlarga to'g'ri munosabatni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyalanuvchilarni axloqiy tarbiyalashda nasihat qilish muhim o'rin tutadi. **Nasihah** - sokin, xayrixoh vaziyatda tarbiyalanuvchini yaxshi yo'lga solish, ta'lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o'git. Aynan nasihat tinglash va unga rioya etish mazkur yosh guruhi uchun xosdir. Nasihat orqali tarbiyalanuvchi psixikasiga tizimli ta'sir ko'rsatilib, unda ma'lum bir faoliyat motivlari va ustanovkalar hosil qilinadi.

Shuningdek, tarbiyalanuvchilarning axloqiy ongini shakllantirishda ko'rsatma berishdan ham foydalaniladi. Ko'rsatmoq

-tarbiyalanuvchiga, tarbiyalanuvchilarga o'rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqate'tiborlarini jalb qilishdir.

Ishontirish - tarbiyalanuvchilarni axloqiy tarbiyalashda katta yordam beradi

(«Kasal bo'lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo'lni yuvish kerak», «O'rtog'ini urish yomon»). Ishontirish o'z navbatida namuna ko'rsatishni talab etadi. Namuna tarbiyalanuvchining birinchi signal tizimiga faol ta'sir ko'rsatib, harakatlanish uchun aniq timsolni hosil qiladi va o'z navbatida tarbiyalanuvchida axloqiy ong, his-tuyg'u, ishonchni tarkib toptirib, uning faolligini oshiradi.

Ma'naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari. Mashq - ma'naviy-axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli metodidir. Unga qoidalarni mashq qildirish - foydal odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o'rgatilgan tajribani yangilash, nazorat - o'rgatilgan odatning to'g'ri va samarali ekanligini tekshirish, o'z-o'zini nazorat qilish, tarbiyalanuvchini faollashtiruvchi shaxsiy gigiena qoidalari, ovqatlanish madaniyati, ko'chada, shaxsda xulq-atvor madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo'la oladi. Mashq qildirish natijasida tarbiyalanuvchida malaka va odatlar tarkib topadi.

Mashq metodining samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olishni talab qiladi: 1) mashqlar tizimi; 2) ularning mazmuni; 3) mashqning tushunarli bo'lishi; 4) hajmi; 5) takrorlash tezligi; 6) nazorat va tuzatish; 7) tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari; 8) mashqni bajarish joyi va vaqti; 9) individual, guruhli va jamoaviy mashq shakllarini uyg'unlashtirish; 10) motivasiya hosil qilish va rag'batlantirish. Mazkur omillar orasida mashqning hajmi va sur'ati hamda kutiladigan natija o'rtasida to'g'ridanto'g'ri aloqadorlik mavjud: mashq qanchalik ko'p va tez-tez bajarilsa, uning yordamida shakllantiriladigan sifatlar shunchalik tez rivojlanadi.

Talab - tarbiyalash maqsadida tarbiyalanuvchidan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatini rag'batlaydi yoki bartaraf etishga xizmat qiladi.

Taqdim etish shakliga ko'ra bevosita va bilvosita talab farqlanadi. Bevosita talab uchun qat'iylik, aniqlik, mohiyatning tushunarli bo'lishi xos bo'lib, keskin ohang, yuz harakatlari uyg'unligi aks etadi.

Bilvosita talab (maslahat berish, yalinish, ta'kidlash, qaytarish) bevosita talabdan farqli ravishda tarbiyalanuvchida qayg'urish, qiziqish, intilish kabi psixologik omillarni chaqirishga xizmat qiladi. Maslahat berish orqali tarbiyalanuvchida ma'lum xatti-harakatning foydali ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Tarbiyalanuvchi qachonki bildirilayotgan fikrni o'zi uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qila olgandagina maslahatni qabul qiladi. Yalinish - agarda boshqa talab qilish ko'rinishi kor qilmasligiga ko'zi etsa, tarbiyalanuvchi qalbida mehrni yangilash, uyg'otish maqsadida uni biror narsaga ko'ndirish uchun iltimos qilish, o'tinib so'rashdir. Ta'kidlash - tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazilgan vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlashdir. Qaytarish - tarbiyalanuvchi jahli chiqib, qizishib biror kor-hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko'rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo'ya tishdan, xatti-harakatdan o'zini tutishga undash, tiyish.

O'rgatish - tarbiyalanuvchiga biror ish-harakat (masalan, turli joy va vaziyatlarda o'zini tutishni, gapirishni va boshqalar) bajarish usulini, yo'lyo'rug'ini tushuntirish, bildirish va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilish. Mazkur metodni to'g'ri qo'llash qoidalariga quyidagilar kiradi:

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tarbiya maqsadini aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Ayniqsa, tarbiyalanuvchi o'rgatilayotgan ish-harakatning nima uchun xizmat qilishini tushunib etmasa, tarbiyachining harakati zoe ketadi.

Ish-harakatni bajarishga o'rgatishda buyruqqa emas, tushuntirishga asoslanish lozim. Masalan: «Qo'shnilar bilan salomlashib yursang, ular seni yaxshi ko'rishadi», «Seni chiroyli kuladi deyishlari uchun tishlaringni yuvib yurishing kerak» va boshqalar.

Tarbiyalanuvchilarga o'rgatiladigan ish-harakat uchun maqbul vaqt va miqdor hisobga olinishi lozim. Odatlantirish uchun ma'lum muddat zarur, shoshilish kerak emas. Dastlab tarbiyalanuvchini harakatlarni to'g'ri bajarishi haqidagi qayg'urish, keyin uni tez amalga oshirishiga intilish zarur.

Tarbiyalanuvchiga harakatlar qanday bajarilishini, natijasi nima bilan tugashini ko'rsatib berish lozim. Masalan, toza va iflos poyabzal, silliq va g'ijimlangan kiyimni taqqoslab ko'rsatish orqali tarbiyalanuvchini bunday holatlarni bartaraf etishga o'rgatib borish mumkin.

O'rgatish doimiy nazoratni talab etadi. Nazorat chin ko'ngildan, qiziqish bilan amalga oshirilishi, zarda-jahl tarzida bo'lmasligi hamda o'z-o'zini nazorat qilish bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim.

1. O'rgatish o'yin orqali amalga oshirilsa, yaxshi samara beradi. O'yinda tarbiyalanuvchi belgilangan qoidalarni boshqalarning majburlashisiz ham o'z xohishiga ko'ra bajaradi.

Muammoli vaziyat o'zining ahamiyati jihatidan mashqqa yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni tarbiyalanuvchida faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya-vaziyat tavsiya etiladi, masalan birorta hikoya ma'lum bir erida to'xtatiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Tarbiyalanuvchilarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Keyinchalik tarbiyalanuvchilarga real muammoli vaziyat taklif etiladi: futbol o'yini ketyapti. Bir jamoaning sardori yaxshi o'yinchi, uning jamoasi har doim yutib chiqadi. Mana shunday voqea sodir bo'ldi: u jamoadagi bir o'yinchi ko'ptokni noto'g'ri tepgani uchun uni qattiq uradi. Undan o'yinchi bilan qo'pol munosabatda bo'lgani uchun o'yinchidan kechirim so'rash talab etiladi. U kechirim so'rashdan bosh tortadi, demak, uni o'yindan chetlashtirish kerak. Tarbiyalanuvchilariga avval tarbiyachining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bu muammoni hal etish tavsiya etiladi.

Ma'naviy-axloqiy motivasiyani hosil qiluvchi metodlar. Bu guruh metodlaridan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, tarbiyalanuvchi xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalaniladi. Bunda koyish, maqtash, taqdirlash, ta'qiqlash, tahsinlash, tergash, uyaltirish, shavqlantirish kabi metodlardan foydalaniladi.

Koyish - jazo berishning yengil turi. Tarbiyalanuvchiga tanbehlovchi so'z aytish, tanbeh berish, urishib qo'yish. **Maqtash** - tarbiyalanuvchini uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirish, yaxshi qilib ko'rsatish. **Taqdirlash** - tarbiyalanuvchini qadrlash, munosib baholash, tarbiyalanuvchiga uning qadri bor ekanligini sezdirish. **Ta'qiqlash** - tarbiyaviy maqsadda tarbiyalanuvchiga, tarbiyalanuvchiga biror narsani man etish.

Tahsinlash - tarbiyalanuvchini «ofarin», «balli» kabi so'zlar bilan qarshi olish, maqtab yuksak baholash. **Tergash** - vaqti-vaqti bilan tarbiyalanuvchiga etarli darajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo'ya xatti-harakatlari uchun koyib, «yo'li»dan qaytarib turish. **Uyaltirish** - noma'qul qilg'i uchun tarbiyalanuvchiga o'ta noqulaylik tug'dirish, xijolot qildirish. **Shavqlantirish** - tarbiyalanuvchining xulqi, muvafaqqiyatlari, kelajagiga g'oyat mamnunlik hissi bilan qiziqish, ruhiy ko'tarinkilik bilan zavqlanish, zavqlantirish, qanoatlantirish.

4.Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni.

“Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur”

Oila er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai. Oilaning hayoti moddiy (biologik, xo'jalik) va ma'naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar bilan xarakterlanadi. Oila-tarixiy kategoriya. Uning shakllari va funktsiyalari mavjud

ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, shuningdek jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog'liq.

Oila– kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, otaonalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

Oila tarbiyasining mohiyati. Oila tarbiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiyfoydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi.

Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot

vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.

Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar:

I. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglilik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish mumkin. So'rovnomalar ikki turda bo'lib, ulardan birinchisi har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish, farzandlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomalardir.

II. Maktabning o'quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

1. Sinf ota-onalar majlisi. Majlis o'quv yili davomida besh marta o'tkaziladi, ya'ni, o'quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o'quv yurti ichki-tartib qoidalari, umumjamo'a ijtimoiy me'yorlariga rioya etish holatlari, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil etiladi, navbatdagi davr uchun belgilangan ishlarni rejalashtirish, ularni hal etish yo'llari, chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda ta'lim olayotgan, jamoa hayoti, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar faollik ko'rsatayotgan, o'qishda, mehnatda alohida o'rnak bo'layotgan o'quvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

5.O'quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash.Ijtimoiy jamiyat hayotining tartibli kechishini ta'minlash maqsadida axloqiy hamda huquqiy me'yorlar qabul qilingan. Jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy-huquqiy me'yorlar esa davlt tomonidan qabul qilinib, tegishli qonun aktlari asosida tartibga solinadi. Intizom ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlarga nisbatan ongli yondashuv, ularga to'la amal qilish demakdir. Ongli intizom tushunchasi shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablari asosida aqliy quvvatga tayangan holda tashkil etilish ko'rsatkichidir. Ongli intizom tarbiyasi o'quvchilar tomonidan intizomning mohiyati, uning ijtimoiy jamiyat hamda shaxs hayotida tutgan o'rnini to'o'ri baholash, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablariga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Talabalar

o'rtasida ongli intizom tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish, ongli intizom tushunchasini qaror toptirish.

2. O'quvchilar tomonidan ijtimoiy burch mohiyatining o'zlashtirilishiga erishish.

3. O'quvchilarda ijtimoiy burchni ado etishda ongli va ixtiyoriy faoliyatini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

4. O'quvchilarda kundalik hayotiy rejim asosida faoliyatni tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish.

5. O'quvchilarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati, mehnat faoliyati o'rtasida o'zaro mutanosiblikning qaror topishiga erishish) ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishish.

6. O'quvchilarda ta'lim muassasasi ichki tartibi qoidalariga bo'ysunish hissini shakllantirish.

7. Intizomsizlikning oldini olgan holda intizomsizlikka qarshi kurashishga yo'naltirilgan faoliyatini yo'lga qo'yish va boshqalar.

Ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri yosh avlodni ongli intizom ruhida tarbiyalashdir.

Ta'lim muassasalarida o'rnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom o'quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli o'quvchilar organlari, uning a'zolari talablarini to'lo'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi.

Ongli intizom o'quvchilarning o'qish va mehnat faoliyatiga ongli munosabatda bo'lish, o'quv yurti ichki tartib intizomiga bo'ysunish, jamoa tomonidan topshirilgan topshiriqni bajarishga vijdonan yondashgan holda xulq-atvor me'yorlariga qat'iy rioya etish zarurligini tushunib olishlari va ularga o'z ixtiyorlari bilan itoat etish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga sharoit yaratadi.

Ta'lim muassasalari o'quvchilarida intizomlilik xislatining hosil bo'lishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarining sifatini yaxshilash, ularning samaradorligini oshrishga imkon beradi.

Ongli intizom tuyg'usini o'quvchilarda shakllantirish quyidagi mazmundagi faoliyatni tashkil etish asosida kechadi:

a) maqsadga muvofiq talablarning qo'yilishi hamda ularning o'quvchilar tomonidan bajarilishini uzluksiz, doimiy nazorat qilib borish;

b) ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini tushuntirish;

v) ongli intizom mezonlaridan biri bo'lgan intizomli xulq, xarakter va iroda sifatlarini hosil qilish maqsadida mashq qildirish va o'rgatish;

g) rag'batlantirish va jazolash. Rag'batlantirish – o'quvchining namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat qilib ko'rsatish, faxriy yorliqlar bilan taqdimlash, devoriy gazetada ushbu o'quvchi to'lo'risida kichik ma'lumotnoma berish, uning

suratini maxsus doskaga qo'yish, ota-onasining nomiga tashakkurnoma yuborish va boshqalar. Jazolash – o'quvchi (talaba)ning xatti-harakati va faoliyatini jamoa muhokamasiga qo'yish kabi holat asosida tashkil etiladi.

1. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari.
2. Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart- sharoitlari.
3. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
4. Jismoniy tarbiya vositalari.
5. Estetik tarbiya va uning vazifalari.
6. Estetik tarbiya vositalari

Tayanch tushunchalar: mehnat, mehnat tarbiyasi, mehnat turlari, jismoniy tarbiya, jismoniy yetuklik, jismoniy tarbiya vositalari, estetika, estetik tarbiya, astetik madaniyat.

1.Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil

qilish;ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib

borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

2.Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart- sharoitlari:

1. Bolalar mehnatining o'quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liqligi.
2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o'quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo'shib olib borilishi.3.Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo'ldan kela olishi.

4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vij doniyligi.

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo'shib olib borish.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. **O'z-o'ziga xizmat** o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Ishlab chiqarish mehnati turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga em-xashak tayyorlash va shirkat xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat - o'quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish **shakllari**: mehnat bayrami, o'quvchilar yasagan buyumlar ko'rgazmasi; hasharlar uyushtirish; qarovchisi yo'q, bemor, keksa va nogiron kishilarga ko'rsatiluvchi insonparvarlik yordami; ko'kalamzorlashtirish; ta'mirlash (maktab binosini); «Mohir qo'llar» to'garagi faoliyati.

3. Jismoniy tarbiyaning vazifalari. Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o'zlashtirib olish tushuniladi.

Jismoniy tarbiya - tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo'naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari xilma-xil bo'lib, pedagogikada qator tasniflar yaratilgan. Jumladan, V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatishadi:

1) bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishiga yordam berish - organizmning morfologik va funksional rivojlanishini ta'minlovchi ishchanlik qobiliyatini oshirish, uning tashqi muhitning noqulay vaziyatlariga barqaror qarshi tura olishini mustahkamlash;

2) asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish - bolaning xilma-xil harakatga doir faoliyatga qobiliyatligi uning barcha jismoniy sifatlari - kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik va ephillikni yuksak uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlaydi;

3) hayotiy muhim harakatga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish - bolada maxsus harakatga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish. Harakatga doir tasavvurlarga tayangan holda bola turli sharoitlarda o'z xatti-harakatlarini boshqara olish imkoniyatiga ega bo'ladi;

4) jismoniy madaniyatning tizimli mashg'ulotlariga barqaror qiziqish va ehtiyojlarni tarbiyalash. Sog'lom turmush tarzining asosida bolaning doimiy ravishda o'z-o'zini jismonan rivojlantirishga ichki tayyorligi yotadi. U muntazam

jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va bolalarning jismoniy mashg'ulotlarga faol munosabati natijasida yuzaga keladi;

5) jismoniy madaniyat va sport, tibbiy va gigiena sohalariga oid minimum nazariy bilimlarni egallash zarurligi. Bolalar kun tartibi va shaxsiy gigiena haqida, jismoniy madaniyat va sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati aniq tasavvurlarga ega bo'lishi zarur.

1) umummadaniy - bo'sh vaqtni mazmunli va foydali o'tkazish.

I.P.Podlasiy tomonidan taklif etilgan jismoniy tarbiyaning vazifalari V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlar tasnifiga mos kelib, shu bilan birga jismoniy tarbiyaning yana ikkita funksiyasi alohida ajratib ko'rsatilgan: 1) tarbiyalanuvchilarda estetik sifatlarni tarbiyalash; 2) tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

4.Jismoniy tarbiya vositalari. Jismoniy tarbiyani amalga oshirish vositalari xilma-xil bo'lib, ularni umumlashgan tarzda uch guruhga ajratish mumkin: tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jismoniy mashqlar.

Tabiiy omillar tabiat in'omlari (suv, havo, quyosh)ning sog'liqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashish imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat «bola organizmini chiniqtirish» atamasi bilan tavsiflanadi. Bola organizmini chiniqtirish deganda, organizmni mustahkamlash, chidamlilik, zararli ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish, hayotiy sharoitlarning o'zgarishiga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi tushuniladi.

Gigienik shart-sharoitlar. Bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun gigienik shart-sharoitlar - uyqu, ovqatlanish va kiyinish, kun tartibi kabilarni hisobga olish zarur.

Bolalarning jismoniy jihatdan tarbiyalashdagi muhim vazifa nerv tizimi gigienasidir. Bu vazifani hal etishda uyqu katta ahamiyatga ega. **Uyqu** miya yarim sharlarining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv tizimining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to'ymasa nerv tizimining buzilganidan dalolat beradi. Nerv tizimi qo'zg'aluvchan bolalar aksariyat yomon uxlashadi. Bunday bolalarning uyqu tormozlanishi chuqur normal uyquni ta'minlay olmaydi.

Kiyinish ham gigienik omil sifatida bolaning jismoniy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kiyim har doim bolani o'rab turgan havo temperaturasiga mos kelishi kerak. U engil materialdan tayyorlanib, havoni, issiqlikni yaxshi o'tkazadigan bo'lishi, oson yuviladigan, yaxshi ho'llanadigan, namni shimadigan, elastik va badanni bevvovta qilmaydigan bo'lishi lozim.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o'tishi kerak. Bola stol atrofida yaxshi ishtaha bilan o'tirsa, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil qiladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillikni, madaniy-gigienik malakalarni, stol atrofida o'zini to'g'ri tutib o'tirish

malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhimi - bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir.

Jismoniy mashqlar deganda, jismoniy tarbiya qonuniyatlari va vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi tushuniladi. Jismoniy mashqlarga tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'proq umumlashgan tasnif o'zida gimnastika, o'yin, sayr kabilarni qamrab oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan gimnastika organizmga nafis ta'sir etish yoki uning alohida tizim va funktsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Gimnastikaning asosiy, gigienik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari mavjud.

O'yin bolaning jismoniy kuchini, qo'llarining qattiqligini, qaddi-qomatining tikligini, ishonchli ko'zlarni rivojlantirishga xizmat qilib, unda o'tkir zehn, topqirlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, bolalarda g'amxo'rlik, o'z jamoasi uchun qayg'urish, birgalikdagi harakatlanishdan quvonish, do'stlik va o'rtoqlik hissini kuchaytiradi.

Sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda o'tkazilishi mumkin. Sayr bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lib, ularning sog'ligi va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

5.Estetik tarbiya va uning vazifalari - tarbiyalanuvchilarda estetik histuyg' u, estetik ong va munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiya - bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish jarayoni. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzuga mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiyaning **maqsadi**: tarbiyalanuvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axloqiy-estetik, insonparvarlik ideallarini, go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.

Estetik tarbiyaning vazifalari:

1) tarbiyalanuvchilarni san'atdagi, atrofi-mizdagi go'zallikni his qila olishga o'rgatish;

2) voqelikka estetik munosabatni qaror toptirish;3)estetik didni, go'zallikni baholash qobiliyatini tarbiyalash.

Estetik madaniyatni shakllantirish - bu faqatgina badiiy dunyoqarashni o'stirish, o'qilgan kitoblar, ko'rilgan kinofilmlar, tinglangan musiqiy asarlar sonini ko'paytirishgina emas. Aksincha, bu insonning hissiyotiga ta'sir ko'rsatish, shaxs ma'naviyatini boyitish, xulq-atvorini boshqarish va tuzatishdir. Agar befarqlik, loqaydlik namoyon bo'lsa, inson o'zining antiestetikligini namoyon etadi. Agar o'quvchi go'zallikni his qilishning

ijobiy odatlari, she'riyat, ijodiy mehnatini o'zlashtirgan bo'lsa, u holda uning estetik madaniyatining yuqori darajada ekanligi haqida bema'lol gapirish mumkin. Shunday odamlar borki, romanlar, she'rlar o'qishadi, ko'rgazma va konsertlarda ishtirok etadi, biroq ijtimoiy axloq me'yorlarini buzishadi. Bunday odamlar estetik madaniyatdan uzoq, chunki estetik qarashlar va estetik lazzatlanish ularning ichki dunyosiga kirib bormagan. Buning uchun shaxs estetik madaniyatini shakllantirishning muhim tarkibiy qismlari - estetik qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik ong, estetik mulohaza, estetik did, estetik idealni tarkib toptirish, ularning psixologik-pedagogik jihatlarini asoslash lozim.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari:

Shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi sub'ektiv omillar **estetik ehtiyoj** deb ataladi.

Shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishishi **estetik qiziqish** deb ataladi.

Ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida -nazariyalar, qarashlar, badiiy ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadigan xususiyat **estetik ong** deb ataladi.

Shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakati **estetik mulohaza** deb ataladi.

Estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig'indisi orqali shakllanadigan va shaxsning narsa-buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa **estetik did** deb ataladi.

Shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishi **estetik ideal** deb ataladi.

Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari borki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday shakllari

6. Estetik tarbiya vositalari deb ataladi.

Estetik tarbiya vositalariga tabiat, mehnat va san'at kiradi.

Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turlari texnikalashib borgan sari, ularning ko'ngilli va ijodiy tabiati ortib boradi. Shu tariqa mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili bo'lib qoladi. Qoloq ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida har qanday mehnat turi shaxsga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir shaxs o'z mehnatidan ko'proq moddiy va ma'naviy manfaatdor bo'lsagina, mehnat estetik tarbiya omili bo'la oladi.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili - bu **tabiat**dir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha ayt-ganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan go'zallik manbai. U estetik his-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o'zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi.

Estetik tarbiya vositalari orasida **san'at** muhim o'rin egallaydi. San'at voqelikka estetik munosabatning eng muhim shaklidir. Jamiyat estetik

madaniyatining darajasi ko'p jihatdan san'at rivojining darajasi, uning ijtimoiy hayotda qanchalik ko'p ahamiyat kasb etishiga bog'liq.

San'at estetik tarbiya vositasi sifatida har bir shaxsga mo'ljallanganligi bilan, dunyoga keng va ochiq ko'z bilan qarash tuyg'usini shakllantirish, nafosatni bevosita mushohada etish, yuksak orzu-umidlar yo'lida ijodkorlik qobiliyatini vujudga keltirishi bilan izohlanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
2. Mehnat faoliyatining asosiy turlariga nimalar kiradi?
3. Mehnat faoliyatini tashkil etish shakllarini izohlang.
4. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi?5.“Jismoniy kamolat” tushunchasi o'zida nimani ifoda etadi?
6. Jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
7. Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy vazifalariga nimalar kiradi?
8. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifalarini izohlang.
9. Estetik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlariga tavsif bering.
10. Estetik madaniyatni shakllantirish vositalarini bayon eting.

TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI.XALQARO BAHOLASH DASTURLARI(PROGRAMME FOR THE INTERNATIONAL ASSESSMENT)

Reja:

1. Ta'lim muassasasini boshqarish haqidatushuncha.
2. Boshqarish funktsiyalari.Boshqaruv metodlari va usullari.
3. Pedagogik Kengash ta'lim muassasasining boshqaruv organi sifatida.
4. Ta'lim muassasasi Metodik Kengashi va uning vazifalari.
5. Metodika birlashmalari va ularning faoliyatini tashkil etish yo'llari.
6. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi.Yosh o'qituvchilar bilan ishlash yo'llari.

Tayanch tushunchalar: boshqarish, menejment, boshqaruv funktsiyalari, boshqaruv metodlari, boshqaruv uslublari, Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi, Metodika birlashmasi, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish, metodik xizmat ko'rsatish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash.

1.Ta'lim muassasasini boshqarish haqidatushuncha.Boshqarish ma'lum bir ob'yektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Menejment mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir.

Olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;

- ta'lim menejmenti - bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);

- menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;

- ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, endilikda ta'lim tizimindavlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi - ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ota-onalarga ta'lim dasturlarini, turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon rahbaridan yuqori madaniyat, chuqur ma'naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z ijodiy potentsialini rivojlantirishga, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Ya'ni ko'pqirrali qobiliyatlilikni talab etadi. Ko'pqirrali qobiliyat tushunchasi kasbiy va shaxsiy kompetentlik tushunchasiga mos kelib, Aleks Murning fikricha "Soddaroq qilib tushuntiradigan bo'lsak ko'pqirrali qobiliyatlar deganda turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'rganilishi tushuniladi. Xou ta'kidlashicha hech qachon ikki o'rganuvchi bir xil bo'lmaydi: har bir shaxs o'ziga xos qobiliyatlar egasidir.⁸ "Ko'pqirrali qobiliyat tushunchasining eng ilg'or tarafdorlaridan biri asarlari ko'pchilikka ma'lum bo'lgan Govard Gardnerdir. (1983,1993). (yana ko'rish mumkin bo'lgan asarlar Armstrong 1994, Xou 1984, 87-92 betlar va Bentli 1998).¹²

2.Boshqarish funksiyalari.Boshqaruv metodlari va usullari.Boshqarish funksiyasi deganda u yoki bu ob' yektni boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bir turdagi ishlar majmui tushuniladi. Boshqarish nazariyasi asoschilaridan Anri Fayol XX asrning boshlarida boshqaruvning besh funksiyasini ajratib ko'rsatgan: rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish, nazorat. A.T.To'xtaboev mazkur funksiyalarni faqat ma'muriy ekanligini ta'kidlab, ma'muriy boshqaruv funksiyalarining uch

⁸ Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum And Culture. Alex Moore.146-- bet.¹²Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum And Culture. AlexMoore.147- bet.

guruhini ajratib ko'rsatadi: umumiy funktsiyalar; ijtimoiy-psixologik funktsiyalar; texnologik funktsiyalar. Turli olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda, boshqaruvning quyidagi funktsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Axborot-tahlil funktsiyasi. Mazkur funktsiya Yu.Konarjevskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, boshqaruvda alohida o'rin tutadi; bunda axborotlarni olish va tahlil qilishda jarayon boshlanadi va tugallanadi.

Maqsadli-motivlashtirish funktsiyasi. Motivlashtirish belgilangan maqsadga erishish bo'yicha barcha boshqaruv sub'ektlarida qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Oldindan ko'rish-rejalashtirish funktsiyasi. Boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish funktsiyasi uchun maqsadli-motivlashtirish boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi, oldindan ko'rish-rejalashtirish funktsiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik tizimni va uning ishtirokchilarining harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tartibga solish imkonini beradi.

Tashkiliy-ijrochilik funktsiyasi. Bu funktsiya boshqaruv faoliyatining barcha yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Bu kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish, ijrochilarning o'zaro ta'sir etish tizimini shakllantirish, axborotlar to'plash va ularga ishlov berish faoliyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Buning natijasida u yoki bu pedagogik tizimga xos tarkibiy tuzilish vujudga keladi.

Nazorat-tashxis funktsiyasi. Nazorat - bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo'lib, u boshqaruvning barcha funktsiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Umumiy holda nazorat rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o'zaro solishtirish jarayoni bo'lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Tartibga solish - muvofiqlashtirish funktsiyasi pedagogik tizimning holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko'tarish va pedagogik jarayonda yo'l qo'yilayotgan xatoliklarni tuzatish hamda pedagogik jarayon ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi.

Mazkur funktsiyalarni amalga oshirishda boshqaruv metodlari muhim ahamiyat kasb etib, ular boshqaruv jarayonida xodimlar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va usullarining yig'indisi hisoblanadi.

Boshqaruv metodlari. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta'lim muassasalarini boshqarishga ko'p darajada mos keladigan metodlarning to'rt asosiy guruhi: iqtisodiy, tashkiliy- ma'muriy, ijtimoiy-psixologik va axborotlar to'plash metodlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy metodlar o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indisini tavsiflab, har bir ishchi va butun muassasa uchun talablar belgilash bilan birgalikda zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, innovasion jarayonlarni kuchaytirish, ya'ni xodimlarning innovasion faoliyatlarini tashkil

etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda iqtisodiy metodlardan foydalaniladi.

Rahbarlar tomonidan boshqaruv jarayonida, xodimlarning faoliyati batafsil o'rganilgandan keyin, faoliyatni takomillashtirish va rivojlantirish uchun bajariladigan vazifalar rejalashtiriladi. Bunda rahbarlar o'z xodimlarining faoliyatlari natijalariga ko'ra rag'batlantirish, mukofotlash, jazolash (jarima solish) yoki moddiy yordam ko'rsatishlarida boshqarishning mazkur metodidan foydalanishlari zarur bo'ladi. Iqtisodiy qayta tashkil etishlar mazkur metodlarni kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Tashkiliy-ma'muriy metodlar ham iqtisodiy metodlar bajaradigan vazifalarni bajaradi, faqat ularning ta'sir ko'rsatish usullari va shakllari o'zaro farq qiladi. Iqtisodiy metodlarda belgilangan masalalarni hal qilish uchun rahbarlar ta'sir ko'rsatishning turli xil usul va shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tashkiliy-ma'muriy metodlar qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga etkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

Mazkur metod rahbarlar va xodimlar, o'qituvchilar va o'quvchilar, umuman olganda, barcha jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud munosabatlarni inobatga olgan holda ularning qiziqishi, ko'nikma va malakalari, bilimi hamda qobiliyatlarini o'rganib, jamoadagi mavjud sharoitlarni yaxshilash va boshqa zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy-ma'muriy metoddan foydalanishdan ko'zlangan maqsad belgilangan maqsadlarga erishishda jamoada mavjud bo'lishi zarur bo'lgan o'zaro munosabatlar, aloqalar, tashkiliy barqarorlik, intizom, o'zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartiblilik hamda uzluksiz rivojlanishni huquqiy va me'yoriy hujjatlarga mos ravishda ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy-psixologik metodlar jamoa a'zolari o'rtasida shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda rahbar xodimlarning bemalol, erkin harakat qilishi, o'zini-o'zi namoyon qilishi, turli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun shart-sharoitni va ijodiy muhitni yaratishi zarur.

Boshqaruv uslublari. Boshqaruv uslubi - bu ish uslublarining to'plami bo'lib, u o'zining faoliyatida ushbu boshqaruv apparatini qo'llaydi. Menejment uslubi - bu rahbarni shaxsiy sifatlarining to'plami, rahbarni qo'l ostidagilar bilan munosabati, rahbarning o'z faoliyatida ishlatadigan uslubi va yo'llari, rahbarning xodimlarni amalda bilishidir. Boshqaruv uslubi boshqaruv usulidan kelib chiqadi. Boshqaruv usuli - bu boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi usul va yo'llarning to'plamidir. Boshqaruvning uchta uslubi keng tarqalgan:

Avtoritar (direktiv) uslubda rahbar o'z irodasini qo'l ostidagilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, rag'batlantirish va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi.

Liberal (erkin ish yuritish) uslub rahbarning o'z qarorlarini taveiyalar ko'rinishida berishi, xodimlarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi.

Bunda rahbar vositachi sifatida faoliyat ko'rsatadi, xodimlariga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi.

Demokratik (kollegial) uslubda rahbar o'z faoliyatini o'zining jamoasi a'zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaruv vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik xodimlar o'rtasida taqsimlanadi. xodimlarning o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga quloq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

3. Pedagogik Kengash ta'lim muassasasining boshqaruv organi sifatida.

Pedagogik Kengash - ta'lim muassasasining boshqaruv organi. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o'stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko'rsatadi. **Pedagogik Kengash ta'lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.**

Pedagogik Kengashning asosiy **vazifalariga** quyidagilar kiradi: ta'lim muassasasining tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o'tkazadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi; ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni

rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi;

ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

ta'lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi; pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va

yakuniy xulosa chiqaradi; ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy

talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega: ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;

ta'lim muassasasi jamoasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish; o'quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va

taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish; o'quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama

qilish, amaliyotga tatbiq etish; ta'lim muassasasi ta'lim jarayoniga oid barcha masalalarni o'z vakolati

doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish; pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini

rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini berish;o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo'yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o'tkazish shakli va vaqtini belgilash;

ta'lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko'chirish va bituvchilarni yakuniy attestasiyaga qo'yish bo'yicha qaror qabul qilish;ta'lim darayonini tashkil qilish hamda ta'lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo'yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;ta'lim maqsadiga muvofiq holda o'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal etish;chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;pedagogik Kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga

asosan amalga oshirishni talab qilish;

ta'lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko'rsatgan ta'lim muassasasi xodimlarini rag'batlantirishga tavsiya qilish;yakuniy attestasiyadan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga o'rnatilgan tartibda hujjatlar berish to'g'risida qaror qabul qilish.

Pedagogik Kengash yig'ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi. Pedagogik Kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o'z akini topadi: ish rejasi, kengash bayonnomasi yoziladigan muhrlangan daftar, kengash materiallari, hisobot.Ta'lim muassasasi hujjatlari besh yil davomida ta'lim muassasasida saqlanadi.

4.Ta'lim muassasasiMetodik Kengashi va uning vazifalari.

Ta'lim jarayonining sifati har jihatdan o'qituvchilarning g'oyaviy- nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahorati darajasiga bog'liqdir.

Ana shu maqsadda ta'lim muassasasida metodik Kengash va fan metodik birlashmalari ish olib boradi. Metodik Kengash ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir.

Metodik Kengashning faoliyat doirasi keng bo'lib, u tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

-ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

-ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarining istiqbolini aniqlaydi;

-yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

-ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

-ta'lim muassasasi o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;

-o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

-o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;

-ta'lim muassasasi ta'lim jarayonida qo'llashi uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

-o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

-davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi; tashqi va ichki nazorat natijalariga Davlat ta'lim standarti talablarining

bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

-o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil qilish;

-ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongni

shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib borish;

-o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko'rsatmalar berish;

-yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

-o'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish;

-pedagogik xodimlarning attestasiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

-ta'lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo'yicha darsdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1bosqichlari, ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodika Kengashi yig'ilishlari qarorlashtirilib, Kengashning quyidagi hujjatlari ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi: ish rejasi, Kengash yig'ilishi bayonnomasi, Kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar, Ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar, yillik hisobot.

Metodika birlashmalari va ularning faoliyatini tashkil etish yo'llari. Ta'lim muassasasida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumlari bo'yicha Metodika birlashmalari faoliyat ko'rsatadi. Metodika birlashmalarining maqsadi o'qituvchilarning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga qo'yilgan hozirgi zamon talablarining bajarilishini ta'minlash borasida o'zaro yordamni tashkil etish, ijodiy tashabbuslarni uyg'unlashtirish va ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodika birlashmalari o'zida Metodika Kengashining vazifalarini aks ettiradi. Shu bilan birga Metodika birlashmalari quyidagi vazifalarni ham amalga

oshiradi: fanlar bo'yicha taqvimiy, mavzuiy rejalarni tasdiqlashga tavsiya etish; oraliq va yakuniy nazoratlar uchun o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlash; ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishni tashkil qilish va

ommalashtirish; tegishli yo'nalish yoki fan bo'yicha ta'lim muassasasida metodik ta'minotga

bo'lgan ehtiyojni aniqlash; darslarni o'zaro kuzatishlarni tashkil qilish, natijalarni tahlil etish va

mutaxassislariga amaliy yordam berish; ta'lim metodlarini o'rganish maqsadida ochiq darslarni tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish;

yosh mutaxassislariga metodik yordam berish; ko'rgazma va ko'rsatmali vositalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni berish; fan xonalarining me'yoriy hujjatlar talablari asosida jihozlanishini tashkil etish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Metodika birlashmalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitta, V-XI sinflarda esa o'quv rejasidagi alohida fanlar bo'yicha tashkil etiladi. Agar u yoki bu fan bo'yicha o'qituvchilar soni uch nafardan kam bo'lsa, u holda fan o'qituvchilari shu turkumdagi fan o'qituvchilari bilan birgalikda bitta Metodika birlashmasiga birlashadilar,

Metodika birlashmasiga ta'lim muassasasi Pedagogika Kengashi qaroriga asosan ijodkor va tajribali o'qituvchilardan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rahbar tayinlanadi. Metodika birlashmalarining faoliyati quyidagi hujjatlar asosida tartibga solinadi: ish rejasi, Birlashma a'zolari haqidagi ma'lumotlar, Birlashma faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar, Birlashma yig'ilishi bayonnomalari, hisobotlar.

6. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Yosh o'qituvchilar bilan ishlash. Fan-texnika taraqqiy etib, ijtimoiy munosabatlar mazmuni axborotlarga tobora boyib borayotgan, fan olamidagi yangiliklar, psixologiya-pedagogika fani rivoj topayotgan bir davrda o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ravishda ishlashlari, malakalarini oshirib borishlari, mustaqil izlanish ko'nikmasiga ega bo'lish va ijodkor bo'lishlarini talab qiladi.

Yosh o'qituvchilar bilan ishlash. Yosh o'qituvchilarning har tomonlama etuk mutaxassis bo'lib yetishishlari bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Haqiqatan ham yosh o'qituvchi ta'lim muassasasiga ishga keldi deylik: uni o'quvchilar bilan ishlashga tayyor deb ayta olamizmi?

PISA tadqiqotlari haqida ma'lumot va topshiriqlari. PISA (The Programme for International Student Assessment) - O'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashiga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga

baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997 yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi, birinchi marta 2000 yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, ja'mi testlar majmuasining deyarli 50 % shu fanga mansub bo'ladi. 2000 yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan. Aynan 15 yoshli o'quvchi yoshlar o'rtasida dasturni amalga oshirilishi sababi ushbu yoshda aksar iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarning o'quvchi yoshlari majburiy ta'limning oxirgi bosqichiga o'tishadi. Dasturning asosiy maqsadi o'quvchilarning maktabda olgan bilimni emas, balki olgan malaka, bilim va ko'nikmalarni hayotda qullashni bilish va natijani tahlil qila olish, vaziyatdan chiqa olish, baholashni bilishni tekshirish. PISA - dasturi o'quvchilarning katta hayotga tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontirish va bilimlarini mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi. 2000-2015 yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda – Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada - Finlyandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o'rta ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan.

PISA tadqiqotining tabiiy fanlar yo'nalishi PISA tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri tabiiy fanlar savodxonligi. Tabiiy-ilmiy savodxonlik - bu shaxsning tabiiy fanlarga bog'liq masalalar bo'yicha faol fuqorolik pozitsiyasiga ega bo'lishi va tabiiy g'oyalarga qiziqishga tayyorgarlik qobiliyatidir. Tabiiy-ilmiy savodli inson tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolar muhokamasida ishtirok etishga intiladi va buning uchun quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi, hodisalarni ilmiy tushuntiradi, baholaydi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtiradi, ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan sharhlaydi.

Tabiiy - ilmiy savodxonlikning asosiy ko'nikmalari Real holat, muammoni quyidagi 3 maqsadga ko'ra tahlil qiladi:

– 1. Tushuntirish 2. O'rganish 3. Hulosa qilish

Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada? So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'limtarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi? Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Tadqiqotlarda olingan natijalar

mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan. Mazkur xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keyingi bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

TIMSS – Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4 sinfi va tayanch maktabning 8 sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi.

TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta'sis etilgan. Maktabda pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va ta'lim muassasalari rahbarlarini ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo'naltirish, ta'lim siyosatining asosiy aspektlari bo'yicha ta'lim sifati ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish

Xalqaro konsorsium, o'qituvchilar assosiatsiyasi, mamlakat-lararo hamkorlikni yo'lga qo'yishi. Anketa savollariga yozilgan javoblarni tahlil etish, ta'lim sifati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash, foydalanilmayotgan resurslarni belgilash, ular yuzasidan taqdimot, ko'rsatma va hisobotlar tayyorlash

EGRA va EGMA — umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan ilmiy asoslangan modellarga tayanadi. Xabarda qayd etilishicha, hozirgi kundavazirlik AQShning USAID tashkiloti bilan hamkorlikda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimgajoriyetishga tayyorlanmoqda. EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlarini joriy etilishi mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. XTV axborot xizmatining ma'lum qilishicha, ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. AQShning O'zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'quvchilarning savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi

oddiy, arzon va kuchli vositadir. Men “baholash” so‘zi bekorga tanlanmaganligini ta’kidlamoqchiman. Bu vosita bolaning bilimi, o‘qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko‘nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o‘tish yoki yomon baho bo‘lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko‘rikdan o‘tkazishdan avval uni tekshiradi. EGRA va EGMA esa boshlang‘ich sinflarda o‘qish hamda matematika bo‘yicha ko‘nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko‘ra yangi o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi va yondoshuvlar O‘zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko‘rsatishi uchun moslashtiriladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Boshqarish nimaga va ta’lim muassasasini boshqarish va menejment tushunchalarini izohlang.
2. Boshqaruv funktsiyasi deganda nima tushuniladi?
3. Boshqaruv metodlari deganda nima tushuniladi?
4. Boshqaruv metodlariga izoh bering.
5. Pedagogik Kengashning vazifalari Ta’lim muassasasida metodik ishlar qay tarzda amalga oshiriladi?
6. Metodik Kengash va metodik birlashmalarning faoliyati haqida gapirib bering.

KORREKTSION PEDAGOGIKA ASOSLARI

Reja:

1. Korrektsion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog‘i sifatida.
2. Korrektsion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.
3. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi.
4. Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo‘lishi sabablari.
5. Nutqida nuqson bo‘lgan, eshitish, ko‘rish qobiliyati buzilgan va tayanch harakat apparati buzilgan o‘quvchilarni korrektsion o‘qitish yo‘llari.
6. Inklyuziv ta’lim va uning maqsad va vazifalari.

Tayanch tushunchalar: korrektsiya, korrektsion pedagogika, korrektsion pedagogika sohalari, anomaliya, korrektsion pedagogikaning asosiy kategoriyalari, inklyuziya, inklyuziv, inklyuziv ta’lim, integratsiya, resurs, resurs pedagog..

1. Korrektsion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog‘i sifatida.

Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo‘lgan o‘quvchilarni korrektsion o‘qitish va tarbiyalash bilan korrektsion pedagogika (defektologiya) shug‘ullanadi. Korrektsion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan, ta’limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda

shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:

Korreksion pedagogika (defektologiya)

Surdopedagogikava surdopsixologiya -
eshitish qobiliyatibuzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashni o'rganadi

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya - ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi

Oligofrenopedagogikava oligofrenopsixologiya - aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi

Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi - nutqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rganadi

Motorli - harakatlanish apparatining murakkab nuqsonlar (ko'r, soqov va karlik)ni o'rganuvchi maxsus pedagogika va psixologiya sohalari

Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «correctio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish

(qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi¹⁴.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

2. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

-rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

-differentsatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish; -anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

-rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

-bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

-anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

-anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

3. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.
2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.
3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.
4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.
6. Bolalarni rehabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
7. Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasi yaratish.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari. Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir.

Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PMPK) shug'ullanadilar. Bu borada mutaxassislarning quyidagi tamoyillarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

Insonparvarlik tamoyili har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

Bolalarni kompleks o'rganish tamoyili bolaga tashhis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamoyili bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatlari va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi. Bolani dinamik o'rganish tamoyiliga binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vo'gotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" - bolalarning o'qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

Sifatiy-miqdoriy yondashuv tamoyili bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijanigina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo'lning ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishdagi qa'tiylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Ma'lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili har bir maxsus ta'lim muassasasi o'zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

Rivojlanishida mavjud bo'lgan chetlanishlar darajasiga ko'radifferentsatsiyalashtirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o'qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar taktik asosda (Brayn tizimi bo'yicha), yomon ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi).

8. Yoshi tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:

Suhbat metodi. Suhbat bola bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib, anomal bolaning shaxsi, emotsional-irodaviy sifatlari, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma'lumotni to'plashga imkon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo'lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa suhbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko'rgazmali materialdan foydalanish mumkin.

Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi. Ayrim hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

Rasmlarini o'rganish metodi. Rasmlar bolani o'rganishda muhim differentsialdiagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish

maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular syujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari. Ular maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan psixik jarayonni qo'zg'atuvchi ma'lum vaziyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Testlar metodi. Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

4.Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablari. Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korrektsion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: Ona qorinidaligi miyasi shikastlangan bolalar.

Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994 yilda aqli zaiflikning quyidagi to'rt darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqurdarajalar.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korrektsion ishlar. Aqli zaif bola bilan korrektsion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning olidini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korrektsion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi.

5.Nutqida nuqson bo'lgan, eshitish, ko'rish qobiliyati buzilgan va tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni korrektsion o'qitish yo'llari.

Nutqida nuqson bo'lgan o'quvchilarni korrektsion o'qitish. Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari. Nutq – faqatgina insonga xos bo'lgan muhim psixik funktsiyadir. Nutqiy munosabatlar yordamida, shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda to'ldirilib va boyitib boriladi.

Nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish va korrektsiya bilan korrektsion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi - logopediya (yunoncha logos – so'z va paideia - tarbiyalash) shug'ullanadi. Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan

korreksion-logopedik choralarsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi: - tibbiy-psixologik nutqiy buzilish;-psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.

Tibbiy-psixologik turda ko'riladigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

-og'zaki nutqning buzilishi;-yozma nutqning buzilishi.

Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

-nutq ifodalanishi fonatsion tuzishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;

-fikir strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimorf)ning buzilishi

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar jamoasi bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalashga ko'ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

Muomala vositalari (fonetik-fonematik va nutqning umumiyrivojlanmaganligi) ning buzilishi. Muomala vositalarini qo'llashdagi buzilishlar. Eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish.

Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar. Eshitish – borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, insonning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush ta'siriniqabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda muddatli bo'ladi. Masalan, o'rta qulog'ning tashkil topishi, shamollash, oltingugurt to'siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta qulog'ining anomal tuzilishi (quloq suprasining bo'lmasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy meditsina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi. Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy, tug'ma vakelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'rishi (qizamiq, kor, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli tug'ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda

kam kuzatiladi. -Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

-eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;

-eshitish qobiliyati zararlenganda nutqiy rivojlanish darajasi; -eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti.

Yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog'i og'irlik va karlik kabi guruhlariga ajratiladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma'lumotlariga qaraganda eshitish organi funksiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish;

- eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o'qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;

- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus ta'lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug'ullanadi (yunoncha «typhlos» – ko'r) – korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish - ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qorinida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz,

qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'rishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylik ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari – to'r pardasi, shoh parda yokimarkaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit, miya shishi, meningoentsifalit), organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (kor, gripp, skorlatina), shuningdek, miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin. Ko'rish qobiliyatining buzilgan bolalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

-ko'r tug'ilganlar.

-erta ko'r bo'lib qolganlar;

-uch yoshidan keyingi ko'r bo'lib qolganlar.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish va tarbiyalash. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan tiflopedagogika (yunoncha «typhlos» – ko'r)–korreksion pedagogika (defektologiya)ning yana bir sohasi shug'ullanadi. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi zarur.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiya bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. SHuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishlarini boshqa turdagi ishlar uyg'unlashtirib berishi zarur. Anomal refleksiya bola 10-15 minut davomida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rish qobiliyati ancha og'ir bo'lgan – ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

Sinfida ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Tayanch-harakat apparatlari buzilishining turlari va yuzaga kelish sabablari. Tayanch-harakat apparatidagi turli buzilishlar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funktsiyalarining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

1) nerv tizimining kasallanishi (bolalar tserebral paralichi (BTSP), poliomielit); 2) tayanch-harakat apparatining tug'ma patologiyasi; sonning tug'ma chiqqanligi; bo'yin qiyshiq; qiyshiq oyoqlik va oyoqning boshqa

nuqsonlari; umurtqa pog'onasi rivojlanishidagi nuqsonlar (skolioz); qo'l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuqsonlari; qo'li barmoqlarining anomal rivojlanishi; artrogripoz (tug'ma mayiblik);

3) orttirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo'l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi; poliatrit; skelet kasalliklari (tuberkulez, suyaklardagi shishlar, osteomieli), skelet tizimi kasalliklari (raxit, xondodistrofiya).

6. Inklyuziv ta'lim va uning maqsad va vazifalari. Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi: ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limdagi teng huquqliligini kafolatlash;

jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mexr-muhabbat munosabatini shakllantirish.

Inklyuziv ta'limda resurs pedagog va uning vazifalari. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi, ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi. Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar,

(ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llaydi, va yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun va turli xil o'qish qobiliyatlari mavjud talabalarni yaxshiroq moslasha olishlari uchun ta'lim tizimi, o'qitishning tuzilishi va o'qitish amaliyotini namoyish etish ko'proq moslashadigan xamkorlik tarzida bo'lishi zarur⁹.

⁹ (Dr. Smriti Swarup Education of children with special needs National Council of Educational Research and Training, 2006 11-13 betlar)

Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi.

Inklyuziv ta'lim madaniyati.«Salamanka deklaratsiyasi»ga muvofiq, har bir o'quvchining tafovut, xususiyatlarini qo'llab- quvvatlovchi va ma'qullovchi islohot sifatida qarashadi. Uning maqsadi, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatsiyaga yo'l qo'ymaslikdir. Biroq bu kontsepsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi. Dunyo bo'yicha maktablarda inklyuzivga ko'pincha umumta'lim maktablarida nogironlarni o'zlarining tengdoshlari bilan birga ta'lim olish deb qaraladi. Biroq inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integratsiyalashgan» atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Korrektsion pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Korrektsion pedagogika fani yana qanday nomlar bilan ataladi?
3. Korrektsion pedagogikaning qanday sohalari mavjud?
4. Korrektsion pedagogikaning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
5. Korrektsion pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
6. Anomal bilan olib boriladigan korrektsion ishning asosiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?
7. Inklyuziv ta'limda deganda nimani tushinasiz?
8. Inklyuziv ta'limning asosiy mohiyati nimadan iborat?
9. Inklyuziv ta'lim qanday vazifalarni hal etishga yordamlashada?

Pedagogik mahorat fan sifatida.

REJA

1. Pedagogik mahorat fanining maqsad va mazmuni.
2. Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik faoliyat tuzilmasi va turlari.
4. O'qituvchining innovatsion faoliyati.
5. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari

1.1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha. Uning mohiyati

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan har bir Qarorda barkamol avlod tarbiyasi va ularning kasbiy mahoratini avvalo ta'lim muassasalarida oshirib borishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan 2010 yilning "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi ham pedagoglar va tarbiyachilar zimmasiga ulkan mas'uliyatlar yukladi. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida "Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq

javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart–sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora–tadbirlarni amalga oshirish”¹⁰ muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni bekamu ko‘st amalga oshirilishi uchun bugungi kunda avvalo bo‘lajak o‘qituvchilarning saviyasini va bilimini uzluksiz takomillashtirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak. Oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida ushbu muammolarning echimini topishda “Pedagogik mahorat” fanini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik entsiklopediya”da ta‘rif quyidagicha izohlangan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”.

O‘quvchilarni ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi fikr mulohazalarini ta‘sirchan nutq orqali o‘quvchining bilimlar tizimiga, dunëqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta‘sir etadi va uni qisman o‘zgartiradi. Ishontirish o‘qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo‘lgan murakkab faoliyatida asosiy ta‘sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jaraënida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. O‘quvchi ongiga ta‘sir ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan ishontirish usulio‘qituvchidan bahs, munozara asosida dalillarkeltirishni, isbotva mantiqqa tayanish nitalabqiladi. Ayniqsa o‘qituvchibilano‘quvchilar orasida o‘rganilaëtgan mavzuga taalluqlimuqobilik mavjud bo‘lganda, tanqidva fikrlarkurashiga tayanilganda samaralibo‘ladi.

Ushbu ta‘rifning mohiyatidan kelib chiqib o‘qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko‘rsatkichi.
2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O‘quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogikinsonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.

¹⁰ “АДОЛАТ” ижтимоий сиёсий газетаси. – Тошкент, 2010, № 4, 29 январь.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb–hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy –metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

SHunga asosan, «Pedagogik mahorat» fani, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi **pedagogik faoliyatlar** tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

- Pedagogik faoliyatning maqsadi.
- Pedagogik faoliyatning ob'yekti va sub'yekti.
- Pedagogik faoliyatning vositasi.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati **pedagogik jarayonning harakat vositasidir**. Pedagogik jarayonning ob'ektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning sub'ektlari — ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. O'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni echish uchun o'quv – tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik–psixologik ta'limot nuqtai – nazaridan yondashish, ta'lim – tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv – tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o'qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rin olgan.

SHunga ko'ra, «Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.
2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to'g'risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.
3. Bo'lajak o'qituvchilar milliy urf–odat va an'analarimizda va O'rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o'zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik–psixologik va metodik bilimlar, ko'nikma va malakalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida har bir bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.
5. O'quv–tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so'nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o'zlashtiradilar.
6. O'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy–ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.
7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funktsiyasi, tuzilishi to'g'risida o'qituvchilar uzluksiz ma'lumotlarni o'rganib boradilar.
8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o'z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o'qituvchilar va tarbiyachilarni zamon bilan hamnafas bo'lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko'ra olishga o'rgatadi. Har bir o'qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o'z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o'rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishni tarbiyalaydi.

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi:

Pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik–psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o'zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: “pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi”.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil** etuvchilari hisoblanadi:

- o'qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilishi;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi.

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o'qituvchi doimo ongning yagona sohibi bo'lmish insonning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan muloqot olib boradi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. SHu sababli, bo'lajak o'qituvchilar tarbiyalanuvchi bilan doimiy muloqotda bo'lishi, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal o'rganib, o'z kasbiy faoliyatini muttasil rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon–e'tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob–axloqi, fuqarolik burchini his qilishi, ma'naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat'iyiligi va o'z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi mamlakatimizning ijtimoiy–siyosiy talablariga o'z fikr mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi.

O'qituvchilarning kasbiy xususiyatlariga: o'z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatliligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.
- 2) O'qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.
- 3) O'qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.
- 4) O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta'kidlash joizki, pedagogik mahorat o'qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig'indisi bo'lib, o'qituvchi mahoratini shakllantirishni ta'minlovchi omillarni, pedagogik–psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. YUksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi **omillar** quyidagilar:

- a) ixtisoslik bo'yicha o'quv predmetini, zamon, ilm–fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;
- b) ta'lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini ob'ektiv nazorat qilishi va baholashi;
- v) ta'lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;
- g) o'quv – tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik– psixologik va metodik ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- d) fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;
- e) jamoani «ko'ra bilish», o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularning hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;
- j) o'z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo'lishi.

O'qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida shakllanib boradi. YUksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o'qituvchining shakllanishi, bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi.

1.2. Pedagogik mahorat fanining vazifalari va asosiy tarkibiy qismlari

Mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi ilk qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to'g'risidagi Qonunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o'qituvchi-tarbiyachilarning mehnati naqadar yuksakligi, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek sharaflil va mas'uliyatli vazifa turganligi ta'kidlanadi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasida ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e'lon qilingan hamda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy printsiplari belgilab berilgan:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

- umumiy oʻrta, shuningdek oʻrta maxsus, kasb–hunar taʼlimining majburiyligi;
- oʻrta maxsus, kasb–hunar taʼlimining yoʻnalishini: akademik litseyda yoki kasb–hunar kollejida oʻqishni tanlashning ixtiyoriylikligi;
- taʼlim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat taʼlim standartlari doirasida taʼlim olishning hamma uchun ochiqlikligi;
- taʼlim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli boʻlishni va isteʼdodni ragʻbatlantirish;
- taʼlim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uygʻunlashtirish.

Ushbu printsiplar zamirida oʻqituvchi pedagogik faoliyatining asosiy mohiyati mujassamlangan boʻlib, uni hayotga tatbiq etish oʻqituvchilar zimmasiga yuklatilgan. Oʻqituvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini taʼminlovchi asosiy javobgar shaxs ekan, uning pedagogik mahorati ham hozirgi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi kerak. SHu jihatdan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham oʻqituvchining kasbiy mahoratiga koʻp eʼtibor qaratilgan. Dasturning 4.2. bandida pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, taʼlimning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini koʻzlovchi tizimini vujudga keltirish taʼkidlanadi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasbiy sifatlarini takomillashtirish taʼminlanadi. Ushbu talablar zamirida ham oʻqituvchining pedagogik mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish davr talabi ekanligi taʼkidlanmoqda. SHunday ekan, “Pedagogik mahorat” fanining vazifalarini “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari belgilab beradi. Uning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish;
- taʼlim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni taʼminlash;
- boʻlajak oʻqituvchilarning maʼnaviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf-odat va anʼanalarimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;
- taʼlim va tarbiya jarayonini kelgusida oʻqituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini taʼminlash uchun normativ hujjatlar, oʻquv–uslubiy adabiyotlar, moddiy–texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish;

- bo'lajak o'qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish;

- bo'lajak o'qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarishga o'rgatish.

Pedagogik mahoratni egallashda kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Buyuk nemis pedagogi Adolʼf Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: *“O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi”*.

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozir har yili, hatto har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. SHuning uchun hozir kunda o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni bilishi talab etiladi.

Bizga ma'lumki, ilg'or jamiyat fuqarosining, xususan o'qituvchining ma'naviy boyligi uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi, yuksak insoniy fazilatlariga boyligi bilan baholanadi. *“Barcha illatlarning kelib chiqishi ilmsizlikdandir”* degan edi yunon faylasufi Sokrat. SHunday ekan, yosh avlodning yuksak bilim va tafakkur sohibi bo'lishi uchun barchamiz javobgarmiz. Bu javobgarlik ko'proq o'qituvchilar zimmasida.

Darhaqiqat, o'qituvchilarning obro'-e'tiborini ta'minlaydigan ilk vosita uning **tarbiyalanganlik darajasidir**. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlar va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Binobarin, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan, allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega

bo'lishi lozim. Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchilardan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi.

O'qituvchilik kasbining shakllanishi davomida uning pedagogik mahorati takomillashib boradi. U har xil psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o'z navbatida uni tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo'llashga majbur etadi. Tarbiya natijasida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchilar yillar davomida yig'ilgan tajriba va malakalariga tayanib ishlaydilar. O'quvchilarning nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan barcha yutuqlari va ijobiy natijalari o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Quyida keltirilayotgan pedagogik mahorat fanining asosiy **tarkibiy qismlari** milliy an'ana va urf-odatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi global rivojlanish davrida yanada to'ldirilib borilishi mumkin.

1. Nutq malakasi va texnikasini mukammal o'zlashtirish.
2. Tushunarli, ta'sirchan fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash.
3. Mimik va pantomimik harakatlardan o'z o'rnida foydalanish.
4. Ma'noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash.
5. Hissiy psixik va tasodifiy holatlarda o'z his-tuyg'ularini jilovlay olish.
6. Turli vaziyatlarda tarbiyachiga xos bo'lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish.
7. Kulgi va tabassumda samimiylikni e'tirof etish.
8. O'quvchilar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag'batlantiruvchi munosabatda bo'lish.
9. Savodli va sof adabiy tilda so'zlash.
10. Aniq imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlata olish.
11. Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo'llay bilish.
12. YUksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalana olish.
13. Muosharat odobiga doimo rioya qilish.

Pedagogik mahoratni egallash vositalari

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, etuk o'qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlari, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. YOsh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi **vositalar** asosida yanada rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).
2. Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).
3. O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish.
4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferentsiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.
5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning etakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'qituvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish,

o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida yosh o'qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg'in faoliyat olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Ta'lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan o'qitishning "Ta'lim-resurs" Markazlari tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati tug'ildi. Maktablarga yosh o'qituvchilarni jalb etish va ularga har tomonlama amaliy yordam berish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish maqsadida 2009 yildan boshlab "Respublika yosh o'qituvchilar assotsiatsiyasi" o'z faoliyatini boshladi.

1.4. O'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir Alisher Navoiyning yaqin do'sti Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy (taxm. 1440–1505 y.) bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida o'rni borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida "Axloqi Muhsiniy" asarida shunday yozadi: *"Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir"*.

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi-muallim foaliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: *"muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi"*.

Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Avvalo zamonaviy bilimlar, ilg'or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganligi, pedagogik izlanish vazifasiga mos tadqiqotlar metodlari majmuasini shakllantira olishi, nazariy tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlarini o'tkazish malakasiga ega bo'lishi, o'qitadigan o'quv fanidan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron darsliklarni yarata olishi va amalda qo'llay olishi lozim. O'zining pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtirib borishi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishi, o'z-o'zini nazorat qilish

va baholash malakasiga egallashi, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqa olish, zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari talablari asosida metod, shakl va vositalarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida uzviy qo'llash malakalarini bilishi kerak.

O'qituvchi — odobli, adolatli hamda «bola kalbining injeneri»dir. Bolaning ijobiy va salbiy xususiyatlari ba'zan murabbiydan o'tishini psixolog olimlar ta'kidlab o'tishgan. Chunki o'qituvchi o'qituvchining yurish-turishi, kiyinishiga, gapirishiga taqlid qiladilar. Bola garchi yosh bo'lsa-da, uning inson ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak, uni ko'pchilik oldida obro'sizlantirmaslik, g'ururini toptamaslik kerak.

Pedagog olim Komil Zaripov o'qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini “Ilg'or o'qituvchi”, “Ijodkor o'qituvchi”, “Novator o'qituvchi” timsolida asoslaydi va shunday ta'riflaydi:

“Ilg'or o'qituvchi” avvalo boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. SHu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. SHu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

“Ijodkor o'qituvchi”da ham “Ilg'or o'qituvchi”dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or o'qituvchi mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim - tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l – yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli zamonaviy metodik usullardan foydalanadi”¹¹.

“Novator o'qituvchi”, o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. SHu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham ega bo'ladi. Ularning ko'pchiligida g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilish), ham ijodkorlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchi pedagogik mahoratini “O'qituvchilarning axloqiy shakllanishi” yo'nalishida o'rgangan professor Malla Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muhim manbasi axloq deb ta'kidlab, kasbga oid axloq normalarini shunday ta'riflaydi *“Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan*

¹¹Zaripov K. Ўқитувчилар малакасини оширишда мактаб раҳбарининг роли. – Т.: “Ўқитувчи”, 1993, 97 – бет.

shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi".¹²

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlariga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li mohiyati, beshta tamoyil rivojlanishining ma'naviy – axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilish, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf – odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va hokazo.

Bo'lajak o'qituvchilarda yuqorida qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi shaxsiy va kasbiy sifatlariga ega qilish lozim. Bu hol kasbiy mahorat egasi bo'lish va kadrlar tayyorlashning milliy dastur talablarini bajarishga yordam beradi.

“Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloqu-odobidadir, – degan edi taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatulla Abdullaev o'zining “Yashil daftar hikmati” asarida. – O'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda bamisoli so'z

¹²Очилов М. , Очилова Н. “Ўқитувчи одоби”. – Т.: “Ўқитувчи”, 1997, 6-бет.

zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir. SHunga erishish kerakki, odamlar, ayniqsa, ota-onalar va o'qituvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar".

O'qituvchi «Sog'lom avlod uchun» kurashchi, bor bilimi va tajribasini ta'lim-tarbiya ishiga bag'ishlagan, o'z qadrini, o'z hurmati, o'z obro'sini saqlaydigan inson. SHuning uchun vaqt oltindan, duru-gavhardan qimmatlidir. U har bir daqiqa vaqtni to'g'ri taqsimlaydigan, bajariladigan vazifalarni hisobga oluvchi, darsga tayyorlanishi, dars o'tkazishni rejalashtiradigan, ta'lim muassasasining umumiy qo'shimcha topshiriqlarini tez va sifatli bajaradigan hamda vaqtida ovqatlanish, vaqtida dam olishni biladigan intizomli shaxsdir.

Ta'lim va tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-toqat, matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muxabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib borishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi na zarur paytda so'z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

Pedagogik kasb– bu barkamol inson sifatida xarakterlanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarining barqaror tizimidir. O'qituvchi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib etishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasidirki, ular o'qituvchi faoliyati va muloqoti bilan uyg'unlashganda o'qituvchi mehnatining bir butunligiga erishiladi.

O'qitish va tarbiyalash – bular bir-biridan ancha farqli tushunchalardir. O'qituvchi o'z kasbining to'la ma'nodagi egasi bo'lishi uchun uni atrofidagi odamlar hurmat qilishlari kerak. O'qituvchi hamma joyda madaniyatli murabbiy, ezgu fazilatlar egasi sifatida namuna bo'lishi zarur.

O'qituvchining mahorati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bilim va malakalarni egallash davridayoq, shakllanib boradi. Pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi kasbga moslashishi, tanlangan kasb ichidagi uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan, keng ma'nodagi o'qituvchining shakllanishiga bo'lgan talabga muvofiq, holda bilimlarning pedagogik-psixologik va umummilliy mavqeining o'sib borishida aks etmog'i lozim.

Ayniqsa, o'qituvchilarning qobiliyatida notiqlik san'ati qanchalik kuchli va ta'sirchan bo'lsa, o'quvchilar uning so'zini zo'r ishtiyoq bilan tinglaydi. O'qituvchi o'z kasbiga ixlos qo'yib, o'zining pedagogik iste'dodini, samimiy munosabatini o'quvchilar orasida namoyon etsa, o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro muloqot yuksak darajada mustahkamlanib boraveradi.

O'qituvchilik faoliyati ushbu kasbni tanlagan har bir yosh yigit va qizlardagi qobiliyat va iste'dodning barcha qirralarini ishga solishga majbur qiladi. A.S.Makarenkoning fikricha, "jamoada 40 ta qobiliyatsiz o'qituvchi o'rniga 4 ta qobiliyatli tarbiyachi-o'qituvchi bo'lgani ma'qul"ligi haqida gapirgan edi. Bu bilan u qobiliyatsiz kishilar ta'lim-tarbiya ishiga katta zarar etkazishi mumkinligini alohida uqtiradi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar:

1. "Pedagogik mahorat" ga ta'rif bering?
2. Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillar?
3. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?
4. "Pedagogik mahorat" fanining vazifalari nimalardan iborat?
5. "Pedagogik mahorat" fanining asosiy tarkibiy qismlari?
6. Ta'lim sohasidagi Davlat siyosatining asosiy printsiplari?
7. Pedagogik mahoratni egallash vositalari?
8. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari haqida gapiring?
9. Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim?

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLAR

Reja:

1. Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi
2. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari
3. Pedagogikqobiliyatningasosiysifatlarivaxususiyatlari

1. Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi

Qobiliyat - shaxsningindividual-psixologikxususiyatibo'lib, muayyanfaoliyatyuzasidanlayoqativaishnimuvaffaqiyatliamalgaoshirishsubyektivshart-sharoitiniifodalovchiindividualpsixiksifatlaryig'indisidir. Zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi.

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo'lgani sababli, shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya'ni aql sifatlariga., xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg'ulariga qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo'yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug'ma, tabiat in'omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki

hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modiflkatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kirn nima-ga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

2. Eshitish va his qilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

3. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. O'qituvchining o'z hatti hara-katlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

4. Mantiqiy qobiliyat. Falsafly mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkin-chi darajalisidan ajrata oladi;

6. Shaxsning ichki qobiliyati. O'z-o'zini mukammal bilishi, tushu-nishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi muta-xassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim - bu ilmiy mutolaalar nati-jasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahorat-ni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir.

Ko'nikmalar - o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar - o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Ular o'qituvchi kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlar bo'lib, qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilar, buning natijasida o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar etarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati - bu imkoniyatdir, uning mohir-ligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomil-lashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehni deyiladi. *Iqtidor, iste'dod, daholik* - insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlardir.

Psixologiyada qobiliyat - insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishiga aytiladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlarda namoyon bo'ladi.

Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivlashtirish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimollikini, ishonchlikini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilarga bunga erishishi mumkin.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning

majmui insonning *iste 'dodi* deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi. *iste'dodining* yuksak cho'qqisi - uning intellektini belgilaydi. "*ln^A'lekt - bu aqlan ish ko 'risk, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati*" (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi. Intellektning tarkibiy tuzilishi olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflanadi:

INTELLEKTNING ASOSIY SIFATLARI

Ijod- O'qituvchi faoliyatida mehnatning moddiy va ma'naviy mahsulotini yaratish, yuksak natijalarga erishish qobiliyati Fikrlash tezligi Ta' lim-tarbiya jarayonida yangi holatga tez va to'g'ri munosa-bat bildirish; faoliyatni tanlashda tafakkur tezligi- Mahorat- Pedagogik faoliyatda erishilgan muvaffaqiyatlar oichovi;

kasbiy bilimlarni mukammal bilish qobiliyati

Chuqur idrok etish -yangi bilimlarai o'zlashtirishda narsalar va hodisalar mohiyatiga chuqur kira bilish, sababini tushunish, ilmiy tafakkurga eaa bo'lish Epchillik - bir g'oyadan boshqasiga, shujumladan,o'zinikiga qarama-qarshi bo'lgan g'oyaga o'ta olish qobiliyati. Tanqidiylik — bilimlarini va hodisalarini o'rganishda ob'ektiv baholash, farazlar va echiralarda sbubha uyg'otish Intellekt - lotincha intellectus -anglash, tushunish, egallash.

O'qituvchi intellektiga tavsifnoma.

Fikrlash - amaldagi inteliekt. **Aqliy teranlik** -maammoni boshqa hodisalar bilan o'zaro aloqadorlikda idrok etish qobiliyati. Tezlik- muammolani hal qilish tezligi, kasbga oid g'oyalami ishlab chiqarish qobiliyati. Originallik - yangi ilmiy g'oyalami yaratilishi. Tirishqoqlik - doimo o'rganilayotgan muammoning engyaxshi yechimini topish extiyoji

Biroq, kishidagi tabiiy layoqat nishonalari mukammal kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli olib borilishini ta'minlamaydi. Kishi o'zidagi layoqat nishonalarni doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

2. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari

"Kadrlartayyorlashmilliydasturi"dabarkamol,
erkinfikrlovchishaxsnitarbiyalashhamdakomilinsong'oyasi - milliyvaumum-
bashariymohiyatgaegabo'lgan,
odamzodgaxosengyuksakma'naviyezgulikkaundaydiganolijanobg'oyasifatidaulug'lan
gan. Mazkurg'oyaniyoshavlodongigasingdirishdao'qituvchikadrlarningrolibeqi-yos.
Buesaulardanawalomukammalkasbqobiliyatigaegabo'lishni, bilimi, mahorati,
ilmiynazariywaamaliysalohiyatidanoqilonafoyda- lanishnitaqozoetadi.
RespublikamizningbirinchiprezidentiI.A.Karimovta'kidlaganidek: «*Biziqtisodiyo
'nglanish, iqtisodiytiklanish, iqtisodiyrivoj-lanishnima'naviyo'nglash,
ma'naviypoklanish, ma'naviyyuksalishharakatlaribilantamomilauyg'unbo'lishni*»³⁸-
istayotganbirdavridayashayapmiz. Buistakesayoshlarta'lim - tarbiyasibilanshug'ul-
lanayotgankasbegasariniyuksakkasbiytayyorgarlikka, g'oyaviy -siyosiye'tiqodga,
tashkilotchilikvaboshqaruvchilikmalakalarigaegabo'lishlozimliginitaqozoqilmoqda.
Chunonchi, buhoita'limtizimivakasb-hunarta'limimuassasalarinyangilanayotgan, ta'lim

- tarbiyaning mazmuni, shakli, usullari, vositalarimajmuiga, o'quv - tarbiya jarayoni-gao'zbekona urf-odatlar faol kirib borayotgan bir sharoitda javob bermoqda. Buo'zgarishlar har biro'qituvchini yangi shafikrlashga, shar-qonaish yuritishga, tadbirkorlikka, ish bilarmonlikka, ma'naviy - ma'rifiy ishlarining faolishtirokchisibo'lishga undaydi.

Shuning uchun ham bugungi kundao'tgandavrdagidanko'proq pedagogika fani oldidayan gichafikryuritadigan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasbiy mahorat va malakasini takomillashtirish uchun o'qitish va tarbiyalashning za monaviy shakl, usul, vositalarini ishlab chiqish juda muhimdir.

Biz yuqoridagi kildaganimizdek,

o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir yigit va qiz o'ziga shu kasbnisevishiyokisevmasligito'g'risida savol beradi. Zeroma salanining yanabirmuhimtomoniborki,

buboi ajako'qituvchi pedagogik qobiliyatga ega miyokiyo'qmidegan muammopaydoboia di. Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.

Pedagogik qobiliyatlarda o'z runksiyasiga ko'ra **umumiy va** maxsus turlarga bo'linadi.

Umumiy qobiliyatlarda mavjud bo'lganda o'qituvchi o'z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlarda

bilan ham muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan

o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlar

qiynalmasdan bartaraf etadilar. *O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan*

N.V. Kuzmina shunday yozadi: "Ta'lim - tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina

kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi

bilmasligi, iste'dodning o'qituvchidayo'qligi natijasida ro'y beradi". Maxsus

qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari

bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar.

Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini

ta'minlaydigan noyob qobiliyatlarda birikmasi talant deyiladi.

Qobiliyat ko'rsatkichlari Ko'nikmalarni egallash tezligi erishilgan yutuqlar sifati

Qobiliyatlarda

Insonning ma'lum faoliyat talablariga javob beruvchi va lining muvaffaqiyatli

bajarilishining sharti hisoblanuvchi individual-psixologik xususiyatlardir Umumiy:

aqliy faollik; tanqidiylik; tizimiylik; tahlil qilish; reaksiya tezligi; sintezlash;

diqqatni jamlash; e'tiborlilik;

Maxsus:

tashkilotchilik; injener-texnik; loyihalashtirish; matematik; ijodiy; badiiy;

musiqaviy.

Qobiliyatlarni rivojlantirishning eng yuqon darajasi - TALANT 5-

chizma. Shaxs qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqu

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik

qobiliyat - uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini

muvaffaqiyatli amalga oshirishda subyektiv shart -sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat - shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u

faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar

qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi

faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga eri-shishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim.

O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasini biz shuning uchun ham ishlatamizki, bunda xususiyatlarning oddiy-gina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutayapmiz. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Ta'kidlash joizki, qobiliyatli o'qituvchiga pedagogik faoliyat va mehnat engilroq bo'ladi va u kamroq charchaydi, chunki sevimli mehnati unga huzur-halovat bag'ishlaydi.

Qobiliyat bilim, ko'nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga, faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog'liq. O'qituvchilarning faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon boiadi. Buning muvaffaqiyati o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatiga bog'liq. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn va qiziqish bo'lishi kerak.

3. Pedagogikqobiliyatningasosiyxususiyatlari. Pedagogik-psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q.

Pedagogik qobiliyat turlarining, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turish iromumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'z garmasiriyat" nasldan-naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan.

Olimlarning uzoq yillar olib brogan ilmiy-

tadqiqotlarini vakuzatishlarini atijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy xususiyatlari** ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiy muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish,
5. Javobgarlikni his etish.
6. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlar mavjud.

Qobiliyatlarni tizim quyidagi xususiyatlar bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;

- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar

Pedagogikqobiliyatlarfaqatpedagogicfaoliyatningsamaralibo'lishinivashart-sharoitiniifodalamasdan, balkiko'pjihatdanmuvaffaqiyatliishlashningnatijasihamdir. Pedagogikqobiliyatdao'qituvchiningo'zarofikralmashuvibilanbog'liqxususiyatlariaso siyrolonaydi.

Quyidagipedagogicqobiliyatning**asosiyxususiyatlari**o'qituvchiningyuksakpedagogik-psixologikbilimlarinatijasidadoimiyshakllanibboradi:

Kommunikativqobiliyat:_____o'qituvchiningpedagogicjamoavaota-onalar, mahallaahlibilanbo'ladigano'zaromuloqotida, ularningruhiyholatlarinitushunishvaulargahamdardbo'lish, muloqotgakirishishidapokko'ngillilik.

O'qituvchibundapsixologikbilimlargaegabo'lishi, muomalamadaniyatnimuntazamo'zidashakllantiribborishilozim.

Perseptivqobiliyat:_____tashqiolamnivamuhitnisezish, idroketish, ya'nikuzatuvchanlikmuhimrolo'ynaydi. O'qituvchiningshijoatinatijasidarivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchio'quvchiningpsixologiyasini, psixikholatinio'zigasingdiribidroketadi, sinfjamoasiningholatigapedagogicvaziyatigaodilonabahoberadi.

Empatikqobiliyat: bolalargabo'Iganmuhabbatdankelibchiqadigano'quvchilarninghis-tuyg'usini, psixologikholatlariniqalbdanhisetish, tushunish, idroketish, ulargaachinishxususiyatlaridir.

Ta'limjarayoninimuqobillashtirishqobiliyati: o'qituvchio'zbiliminio'quvchiongivatafakkurigakamkuchsarflashevazigayetkazaolishi, ta'limvatarbiyadabelgilanganmuddatdamaqsadgaerishishqobiliyatidir.

Didaktikqobiliyat:_____o'quvchilarbilanmuloqotqilishda, pedagogikaningta'limvatarbiyaviyqonuniyatlarinihamdametodlarinichuquro'zlashtirganholdasamaralidarsberishqobiliyatidir. Shuningdek, darspedagogiktexnologiyalarasosidajahonandozalariga, hozirgizamontalablarigajavobberishikerak.

Tashkilotchilikqobiliyati:pedagogikqobiliyatningtarkibiyqismidir. Usinfo'quvchilariningo'qituvchitomonidanturlijamoatishlariga, to'garaklargajalbqilaolishida, sinfjamoasiningharbiro'quvchigafaolvaziyatnita'minlabberishidanamoyonbo'ladi.

Konstruktivqobiliyat:o'qituvchiningo'quv-tarbiyaviyfaoliyatnipuxtarejalashtirishiasosidayuzagakeladigankasbiypedagogikvaziyatbosqichlarinioldindanko'raolishi.

Bilishqobiliyati:o'qituvchiningo'zfanivaboshqafanlarnichuqurbilishida, o'zlashtirishivaamaliyotdanamoyonetishi.

Anglashftushunish) qobiliyati:o'qituvchiningziyrakligivaudda-buronligi, voqeavahodisalarnichuquridroketib, ulargaadolatlimuno-sabatdabo'lishi.

Pedagogikqobiliyatlarning**tayanchxususiyatlar**ikuzatuvchanlik -

ko'rabilishko'nikmasidir. Bu - individualnarsaningo'zigaxostomo-nini, ijodiyfaoliyatuchunboshlang'ichmaterialniko'rabilishidemakdir.

Rassomningkuzatuvchanligi, tabiatshunosolimningkuzatuvchanligidanfarqqilishio'z-o'zidanravshan. Ulamingkuzatuvchanligiturlichayo'nalishdaboiganligisababli, harbirio'ztafakkurivadunyoqarashigaega.

Qobiliyatning**yetakchixususiyati**ijodiytasawurqilishdir.

Buxususiyatfaqatrassomga, matematikao'qituvchisiga, adabiyotshunosgaxosboimasdan, balkiaynanbarchafano'qituvchilarigahamtegishli,

Harqandaykasbsirlarinimukammalegallashuchunqobiliyatkerak.

Pedagogikqobiliyatsog'lomo'qituvchidaginashakllanadi. Biroquyuqori, o'rtachavapastdarajadabo'lishimumkin.

Ushbuturlidarajadagiqobiliyatlardamujassamlashganhislatlarvaxususiyatlarorasidaba 'zilariyordamchirolo'ynaydi.

Pedagogikqobiliyatlartizimigakiradiganyordam**chixususiyatlar**vahislatlarquyi dagilardaniborat:

- aql-idrokningmuayyanturlari, hozirjavoblik, kamchiliklargatanqidiye'tibor, sobitqadamlik;
- o'qituvchiningnutqi: notiqliksan'ati, so'zboyliginingteranligi;
- aktyorlikxususiyati: mimikavapantomimika, xayoliyfantaziyaishlataolish, ruhiyhissiyotnijilovlayolish.
- pedagogiktaktvapedagogiknazokatgaegaboiiish.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar


1. O.Matvevatalimotibo'yichao'qituvchiqobiliyatinechaqismdaniborat?
2. O'qituvchiningkasbiyfaoliyatigaqobiliyatqandayahamiyatkasbetadi?
3. Iqtidor, iste'dod, daholik tushunchalarini ta'riflab bering?
4. Ko'nikma va malakalarning qobiliyatga ta'siri nimada?
5. Ijodkorlik tushunchasini izohlab bering?
6. Iste'dod va talant tushunchalariga ta'rif bering?
7. Qobiliyatga pedagogik - psixologik nuqtai nazardan tasnif bering?
8. Shaxs qobiliyati va tabiiy iste'dodlar nimani anglatadi?
9. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari nimalardan iborat? 10 Qobiliyatning umumiy va maxsus turlari va ularning farqi?

**Seminar
mashg'ulotlari
materiallari
(topshiriqlar, keyslar)**

1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi (Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli.
3. Ta’lim tizimi va turlari.

1-topshiriq. Quyidagi chizmaga e’tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



2-topshiriq. Kichik guruhlariga mo‘ljallangan topshiriq

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati va uning me’voriyhuquqiy hujjatlarda aks etishini o‘rganish va tahlil etish.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatib berish.
3. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va turlari.

Kichik guruhlariga bo‘lingan holda yuqoridagi masalalar guruh ishtirokchilari tomonidan taqdimot asosida yoritib beriladi.

3-topshiriq. “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va turlari” mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi

Quyida keltirilgan jumlar bilan tanishing. Ularni mos ravishda jadvalning kerakli ustuniga yozib qo‘ying va asoslab bering.

1. Beshta bo‘lim, o‘ttiz to‘rt moddadan iborat. –
2. Ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasi. –
3. Shaxs.
4. Ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish.

5. Fan.
6. Ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi.
7. Bilim olish huquqi.
8. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish.
9. Ishlab chiqarish.
10. Xalqaro hamkorlik.
11. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.
12. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun	Kadrlar tayyorlash dasturi	Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari

4-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va turlariga doir topshiriq

Kichik guruh ishtirokchilari aqliy hujum orqali quyidagi savollarga javob berishadi.

1-guruh

1. O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat’iy nazar...
2. Davlat ta’lim standartlari...
3. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari quyidagicha:...
4. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ...
5. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:
6. Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar...
7. Ta’lim muassasasini akkreditatsiyalash....
8. Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish...

2-guruh

1. Davlat ta’lim muassasalarini moliyalash...
2. Nodavlat ta’lim muassasalariga qabul...
3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: ...
4. Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo‘li bilan...
5. ... bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.
6. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va ...

7. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi ... tomonidan belgilanadi.

8. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni ... asosida olishga haqlidirlar.

3-guruh

1. ... aniq mutaxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

2. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim ... turda amalga oshiriladi.

3. ... bola shaxsini sog‘lom va etuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi.

4. Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ... uchun majburiydir.

5. ... yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi.

6. ... o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.

7. ... o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-hunar o‘quv yurtidir.

8. ... umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

Mavzu: Kadrlar tayyorlash Milliy modeli

1. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning “Kadrlar tayyorlash Milliy modeli” bo‘limini konspekt qilish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar Ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni yuzasidan fikr - mulohaza yuritish.

2. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati tamoyillarini tahlil qilish.

Adabiyot: Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni / Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa kontserni, 1998.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida"gi qonuni / Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa kontserni, 1998.

3. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.

4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.

5. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va varovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O‘zbekiston, 2017.

7. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar Ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018 yil

2-mavzu: Pedagoglik kasbi va uning vazifalari (Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1.Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishi va demokratik jamiyatda pedagoglik kasbining o‘ziga xosliklari. 2.Sharq va G‘arb pedagoglarining pedagoglik kasbiga doir fikrlar.

3.Pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari.

1-topshiriq. Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishi va uning vazifalariga doir blis-so‘rov savollari

1. Dastlabki maktablar qayerda paydo bo‘lgan?
2. “Pedagog” tushunchasining ma’nosi?
3. Afinada maktab tizimi qanday tashkil etilgan edi?
4. Yunonistonda pedagogikani rivojlanishiga xissa qo‘shgan mutaffakkir olimlaryb sanang?
5. Suqrot o‘z ta’limotida qanday tushunchalarini belgilab beradi?
6. Aristotel tarbiya muddatini necha bosqichga bo‘ladi?
7. Demokrit bolalarga namuna bo‘lishda nimalarga alohida ahamiyat beradi?
8. Sharqdagi akademiya ko‘rinishidagi ta’lim muassasasini sanang?

2-topshiriq. “Ikki qismli kundalik” metodi

	Fikr (g‘oya, munosabat,xulosa)	Sharx
	Dehqonvamuallim. Dehqon nopoburug‘ sepsa, achchiq “hosili”nibiro‘zi “o‘riboladi”. O‘shayili. O‘qituvchibolaningqalbiganobopurug‘ sepsa, achchiq ‘hosili”nibutunjamiyato‘riboladi. Yigirma yildan keyin... Muallim moddiy boylik yaratmaydi, deydiganlar jamiyatni ichidan portlatuvchi bombadir! (O‘tkir Hoshimov)	
	Ustoz otangdek ulug‘, deganlari bejiz emas. Ota hayot beradi. Ustoz esa yashashga o‘rgatadi. Tug‘ilishdan ko‘ra yashash qiyinroq....	
	Maktabimiz biqinidan ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni	

<p>tomosha qilishni yaxshi ko‘rardim... Yog‘och gardishi ko‘hna, temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko‘kintir suv o‘tlari yopishgan...birov yolg‘ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... Charxpalak nolali chiyqillab aylanadi. Kiftida suv ko‘tarib yuqoriga olib chiqadi... Tepaga chiqib olgan suvi ortga qaytmaydi... Charxpalak ham bunga ranjimaydi. Yangidan-yangi suv tomchilarini yuqoriga ko‘tarib beraveradi... Nolali g‘iyqillaydi...</p> <p>Oradan ko‘p yillar o‘tib, o‘sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo‘ldi. Nega shunday bo‘lganini uzoq o‘yladim... So‘ng...bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qumsar ekanman. Suv – suv emas, men ekanman! Charxpalak – charxpalak emas, o‘qituvchilarim ekan!</p> <p>Meni –bir tomchi suvni katta hayot yo‘liga olib chiqib qo‘ygan ustozlarim – charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?..bilmadim.</p> <p>...Ko‘xna charxpalak hamon tushlarimga kiradi...</p>	
---	--

Metodni o‘tkazish tartibi:

- o‘ng tomonga o‘quvchi o‘z munosabatini bildiradi.
- Matnni o‘qiyotganda o‘quvchi kerakli qo‘shimcha fikrlarni aniqlab yozib boradi.
- Ish yakunlangandan so‘ng o‘quvchilar juftliklarda ishlashlari, tahlillarini almashishlari, o‘rtoqlari tahlilida ularga yoqqan fikrni muhokama etishlari va ko‘rsatishlari mumkin.

3-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlar qaysi sharq allomalariga tegishli ekanligini toping va asoslab bering!

1. Ustoz shogirdiga zug‘um qilishga, ko‘p hollarda yon berishga intilmasligi kerak.
2. Ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitilari, me‘yorida bo‘lishi kerak.
3. Mudarris ota-onasining mansabi,boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.
4. Yaxshi o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyorini bermaydi, tushuntirishga o‘rgatadi.

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

Mavzu: Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari

“Pedagogika” darsligidan pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini o‘qibo‘rganib, konspekt qilish.

Adabiyot: Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.
3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.
5. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
6. Xalq pedagogikasi / O‘quv qo‘llanma. M.Mutalipova. –Toshkent, 2015
7. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
8. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.
9. Ochilov M, Ochilova M. O‘qituvchi odobi. – Toshkent, O‘qituvchi, 1998.

3-mavzu: Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari

(Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 4 soat) Reja

1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida.
2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari.
3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

1-topshiriq. “Pedagogika” tushunchasining kelib chiqishi, pedagogika fanining ob‘ekti, predmeti, maqsad va vazifalariga doir blis-so‘rov savollari

1. “Pedagogika” so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?
2. Pedagogika fani qay tarzda paydobo‘ldi?
3. Ilmiy pedagogika nechanchi asrda yuzaga keldi?
4. Pedagogika fani nimani o‘rganadi?
5. Pedagogika fanining ob‘ekti nima?
6. Pedagogika fanining ob‘ektini belgilashda xilma-xil yondashuvlar ko‘zga tashlanadi. bunday yondashuvlarga sizning munosabatingiz qanday?
7. Pedagogika fanining predmetini nima tashkil etadi?
8. Pedagogikaning tahliliy funksiyasi qanday va vazifalarni bajaradi?
9. Pedagogikaning prognostik funksiyalariga nimalar kiradi?
10. Pedagogikaning tashkiliy funksiyasi o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?

11. Pedagogikaning metodologik funksiyasi deganda nimani tushunasiz?

2-topshiriq. Kichik guruhlariga mo'ljallangan topshiriqlar

1-guruh. Quyidagi keltirilgan fragmentlar bilan tanishing. Ularda qaysi pedagogik ilmiy-tadqiqot metodi haqida fikr yuritilayotganligini aniqlang va izohlab bering.

1. Mazkur ilmiy-tadqiqot metodi bevosita va bilvosita olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud muammoni aniqlashga xizmat qiladi.

2. O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar mazkur metod uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

3. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etish maqsadida qo'shimcha ravishda tashkil etiladi va savol-javob tarzida amalga oshiriladi.

4. Maqsadiga ko'ra asoslovchi va ta'kidlovchi bosqichlarda amalga oshirilib, uzoq va qisqa muddatga tashkil etiladigan hamda qat'iy rejim asosida pedagogik kuzatuv olib boriladi. Ta'lim-ta'lim tarbiyani amalga oshirishga doir yangi metod, usul, vosita va texnologiyalar sinovdan o'tkaziladi.

5. Sosiologik tavsifga ega tadqiqotlarda qo'llanilib, oshkora muhokamaga asoslanadi. Savollar va javoblar oldindan tayyorlanadi.

6. Biror ob'ekt haqida yangi ma'lumotlarni olish maqsadida uning tarkibiy qismlari abstrakt holatga ko'chirish asosida o'rganiladi va yaxlit andozasi yaratiladi.

2-guruh. Quyida keltirilgan misollar bilan tanishing va ularning qaysi ilmiy-tadqiqot metodiga tegishli ekanligini aniqlang va asoslab bering.

1. Siz mazkur ta'lim muassasasini tanlaganingizdan xursandmisiz? 1) ha, xursandman; 2) juda xursand emasman; 3) yo'q. 4) javob berishga qiynalaman.

2. 2.1. O'rganilayotgan fanlarni o'zlashtirishga sizning ta'limning avvalgi bosqichidagi tayyorligingiz yetarlimi? 2.2. Sizing-cha, oliy ta'limda o'qishning maktab, akademik lisey va kasb-hunar kollejidani farqi nimada?

3. 3.1. Innovasiya deganda nimani tushunasiz? _____

—

—

4.1. Kerakli so'zni topib qo'ying.

O'zbekiston – ... davlat.

Savolga javobbering.

Amir Temur qanday davlat tuzgan?

gapni davom ettiring. 1999 yil Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Uning tavallud sanasi munosabati bilan ...

4-topshiriq. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini “modellashtirish” metodi asosida yoritib bering.

Mashg'ulotda metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: □ Talabalar mavzu mohiyatini to'laqonli ifoda etadigan kategoriyalarni ajratadi.

- Asosiy kategoriyalar yordamida model yaratiladi.
- Har bir talaba model yordamida pedagogikaning asosiy kategoriyalari to'g'risida ma'lumot beradi.
- Har bir talaba tomonidan taklif etilgan modelning maqsadga muvofiq yaratilganligi, masala mohiyatining ochib berilishi muhokama qilinadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

Mavzu: Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi

1. “Pedagogika” darsligining mavzuga bag'ishlangan bo'limini o'qib chiqib, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilari yosh davri xususiyatlariga tavsif yozish. 2. O'quvchilarni pedagogik va psixologik jihatdan o'rganib tavsifnoma tayyorlash.

Adabiyotlar: Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.
3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.
5. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.
6. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

4- mavzu: O'quvchi shaxsi tarbiyaning obhekti va subhekti sifatida (Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat)

Reja

1. Shaxs tushunchasi. Shaxs rivojlanishi.
2. Shaxsni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.
3. Shaxsni rivojining yosh davrlari.

1-topshiriq. Muhokama uchun savol: Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga 100% ballni qanday taqsimlaysiz va nima uchun? Javobingizni dalillar asosida isbotlang.

Biologik omil (Irsiyat)	Iltimoiy omil (Muhit)	Tarbiya

2-topshiriq. Tugallanmagan gaplar metodikasi

Quyida keltirilgan jumalarni o'qing va jumlagam mos keladigan bir so'z bilan ifodalanadigan javobni toping.

1) o'zi istamagan holda birovga yomonlik qilib qo'ysa ham, mazkur ishidan afsuslanadi, vijdon azobida qiynaladi – ... 2) individlar ichidabir tur – ...

3) jamiyatda o'z o'rniga ega, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad yo'lida bir yoki bir nechta kishini o'z orqasidan ergashtira oladi – ...

3-topshiriq. "Tushunchalar ierarxiyasi" metodikasi

Quyida keltirilgan atamalar ierarxiyasiga e'tibor qarating va ularning joylashish tartibiga o'z munosabatingizni bildiring. Har bir atamaga izoh bering.

- 1) o'sish; rivojlanish; shakllanish; tarbiya; o'z-o'zini tarbiyalash;
- 2) o'z-o'zini takomillashtirish.

4-topshiriq. Shaxsning rivojlanishiga doir yondashuvlar

Quyidagi fikrlar bilan tanishing, ularda shaxs rivoji masalasi qaysi nuqtai nazardan o'rganilayotganligini tushuntiring.

1) inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi;

2) inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi;

3) insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi;

4) shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan

birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

5-topshiriq. “Shaxsni shakllantirishning yosh davrlari” mavzusidagi toifalash jadvali

Maktabgacha ta’lim yosh davri	Kichik maktab yoshi	O‘rta maktab yoshi (o‘smirlar)	Katta maktab yosh davri (o‘spirinlar)

5- mavzu: Ta’lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari (Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 4 soat uchun) Reja

1. Ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida o‘rganish va tahlil etish.
2. “Qonun”, “qonuniyat” va “tamoyil” tushunchalarining mazmunmohiyatini aniqlashtirish.
3. Ta’limning umumiy va xususiy qonuniyatlarini izohlash hamda mohiyatini ochib berish.
4. Ta’limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini tahlil etish hamda ta’lim qonuniyatlari bilan aloqadorligini baholash.

1-topshiriq. “Ta’lim jarayoni qonuniyatlari va ta’mayillari” mavzusiga oid blits savollar.

1. Ta’lim va tarbiya tushunchasiga ta’rif bering.
2. Ta’lim tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
3. Ta’lim maqsadlari nimalardan iborat?
4. Ta’lim maqsadlari nimalardan iborat?
5. Ta’lim funksiyalari nimalardan iborat?
6. Ta’lim sifati nimalarga bog‘liq?
7. Ta’lim jarayonini boshqarishning bosqichlarini nimalardan iborat?
8. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
9. Ta’lim qonuniyatlari nechta turga bo‘linadi?
10. Ta’lim tamoyillari deganda nimani tushunasi

2-topshiriq. Ta’lim jarayoni yaxlit hodisa sifatida doir tushunchalar tahlili metodini bajarish

TUSHUNCHALAR TAHLILI			
Ta’lim jarayonining tarkibiy qismlari	Mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o‘rni	Qo‘shimcha fikrlar
Maqsad			
Ta’lim			
Bilim			

Malaka			
Ko'nikma			
Ta'lim jarayoni			
Mazmun			
O'quvchi faoliyati			
Tashkil etish			
Shakl			
Metod			
Vosita			
Natija			

3-topshiriq. Ta'lim jarayoni tushunchalarini o'zlashtirishga doir muqobilini tanlab olish testi.

<p>-O'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir.</p> <p>-Qonunlarning aniq sharoitlaridagi harakat ifodasidir</p> <p>-Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'ektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik</p> <p>-Ta'limiy hodisalarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi bilan shartlanadigan ichki mavjud aloqalar tushuniladi</p> <p>-Biror- bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab</p> <p>-Ta'lim tamoyillarini amalga oshirish texnologiyasi</p>	<p>Qonuniyat</p> <p>Tamoyil</p> <p>Qonun</p> <p>Didaktik tamoyillar.</p> <p>Qoida</p> <p>Ta'lim qonuniyatlari</p>
--	---

4-topshiriq. Ta'limning qonuniyatlarini o'zlashtirishga doir topshiriqlar. 1) Ta'limning umumiy qonuniyatlariga doir topshiriqlar.

1.1. *Quyidagilar orasidan ta'lim maqsadini belgilovchi qonuniyatlarni aniqlang.*

1) jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; 2) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; 3) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 4) jamiyatning talablari va imkoniyatlari; 5) o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari; 6) pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari

1.2. *Quyidagi qonuniyatlarni ta'lim jarayonining qaysi tarkibiy qismiga tegishli deb hisoblaysiz?*

1) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; 2) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish; 4) o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.

1.3. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagi qaysi qonuniyatlarni hisobga olish bilan bog'liq?

1) ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiyaga; 2) ta'limning ichki rag'batlariga; 3) ta'lim maqsadiga; 4) o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga; 5) ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga.

1.4. Quyidagi qonuniyatlardan qaysilari ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladi?

1) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 2) ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi; 3) ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; 4) avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar. 1.5. Ta'lim mazmunin ibelgilashda qaysi qonununiyatlarga amal qilish lozim?

1) ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; 2) o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; 3) ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; 4) o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari; 4) ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiya; 5) ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi.

2) Ta'limning xususiy qonuniyatlariga doir topshiriq.

Quyidagi fikrlar bilan tanishing va ularni ta'limning qaysi xususiy (tashkiliy, sosiologik, psixologik, kibernetik, gnoseologik) qonuniyatiga tegishli ekanligini aniqlang:

I. Ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

II. Ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq.

III. Ta'lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to'g'ri olib borilishiga; ta'lim sifati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq.

IV. Individning rivojlanishi ubevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan individlarning rivojlanishiga; ta'lim samaradorligi "intellektual muhit"ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning jadalligiga; o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq.

V. Ta'lim natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga; o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq.

5-topshiriq. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillarini aniqlashga doir chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar

Quyida keltirilgan ta'limning tamoyillari bilan tanishing. Ularni maqsadiga ko'ra ikki tur (mazmunli va tashkiliy-metodik)ga ajrating.

1. Insonparvarlik.
2. Tabiatbilan uyg'unlik.
3. Ko'rgazmalilik.
4. Onglilik, faollik, ijodiylik.
5. Madaniyatbilan uyg'unlik.
6. Tushunarlilik.
7. Ilmiylik.
8. Ta'limning amaliyotbilan uyg'unligi.
9. Izchillik, tizimlilik, ketma-ketlik.
10. Tarbiyalovchi ta'lim.
11. O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
12. Oqilona talabchanlik bilan ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish.

<i>Ta'limning mazmunli tamoyillari</i>	<i>Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari</i>

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

Mavzu: Ta'lim qonuniyatlari

Quyida keltirilgan adabiyotni o'qib, "Ta'limning xususiy qonuniyatlari"ni konspekt qilish.

Adabiyot: Podlasıy I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003.

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 1. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.

2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.

3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

4. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

5.Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.

6.Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma.

O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

7.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

8.TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

6- mavzu: Ta'lim mazmuni

(Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. "Ta'lim mazmuni" tushunchasini va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni o'rganish hamda tahlil etish.

2. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g'oyalar mazmun-mohiyatini yoritish.

3. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjatlarni o'rganishga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.

4. Darslik va uning vazifalari, unga qo'yiladigan talablar hamda o'quv qo'llanmalarining turlarini aniqlashtirish.

1-topshiriq. "Nima uchun o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq doirasini belgilab olish lozim?" mavzusidagi FSMU metodini o'tkazishga doir ko'rsatmalar.

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi: O'qituvchi talabalarga mavzuga oid bo'lgan goya yoki fikrni taklif etadi, o'ylash uchun uch daqiqa vaqt beradi.

Har bir talabaga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatadi. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar umumlashtiriladi.

Nima uchun o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq doirasini belgilab olish lozim?

Fikringizni bayon eting:	
Fikringizning bayoniga SABAB ko'rsating:	
Fikringizni isbotlashga MISOL keltiring	
Umumlashtiring	

2-topshiriq. Ta'lim mazmuni va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlarni aniqlashtirishga doir blits-so'rov savollari

1. Ta'lim mazmuni deganda nima tushuniladi?
2. Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarga nimalarkiradi?
3. Tayanch o'quv rejasi kim tomonidan tasdiqlanadi?
4. Namunaviy o'quv rejalari nima asosida tuziladi?

5. O'quv rejalari nima asosida tuziladi?
6. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar qanday talablarga javob berishi kerak?
7. Darsliklar qanday vazifalarni bajaradi?
8. Darslikning motivatsion vazifasi nimalardan iborat ?
9. Darslikning axborot vazifasi nimalardan iborat?
10. Darslikning nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi nimalardan iborat?
11. Darslikning muvofiqlashtirish vazifasi nimalardan iborat?
12. Darslikning rivojlantiruvchi –tarbiyalovchi vazifasi nimalardan iborat?
13. Darslikning o'qitish vazifasi nimalardan iborat?

3-topshiriq. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi zamonaviy g'oyalarni o'zlashtirishga

1. Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi- A.
Standartlashtirish ning ustuvor o'rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlari hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o'z yo'llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko'zda tutadi.

2. O'quv dasturidagi soatlarga qo'shim-
3. Amaliylashtirish chalar kiritish, chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan tarzda o'qitish.

4. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar va Insonparvarlashtirish mavzularni qo'shib o'qitish, fanlar sonini kamaytirish va ixchamlashtirish.

5. Egallanishi lozim bo'lgan bilim,
6. Tabaqalashtirish ko'nikma va malakalarning minimal darajasini aniq belgilash.

4. Nazariy bilimlarni puxta o'zlash-
5. Individuallashtirish tirgan holda ularni amaliyotda faol qo'llay olishga tayyorlash

6. O'quvchilarning alohida o'ziga xos
7. Integrasiyalash liklarini hisobga olgan holda o'qitish mazmunini belgilash.

4-topshiriq. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjatlarni o'rganishga doir amaliy topshiriqlar

4.1-topshiriq. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tarmoq standartini quyidagi chizma asosida tahlil eting.

O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari TStlarining tuzilishi	Mazmuni
1. Qo'llanilish sohasi. 2. Me'yoriy hujjatlar. 3. Standartning maqsad va vazifalari 4. Ta'riflar 5. Kasbiy tavsifnoma 6. Kasb-hunar tayyorgarligining majburiy minimumi	

4.2-topshiriq. Quyidagi sxema asosida o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari o'quv rejasini tahlil eting.

1. O'quv jarayoni jadvalibo'yicha:

O'quv jarayonining tuzilishi	Haftalar soni
Nazariyva amaliy ta'lim	
Malakaviy amaliyotlar	
Bitiruv malakaviy ishi	
Joriyva davlat attestasiyalari	
Ta'tillar	
Jami:	

2. O'quv rejasini o'rganishga doir:

O'quv fanlari, integrallashgan kurslar va bloklarning nomlari									

4.3-topshiriq. Quyidagi chizma asosida biror bir fanning o'quv dasturini tahlil eting.

Tushuntirish xati (tuzilishiva mazmuni)	Asosiy qism (tuzilishi va mazmuni)	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (tuzilishi va mazmuni)

--	--	--

Mustaqil ta'lim topshiriqlari: Mavzu: Ta'lim mazmuni

Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, ta'lim mazmunini tanlash mezonlari va tamoyillarini konspekt qilish.

Adabiyotlar: Slastenin V.A. Obshaya pedagogika. CHast' 1. M., 2003; Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.
3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.
- 5.Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.
- 6.Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
- 7.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
- 8.TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar Ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2018 yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

7-mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari (Seminar mashg'uloti ishlanmasi. 2 soat) Reja

1. "Metod", "ta'lim metodi", "usul", "qoida" tushunchalari.
2. Ta'lim metodlarini tasnifli.
3. Ta'lim metodlarini mohiyati. 4.Ta'lim vositalarini.

1-topshiriq. Metod", "ta'lim metodi", "usul", "qoida" tushunchalarining mohiyatini o'zlashtirishga doir blits-so'rov savollari

1. Metod deganda nima tushuniladi? 2. Ta'lim metodi tushunchasini qanday izohlash mumkin?

3. “Ta’lim metodlari” va “ta’lim usullari” tushunchalari bir xil mazmunga egami? 4. Ta’lim usullari deganda nima tushuniladi?

5. Ta’lim metodlarini qo‘llashda qandaydir ko‘rsatmalarga rioya etish zarurmi?

6. Ta’lim metodlarini qo‘llashga doir ko‘rsatmalar nima deb ataladi?

2-topshiriq. “Ta’lim metodlari” mavzusida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi

1. Suhbat. 2. Tushuntirish. 3. Ma’ruza. 4. Mashq. 5. Illyustratsiya. 6.

Demonstratsiya. 7. Didaktik o‘yin. 8. Kitob bilan ishlash. 9. Videometod. 10. Hikoya. 11. Amaliy. 12. Laboratoriya.

Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma:

1) chalkashtirilgan holda berilgan ta’lim metodlari bilan tanishing;

2) metodlarni jadvalda ko‘rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing.

3-topshiriq. Ta’lim metodlarining mohiyati va mazmunini aniqlashga doir tushunchalar tahlili metodini bajarish

TUSHUNCHALAR TAHLILI			
Metodlar	Metodlar mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o‘rni	Qo‘shimcha fikrlar
Hikoya			
Suhbat			
Evristik suhbat			
Tushuntirish			
Ma’ruza			
Kitob bilan ishlash			
Namoyish metodi			
Illyustratsiya			
Amaliy metod			
Videometod			
Mashq			

4-topshiriq. Ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Mutaxassislik faningiz bilan bog‘liqlikda quyidagi metodlarni har birini qo‘llashga doir bittadan misol yozing.

1) suhbat; 2) o‘quv munozarasi; 3) mashq; 4) kitob bilan ishlash.

2-topshiriq. Kichik guruhlariga bo‘lining va og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy metodlardan birini tanlab olib, biror mavzu misolida metodni amaliyotda qo‘llab ko‘rsating.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

Mavzu: Ta'lim metodlari va vositalari

1. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, ta'lim metodlarini turlicha tasnif qilinishi sabablarini aniqlash va konspekt qilish.

2. Ushbu tushunchalar glossariysini yarating. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari. Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Adabiyotlar: Slastenin V.A., Isaev I.F. Pedagogika. – M.: Akademiya, 2005; Podlasny I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003.

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.
3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.
5. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.
6. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
7. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
8. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

8- mavzu: Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli

(Seminar mashg'uloti ishlanmasi. 2 soat) Reja

1. Dars tavsifi va darsni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar.
2. Darsning turlari va tuzilishi.
3. Nostandart dars.

1-topshiriq. Darsning maqsad va vazifalariga doir blits-so'rov savollari

1. Zamonaviy ta'limning asosiy turlari nimalardan iborat?
2. "Ta'limning tashkiliy tizimi" tushunchasini mohiyati nimalardan iborat?

3. Ta'limning individual shakli afzalliklari nimalardan iborat?
4. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
5. Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarinimalardan iborat?
6. Darsga qo'yilgan didaktik talablar nimalardan iborat?
7. Darsga qo'yilgan tarbiyaviy talablar nimalardan iborat?
8. Darsga qo'yilgan rivojlantiruvchi talablar nimalardan iborat?
9. Yangi materiallar bilan tanishish darsining mohiyati nimalardan iborat?
10. Bilimlarni mustahkamlash darsining mohiyati nimalardan iborat?
11. Umumlashtiruvchi darsining mohiyati nimalardan iborat?
12. Nazorat darsining mohiyati nimalardan iborat?

2-topshiriq. Dars va unga qo'yiladigan talablarning o'zlashtirilishiga doir ijodiy test topshirig'i

1. *Kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.*
 ... bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

2. *Gapni davom ettiring.*
 Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi quyidagi o'ziga xos belgilarga ega: ...

3. *Gapni tugallang.*
 Darsga qo'yiladigan didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish ...

4. *Kerakli so'zni topib qo'ying.*
 O'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mashuliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, ehtiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish kabilarning darsga qo'yiladigan ... talablarni o'zida aks ettiradi.

5. *Gapni davom ettiring.*
 Darsga qo'yiladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv o'rganish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish ...

3-topshiriq. “Chalkashlikni aniqlang” didaktik o‘yini O‘yinni o‘tkazish tartibi:

1. O‘qituvchi doskaga yoki proektor orqali dars turlaridan birining tuzilishini yozadi. Darsning tuzilish o‘rnini almashtirish yoki boshqa dars turiga xos belgini yozish orqali chalkashlikka yo‘l qo‘yadi.

2. Talabalar dars turi bilan tanishidilar va uning tuzilishida yo‘l qo‘yilgan xatolikni topadilar.

aralash dars:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash;
- v) o‘quvchilarni baholash;
- g) yangi mavzuni bayon qilish;
- d) uy vazifasi.

- 1) yangi bilimlarni bayon qilish darsi: a) yangi mavzuni bayon qilish;
- b) o‘rganilganlarini mustahkamlash;
 - v) o‘quvchilarni baholash;
 - g) uy vazifasi.

- 2) o‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi: a) tashkiliy qism;
- b) o‘quvchilarni baholash;
 - v) uy vazifasi.

- 3) o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi: a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilganlarini takrorlash;
 - v) o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash;
 - g) uy vazifasi.

4-topshiriq. Kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan an’anaviy va noan’anaviy dars turlarini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar 1-topshiriq. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash asosida aralash darsni ko‘rsatib berish.

1-guruh darsning tashkiliy qismi va o‘tilgan mavzuni takrorlashni ko‘rsatib beradi;

2-guruh: yangi o‘quv materialini bayon qilish tartibini tushuntirib beradi;

3-guruh: o‘rganilganini mustahkamlash, o‘quvchilarni baholash va uy vazifasi berishni amalga oshiradi.

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘qituvchi zig-zag metodiga asoslanadi. Yahni har bir kichik guruh o‘ziga berilgan topshiriqni bajarib bo‘lgach, birlari bilan o‘zaro almashinuv asosida o‘tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil qilinadi. Talabalarda o‘tkaziladigan dars haqida yaxlit tasavvur hosil bo‘lgach, kichik guruhlar navbati bilan o‘zlariga berilgan vazifalarning taqdimotini o‘tkazishadi.

Topshiriqni bajarish oldidan guruh bilan kelishilgan holda, mutaxassislik bilan bog‘liq biror mavzuni tanlab olish maqsadga muvofiq.

2-topshiriq. Kichik guruhlarda nostandart darslardan lavha ko'rsatish.

1-guruh uchun: konferentsiya darsini o'tkazilishini ko'rsatib berish.

2-guruh uchun: musobaqa turidagi darsni tashkil etish.

3-guruh uchun: o'yin tipidagi darsni namoyish etish.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Mavzu: Ta'lim turlari va ta'limni tashkil etish shakllari. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli

Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlardan mavzuga doir qismlarini o'qib, quyidagi masalalarni yozma bayon etish: 1. O'qitishning sinf-dars tizimining boshqa ta'lim tizimlaridan farqi nimada?

2. Nostandart darslarga tavsif yozing.

Adabiyotlar: Slastenin V.A., Isaev I.F. Pedagogika. – M.: Akademiya, 2005; Podlasby I.P. pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003.

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.

2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.

3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

4. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.

5.Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma.

O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

6.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

7.TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

8.Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar Ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2018 yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz

9-mavzu:O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish(Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. Ta'lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlarini.

2. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish turlari, shakl, metodlari. 3.O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.

1-topshiriq. Ta'lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlarini o'zlashtirilishiga doir blis-so'rovsavollari

1. Didaktik jarayonda tashxis deganda nima tushuniladi?
2. Ta'lim olganlikni tashxis etishning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirish va baholashdan farqi nimada?
3. Tashxis etish jarayonining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4. Nazorat deb nimaga aytiladi?
5. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash, baholash nima deb ataladi?
6. Tekshirish deganda nima tushuniladi?
7. Aniqlash va o'lchash nima deb ataladi?
8. Tekshirishning qanday bo'g'inlari (zvenolari) mavjud?
9. Baholash deb nimaga aytiladi?
10. Baho deb nimaga aytiladi?
11. O'quv faoliyatini hisobga olish deganda nima tushuniladi?

2-topshiriq. "O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari" mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi 1) og'zaki; 2) test; 3) uy vazifasi; 4) ommaviy; 5) o'z-o'zini nazorat qilish;

- 6) yozma; 7) individual; 8) amaliy; 9) joriy; 10) aralash; 11) oraliq; 12) guruhli; 13) yakuniy

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

- 1) chalkashtirilgan holda berilgan ta'lim metodlari bilan tanishing;
- 2) daftaringizga metodlarni jadvalda ko'rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing va asoslab bering.

Nazorat turlari	Nazorat shakllari	Nazorat metodlari

3-topshiriq. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga doir topshiriqlar

Quyidagi masalalar bilan tanishing va ularning yechimini toping. **1-masala.** Talaba "Pedagogikaning asosiy kategoriyalari" haqida gapirayapti. Asosiy kategoriyalarni sanadi, lekin ularni to'liq aytib bera olmayapti. O'qituvchining yordamchi savollariga ehtiyoj sezdi. O'qituvchining savollari yordamida xatolarni to'g'rilay oldi. Unga nechchi baho qo'yish mumkin?

2-masala. Talabadan o'z yozma ishida metod va usul tushunchalarining mohiyatini ochib berish so'raldi. Talaba o'z yozma ishida metod va usul tushunchalariga to'g'ri ta'rif bergan. Quyidagicha misol keltirgan: "ma'ruza – bu metod. Mavzuni aniqlash rejasini tuzish, ularni bayon etish, umumlashtirib xulosalash esa usullari bo'la oladi". Talabani yozma ishini baholang.

3-masala. Talaba og'zaki metodlarni sanab bera oldi. Lekin ularning mohiyatini ochib bera olmadi. biroq harbiriga misol keltira oldi. Unga qanday baho qo'ysa bo'ladi?

4-masala. Talaba pedagogika fanidan seminarni to‘liq va to‘g‘ri yozib kelgan. Lekin o‘qituvchi savol berganida daftardan javobni o‘qib berayapti. Unga “4”ball qo‘ysa bo‘ladimi?

5-masala. Mutaxassislik fanidan biror mavzuni tanlab oling hamda mazkur mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

4-topshiriq. “Munosabat” metodi

O‘quv jarayonida metoddan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma‘lum jarayonning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrni isbotlash va turli vaziyatlardan chiqq olish ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi.

Kichik guruhga bo‘lingan holda quyidagi sxema asosida topshiriqlarni bajaradi:

1-guruh

Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish yechimlari	Sizning xulosangiz
5-sinf rahbari o‘quvchilarning darslarga yaxshi tayyorgarlik ko‘rib kelishi va yuqori o‘zlashtirishga erishish maqsadida o‘quvchilarga hafta davomida kim ko‘p “a’lo”va “yaxshi”baho olsa, ko‘p baho olgan bitta o‘quvchiga “Haftaning eng a’lochi o‘quvchisi” bayroqchasini taqdim etilishi hamda bir hafta davomida uni o‘zi bilan birga olib yurishi mumkinligini aytdi. Hafta yakunida sinfda ikki o‘quvchi Nodir va Aziza teng baho oldilar.			

2-guruh

Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish yechimlar	Sizning xulosangiz

<p>9-sinf o'quvchisi Bobur tarix darsida o'qituvchi bilan tortishib qoldi. Tarix o'qituvchisi Boburni gap qaytargani uchun urdi. Boburni b'rtloqlari yonini olib o'qituvchi bilan tortishib qoldilar. O'qituvchi o'quvchilarni bu qilgan ishlari uchun ularni jazolashini aytdi. Tarix fanidan davlat imtihonlarini topshirishayotganlarida o'qituvchi "5" bahoga o'qiydigan o'quvchilarga "3" baho qo'yib berdi. Shundan so'ng o'quvchilar tarix o'qituvchisini yomon ko'rib qoldilar.</p>			
---	--	--	--

3-guruh

Muammo	Muammo ning chiqish sabablari	Muammo ni hal qilish yechimlar	Sizning xulosangiz
Siz ishlaydigan kollejdagi bir nechta o'quvchiga o'zingiz o'tayotgan fandan 1-semestr bo'yicha baho qo'ymadingiz. biroq o'quv yili			
yakunida jurnalda mazkur o'quvchilarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Siz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga uchrashdingiz. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ularga bahoni guruh rahbari qo'yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'ladingiz?			

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Mavzu: Ta'lim olganlikni tashxis etish

Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, quyidagi masalalarni konspektlashtirish:

1. O'quvchilarning bilimni baholashga doir chet el tajribasi.
2. Ta'limda o'zlashtirishdan ortda qolish sabablari.

Adabiyotlar: Slastenin V.A. Obshchaya pedagogika. CHast' 1. M.: VLADOS, 2003; Podlasby I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003;

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pedagogika. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. –Toshkent, 2007.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, fan va texnologiya. 2010.
3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
4. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.
5. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
6. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
7. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.
8. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar Ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018 yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

10-mavzu: Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi

(Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 4 soat) Reja

1. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalari.
2. Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar va ularning mohiyati.
3. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish masalasining aks etishi.
4. Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv.

1-topshiriq. Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalarining o‘zlashtirilishiga doir blis-so‘rovsavollari

1. Tarbiya deganda nima tushuniladi?
2. Tarbiyaning tor va keng ma’nolardagi ifodasini izohlang.
3. Tarbiya jarayoni deb nimaga aytiladi?
4. Tarbiyadan ko‘zlangan maqsad nima?

5. Tarbiyaning umumiy vazifalariga nimalar kiradi?
6. Tarbiya mazmuni deganda nimani tushunasiz?
7. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2-topshiriq. “Tugallanmagan gaplar metodikasi” asosida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlaridagi har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga doir fikrlarni o‘zlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlaridan keltirilgan quyidagi fikrlarni tugallang:

1. Tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘lolmaydi. Taraqqiyot taqdirini... (Karimov I.A. vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: O‘zbekiston, 1996. –b.34.)

2. Inson uni Inson darajasiga ko‘taradigan asoslarning asosini o‘z aqli bilan tom ma’noda qamray olmaydi. Inson o‘zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina ... (Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996. –b.81.)

3. Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ikki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan ... (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. –b. 19-20).

4. Vijdoni uyg‘oq odam yon-atrofida bo‘layotgan voqealarga ... (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – b.27-28).

5. Har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Buzorada, tabiiyki ... (Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. –b.30.)

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

Mavzu: Tarbiyaning maqsad va vazifalari

Quyida ko‘rsatilgan adabiyotni o‘qib, milliy tarbiyaning o‘ziga xosliklariga doir esse yozish.

Adabiyot: Quronov M. Milliy tarbiya – T.: Ma’naviyat. 2007

Mavzu: Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni

1. Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlaridan tarbiya tamoyillarini o‘qib, konspekt yozish.

2. Mazkur tushunchalar glossariysini yarating. Tarbiya nazariyasining mohiyati, tarbiya jarayonining mazmuni, ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari, tarbiya tamoyillari, tarbiya qonuniyatlari.

Adabiyotlar: Podlasıy I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003; Pedagogika. // M. Toxtaxodjaevaning umumiy ta’riri ostida. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
3. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.
4. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
5. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
6. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.
7. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.
8. Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma'naviyat. 2007 **Internet saytlari:**
 1. www.ziyonet.uz
 2. www.pedagog.uz
 3. www.tdpu.uz

11-mavzu: Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi

(Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat) Reja 1.Jamoa va uning o'ziga xosliklari. 2.O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlari.

3.Guruh rahbarining tarbiyaviy funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllari.

1-topshiriq. Guruh rahbarining haftalikva yillik ish rejalarini tuzishda quyidagi chizmaga asoslaning.

Haftalik ish reja namunasi

Kunlar yoki sana	Rejalashtirilgan ishlar mazmuni	Izoh	Kunl yoki sana	Rejalashtirilgan ishlar mazmuni	I zoh
Dushanba (sana)			Payshanba (sana)		
Seshanba (sana)			Juma (sana)		
Chorshanba (sana)			Shanba (sana)		

Yillik ish reja namunasi

№	Ish yoʻnalishlariva mazmuni	Muddati	Mas'ullar	Oʻtkazilish joyi	Izoh

Tarbiyaviy ishlar rejasida yoritiladigan ishlar mazmuni quyidagi yoʻnalishlar asosida boʻlishi mumkin.

I. Prezident I.A.Karimovning nutq va asarlarini oʻrganish. II.Milliy mafkura tarbiyasi.

III. Gʻoyaviy-siyosiy tarbiya masalalari.

IV. Maʼnaviy-ahloqiy tarbiya. V.Huquqiy tarbiya.

VI. Iqtisodiyva ekologik tarbiya.

VII. Jismoniyva estetik tarbiya.

VIII. Giyohvandlikva OITSGa qarshi kurash.

IX. Milliybayramlarva tarixiy sanalarni nishonlash. X.Oilava mahalla hamkorligi.

2-topshiriq. “Har qanday guruh jamoa boʻla oladimi?” mavzusida munozarani oʻtkazishga doir koʻrsatmalar

1. Oʻqituvchi munozara uchun savolni muhokama qilish uchun oʻrtaga tashlaydi va oʻylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi.Garchi takrorlanish holati mavjud boʻlsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi,.

3. Hamma oʻz fikrini bildirib boʻlgach, oʻqituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va toʻgʻri javoblar ajratib olinadi.

3-topshiriq. Jamoa va uning oʻziga xos belgilarini oʻzlashtirilishiga doir blis-soʻrovsavollari

1. Jamoa deganda nima tushuniladi?

2. Jamoaning oʻziga xos belgilari nimalardan iborat?

3. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsad deganda nima tushuniladi?

4. Jamoaning birgalikdagi umumiy faoliyati nimalarda aks etadi?

5. Oʻquvchilar jamoasining majburiy masʼuliyatli munosabatini yoʻlga qoʻyish nima uchun zarur?

6. Jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilishidagi farqlar nimada namoyon boʻladi?

4-topshiriq. Oʻquvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirishga doir toifalash jadvali

Oʻquvchilar	Oʻquvchilar	Oʻquvchilar jamoasini	Oʻquvchilar
-------------	-------------	-----------------------	-------------

jamoasini shakllantirish darajalari	jamoasini shakllantirish darajalari mazmuni	Shakllantirish bosqichlari	jamoasini shakllantirish bosqichlari mazmuni

5-topshiriq. Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va ish shakllariga doir amaliy topshiriqlar

5.1-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va ularni mazmunan guruh rahbarining qaysi funksiyasini ifoda etishini aniqlang.

1) hududiy, mikromuhit, ta'lim muassasasi, o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish bilan bog'liq ulardagi ijobiy tashabbuskorlikni qo'llabquvvatlash;

2) o'quvchilar tarbiyasidagi mavjud holat va doimiy o'zgarishlarni aniqlab borish, tarbiyalanuvchi shaxsi hamda individual rivojlanishini tadqiq va tahlil etish, samarali natijalarga erishilmayotganligining sabablarini izlash; 3) o'quvchilar bilan birgalikda tarbiyaviy faoliyatga doir maqsadlarni aniqlashtirish, guruh rahbarining burchi o'quvchilarning yoshi va guruh jamoasining shakllanganlik darajasini hisobga olish;

4) o'z-o'zining va guruh jamoasi faoliyatini oqilona tashkil etishga yordam berish, pedagogik faoliyatning ketma-ketligini belgilash, pedagogik jarayonning ketma-ketligi, izchilligi, tizimlilikini ta'minlash;

5) tarbiyalanuvchilarning jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan to'g'ri rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga muvafaqqiyatli moslashuvini ta'minlash.

5.2-topshiriq. Quyida keltirilgan muammoli pedagogik masalalar bilan tanishing va ularning yechimini toping.

1-masala. guruhni bir necha yil davomida saylangan qat'iy faollar boshqarib, boshqa a'zolar ularga bo'ysunib kelishdi. Keyinchalik esa, ular bu holatga qarshi chiqib boshlashdi. yangi guruh rahbari avvalgi o'qituvchining xatosini to'g'rilash maqsadida qat'iy chora ko'rildi. Guruhda qat'iy saylov o'tkazilib, avvalgi faollar o'rniga o'quvchilar orasidan yangi faollar saylandi.

Lekin oradan bir oz vaqt o'tib, saylov o'zini oqlamaganligini ko'rsatdi. yangi saylangan faollarning bir qismi o'z vazifalarini bajarishdan bosh tortishsa, ikkinchi qismi kuch bilan tartib o'rnatishga harakat qilishdi. Guruhda yangi norasmiy guruhlar tashkil topib, befarq, mas'uliyatsiz o'quvchilar soni ikki barobar ortdi.

Sinf rahbari qanday xatoga yo'l qo'ydi? Mazkur vaziyatda qanday yo'l tutish kerak edi? Qanday yo'l bilan faolning jamoani jipslashtirishiga erishish mumkin?

2-masala.guruh rahbari sosiometriya metodini qo'llash orqali guruhdagi kamsuqum Aziza guruh sardori Dildoradan ko'ra katta obro'ga ega ekanligini aniqladi.

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra Didora guruh sardori sifatida noto'g'ri saylangan, uni Aziza bilan almashtirish kerak, degan xulosaga kelish mumkinmi? Guruh rahbari mazkur vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak?

3-masala. Yosh o'qituvchini IX sinfga rahbar etib tayinlashdi. Bu sinf ancha murakkab bo'lgan va yaqinda qayta tuzilgan edi. Ana shu sababli sinf jamoa bo'lib uyushmagan, o'quvchilar tarqoq edi. Sinf rahbari ularni sinf va maktab ishlarini bajarishga chorlash bilan uyushtirishga harakat qildi.Bunga kuzgi ekskursiya ham yordam berdi.Bu o'qituvchiga har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatini bilishga sharoit yaratdi. Sinfdan o'tkazilgan har bir tadbir o'zaro sog'lom munosabatni o'rnatishga, yuqori sinf o'quvchilarining jamoadan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Sinf o'quvchilaridan biri o'z inshosida shunday yozadi: "Men sinfga faqat o'qish uchun bormayman. Bu yerda mening diomo yordamga tayyor do'stlarim bor. Ilgari mening faqat ko'chada do'stlarim bor edi. Ular bilan juda mazmunsiz hayot kechirgan ekanman. Meni unday hayotdan sinfim olib chiqdi. Men go'zallikni qadrlashga, odamlarni sevishga, ularning mehrini qozonishga, o'z xatti-harakatlarim uchun javob berishga o'rgandim. Men sinfimga biror zarar yetkazishdan xavotirlanaman".

Yosh sinf rahbari faoliyatini tahlil eting. Ancha jiddiy e'tiborni talab etadigan sinfdan ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb hisoblaysiz?

5.3-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlarni o'qing va ularni ikki – guruh rahbarining huquqlari va majburiyatlari tarzida turkumlang.

1. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixik rivojlanishi haqida ma'lumotlar olish.
2. Murakkab muammolarni hal etishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish.
3. Har bir o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish.
4. O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini nazorat qilish.
5. O'quvchilarning shaxsiy salohiyatining rivojlanishi uchun sinfdan maqbul ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.
6. Mazkur guruhda dars beradigan o'qituvchilar ishini muvofiqlashtirish.
7. Maktab jamoasidan zarar pedagogik yordam olish.
8. Ota-onalar bilan aloqa o'rnatish va ularga tarbiyaviy ishda yordam berish.
9. Bolalar bilan individual ishlash tartibini aniqlashtirish.
10. "Kichik pedkengash", pedagogik konsilium, mavzuli va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali guruh o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Guruh rahbarining huquqlari	Guruh rahbarining majburiyatlari
------------------------------------	---

--	--

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Mavzu: Bolalar tarbiya jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli

1. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, guruh rahbarining sinfdan tashqarida o'tkaziladigan ish shakllarini konspekt qilish.

2. Mavzuga oid keys tuzib kelish.

Adabiyotlar: M. Quronov milliy tarbiya 2012; Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Parдав A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar – T.: Fan va texnologiya, 2010.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

2. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent, Fan, 2008.

3. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma.

O'. Asqarova. – Toshkent, Istiqlol, 2005.

4. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

5. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

6. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X. Xodjaev. -Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

7. Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma'naviyat. 2007

8. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya. Toshkent. 2002.

12-mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari (Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalari.
2. Shaxs ongini shakllantirish metodlari.
3. Shaxsning xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlari.
4. Shaxsning xulq-atvorini motivasiyalash va rag'batlantirish metodlari

1-Topshiriq. "Bizga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ota-onalarimiz va o'qituvchilarimiz qanday yo'llardan foydalanishgan?" mavzusida erkin yozish topshirig'i

Topshiriq:“Bizga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishda ota-onalarimiz va o’qituvchilarimiz qanday yo’llardan foydalanishgan?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o’z fikrlaringizni daftarga yozing. O’ylagan fikrlaringizni hech qanday to’xtovsiz bayon eting.


Erkin yozish ustida ishlashga doir ko’rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo’yicha o’z fikrlarini yozish so’raladi.

2.besh daqiqa tugagach,vaqt tuganganligi ma’lum qilinadi.biroqbir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug’iladi.

3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to’rt talaba o’z yozganlarini o’qib bergach, o’qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o’xshamaydigan fikr kimda bo’lsa bildirishlarini so’raydi.

2-topshiriq. Tarbiyaning umumiy metodlarini aniqlashga doir nostandart topshiriq



1.Jamoat fikri. 2. Nasihat. 3. O’z-o’zini baholash 4. Jazolash. 5. Munozara, 6. Musobaqa. 7. Rag’batlantirish. 8. Izohlash 9.Hikoya. 10. Mashqlantirish.

11. Namuna. 12.Izohlash. 13.Namuna. 14. Ishontirish. 15. O’z-o’zini tahlil (nazorat) qilish. 16.Yo’riqnoma. 17. Topshiriq. 18.Ma’ruza. 19. Tushuntirish.

20. Odatlantirish. 21. Etik suhbat 22 Munozara.. 23.Pedagogik talablar. 24. Tarbiyalovchi vaziyat

3-topshiriq. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalarini farqlay olishga o’rgatish hamda tarbiya metodlarini o’zlashtirishga oid interfaol metodlar. 1-topshiriq. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalari hamda tarbiya metodlari tasnifiga doir Assisment metodi

<p>Test Tarbiya metodlariga berilgan ta'rifni tanlang.</p> <p>A. Turli xatti-harakatlarni bajarishda namda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.</p> <p>V. Shaxsga tarbiyaviy ta'sir etish, uning hayoti va faoliyatini uyushtirish asosida unda ma'naviyaxloqiy tushuncha, e'tiqod va fazilatlarni tarkib toptirish usullari.</p> <p>S. Tarbiyalash, pedagogik ta'sir ko'rsatish xususiyatga ega xatti-harakatlar majmui.</p>	<p>Muammoli vaziyat Sinf o'quvchilaridan biri doim odatlab darsga kechikib keladi. Bunga odatlanib qolish yomon ekanligi qanchalik tushuntirilmasin, u bu odatini ashlamadi.</p>
<p>Simptom Tarbiyaning umumiy metodlari: Tarbiya vositalari:</p>	<p>Amaliy ko'nikma Xalq pedagogikasida qanday tarbiya metodlari qo'llaniladi?</p>

4-topshiriq. Shaxs ongini shakllantirish metodlariga oid amaliy topshiriqlar

Quyidagi jadvalni to'ldiring. Shaxs ongi va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari uchun tegishli bo'lgan talablarni belgilang.

Talablar	ijtimoiy ongini shakllantirish metodlari	ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari
odatlantirish		
etik suhbat		
hikoya		
mashqlantirish		
pedagogik talablar		
ma'ruza		
izohlash		
tushuntirish		

jamoat fikri		
tarbiyalovchi vaziyatlar		
nasihat munozara ishontirish yo‘riqnoma namuna		

5-tohpshiriq. Shaxs ongi shakllantirishga xizmat qiluvchi metodida “Kollaj interfaol metodi” orqali qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1-guruh. Sharq mutafakkirlari va davlat arboblari fikrlarini shaxs ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod usullarini aniqlang.



Абуали Сино - Avicenna



Hayo – insonning abadiy idrokning, ilmu donishning asosidir. go‘zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. jonsiz jasadga o‘xshaydi.


Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-



Adab do‘stluq ko‘zgusiga Bo‘lur, ikki yorug‘lik

va tavoze’

jilo jonibdin yetkarur.



Shafqatsiz kishi azobga loyiqdir



Insoniyat to‘plagan bilim —
bebaxo xazina. Dinlar, ta’limotlar,
falsafiy maktablar tarixi, ularning
ma’rifiy mag‘zi, mohiyatini bilish
bugungi avlod uchun juda zarur.
Chunki «kuch-bilim va ma’rifatda»



Tarbiya biz uchun yo hayot –
yo mamot, yo najot – yo halokat, yo
saodat – yo falokat masalasidir

2-guruh. Milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz orqali shaxs ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod usullarini aniqlang.

3-guruh. O‘zbek xalq maqollari orqali shaxs ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod usullarini aniqlang.

6-topshiriq. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlariga doir amaliy topshiriqlar

6.1-topshiriq. Qaysi guruhda rag‘batlantirish metodlari to‘g‘ri tasnif etilgan?


1. Hikoya, ma’qullash, ko‘nglini ko‘tarish, tushuntirish, hikoya, dalda berish, ishonch bildirish, namuna

2. Rag‘batlash, jazolash, ma’qullash, ko‘nglini ko‘tarish, dalda berish, ishonch bildirish, mukofotlash, tanbeh berish, tashakkur bildirish.

3. Mashq, rag‘batlash, o‘rgatish, jazolash, maqullash, dalda berish, hikoya, tushuntirish, talab, topshiriq berish

4. Suhbat, ogohlantirish, tarbiyalovchi vaziyat, o‘rgatish, jazolash, maqullash, dalda berish, hikoya, nazorat.

6.2-topshiriq Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari



Xulosa

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

Mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari

Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlarini o‘qib, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zo‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash metodlarini konspekt qilish. Adabiyotlar: Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010;

Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma’naviyat. 2007

Xalq pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. M.Mutalipova. –Toshkent, 2015

Mavzu: O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish

“Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” kitobining “Milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalari” bo‘limini konspekt qilish.

Adabiyot: Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2001.

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
3. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.
4. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
5. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
6. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.
7. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.
8. Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma'naviyat. 2007
9. Xalq pedagogikasi. O'quv qo'llanma. M.Mutalipova. –Toshkent, 2015

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

13-mavzu: Iqtisodiy va ekologik tarbiya(Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarini aniqlashtirish.
2. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirish.
3. “Iqtisodiy barqarorlik – jamiyat rivojining asosi” mavzusida tarbiyaviy soat ishlanmasini tayyorlash.
4. Ekologiya haftaligi” rejasini tuzish va uni o'tkazishga doir axboriy metodikta'minotni yaratish.

1-topshiriq. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarining o'zlashtirilishiga doir blits-so'rov savollari

1. Iqtisodiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O'quvchilarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

4. O'quvchilarga iqtisodiy bilim berishda qanday tarbiya metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq?

5. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashda qanday tarbiya shakllaridan foydalaniladi?

6. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashda qanday tarbiya vositalaridan foydalaniladi?

2-topshiriq. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarini hamda uni amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirishga doir topshiriqlar

2.1-topshiriq. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalarigadoir jodiy test topshirig'i.

1. *Gapni tugallang.*

“Ekologiya” tushunchasi ilk bornemiszoologi

2. *Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.*

O'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.. ataladi.

3. *Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.*

...O'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayondir. 4. *Gapni tugallang.*

Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ...

5. *Gapni davom ettiring.* Ekologik faoliyat ... 6. *Gapni tugallang.*

Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini ...

7. *Gapni davom ettiring.*

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur

8. *Gapni davom ettiring.*

Ekskursiya, ekologik kechalar, ekologiya haftaligi, shoirlar va olimlar bilan uchrashuvlar, sahna ko'rinishlari ...

9. *Gapni tugallang.*

Bashorat qilish, ikki yoqlama obrazlar, o'xshatish, o'yin kabilar ... 10. *Gapni davom ettiring.*

Hadislar, rivoyat va hikoyatlar, pandu nasihatlar, maqol va matallar, topishmoqlar, rebus, videoroliklar ...

2.2-topshiriq. Ekologik tarbiyani amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirishga doir muammoli vaziyat

Quyidagimuammolvaziyatbilantanishingvaunihaleting.

Yosh o'qituvchi 5-sinf o'quvchilarini maktab bog'ida daraxt ildizlarini qazib olish uchun olib bordi. O'quvchilarga ushbu ish jarayoni qanday amalga oshirilishi tushuntirildi va ular chaqqonlik bilan ishga kirishishdi. O'qituvchi har bir o'quvchining oldiga borib, ularniq o'llab-quvvatlab turdi. Oradan biroz vaqt o'tar-o'tmas, ish jarayoni to'xtab qoldi. O'quvchilarning ko'pchiligi belkuraklarga

tayangan xolda turaredi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan asabiylashgan xolda ularni koyir, dangasalikda ayblab ishlashga jalb etaredi. O‘quvchilar tezda ishni amalga oshirishga kirisharedi yu, ammo jarayon hech oldinga siljimas edi. Nizoli vaziyatlar kelib chiqish ehtimoli ortdi. Ayting-chi, nega bunday bo‘ldi?

3-topshiriq. “Ekologiya haftaligi” rejasini tuzish va uni o‘tkazishga doir axboriy-metodik ta’minotni yaratish Sana:

Mavzu:

Maqsad:

Mashg‘ulotning jihozi:

Mashg‘ulotning borishi:

	Bosqichlari	Asosiy masala va mavzularning mazmuni	Mas’ul shaxs
	1	2	3
	Kirish (10 daqiqa)	1 ...	Guruh rahbari
		2 ... 3 ...	
	Asosiy qism (40 daqiqa)	4 ... 5 ...	Boshlovchi
	Badiiy qism (20 daqiqa)	6... 7... ..	O‘quvchi A Boshlovchi
	Yakuniy qism (10 daqiqa)	9 ... 10 ...	O‘quvchi B O‘quvchi S Guruh rahbari

4. “Ekologiya haftaliklari” rejasini va uni o‘tkazishga doir metodik ishlanmalarni tayyorlash.

“Ekologiya haftaliklari” rejasini tuzishda quyidagi namunaga asoslaning. Qavs ichida ko‘rsatilganlarga mos mavzularning nomlarini kiriting.

I.Kuz fasli

1. (Ekotadbir).
2. (Ekomarafon).
3. (Videofil’ m, videoroliklar namoyishi).
4. (Ekskursiya).
5. (“Mehrjon” bayrami)

II. (Qish fasli)

1. (Ekologik mavzuda seminar)
2. (Ekoviktorina)
3. (Videofil’ m, videoroliklar namoyishi)
4. (Ekologik harakat faollari bilan uchrashuv)
5. (Tabiat muzeyiga sayohat)

III. (Bahor fasli)

1. (Ekotadbir).

2. (Tabiat qo‘yniga sayohat).
3. (“Navro‘z” bayramini o‘tkazish).
4. (“Gullar va qushlar” bayrami).

Mustaqil ta‘lim topshiriqlari:

Mavzu: O‘quvchilarning aqliy tarbiyasi

Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlaridan mavzuga diir qismini o‘qib, konspekt yozish.

Adabiyotlar: : Slastenin V.A. *Общaya pedagogika. ЧАСТЬ 1.* М.: VLADOS, 2003; Podlasby I.P. *Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1.* – М.: VLADOS, 2003; Titov V.A. *Общaya pedagogika.* - М., 2003.

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

Quronov M. *Milliy tarbiya* – Toshkent: Ma‘naviyat. 2007

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Pedagogika.* Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

2. Djuraev R.X. va boshq. *Pedagogik atamalar lug‘ati.* –Toshkent, Fan, 2008.

3. *Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma.* O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

4. *Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”* Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

5. *TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture* by Alex Moore 2012.

6. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.* B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.

7. Quronov M. *Milliy tarbiya* – Toshkent: Ma‘naviyat. 2007

14-mavzu: Fuqarolik tarbiyasi

(Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat)

Reja

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari.

2. Vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati.

3. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.

4. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. “Fuqarolik insonga nima uchun kerak?” mavzusidagi munozarani o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar

1. O‘qituvchi savolni muhokama qilish uchun o‘rtaga tashlaydi va o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo‘lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi,.

3. Hamma o‘z fikrini bildirib bo‘lgach, o‘qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to‘g‘ri javoblar ajratib olinadi.

2-topshiriq. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalariga doir blitsso‘rov savollari

1. Fuqaro deganda nima tushuniladi?
2. “Fuqaro”, “fuqaroligi bo‘lmagan shaxs” va “chet el fuqarosi” tushunchalariga izoh bering.
3. Fuqarolik nima?
4. Kimlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘la oladi?
5. Fuqarolarning burchlariga nimalar kiradi?
6. Fuqarolarning majburiyatlari nimalardan iborat?
7. Fuqarolarning ma’suliyati nimalardan iborat?
8. Fuqarolik tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
9. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi nima?
10. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari nimalardan iborat?

3-topshiriq. Vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyasining ijtimoiy ahamiyatiga oid topshiriqlar

3.1-topshiriq. “Vatanparvarlik, baynalmilallik va harbiy vatanparvarlik” mavzusida sayohat metodini tashkil etish va o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar

1. Talabalar uch guruhga bo‘linadilar hamda ularga “vatanparvarlik”, “bayanalmilallik” va “harbiy vatanparvarlik” mavzusiga doir ijodiy ish tayyorlash vazifasi topshiriladi;
2. Guruhlarda ishlash uchun vatman qog‘ozi, marker va skoch kabi jihozlar taqdim etiladi.
3. Guruhlarda ishlash tartibini o‘qituvchi boshqarib borishi va talabalarning har birining ishtirokini ta’minlashi zarur.
4. Talabalar ularga berilgan mavzu bo‘yicha ijodiy ishni tayyorlab bo‘lganlaridan so‘ng, uning taqdimotini amalga oshirishadi.

3. 1-topshiriq. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasini aniqlashda

“Chaynvord” metodi

Mazmuni	Tushuncha
Vatanga bo‘lgan, unga sadoqat	
O‘zlari, an’analari, millat va haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, turmush tarzi, til xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish	
O‘zi mansub bo‘lgan millat o‘tmishi, urf-odatlari, an’analari, sodiqlik	
Vatan va millat tarixidan	

Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni borasida g'amxo'rlik qilish	
O'zga millat va elatlarning tarixi, bugungi taraqqiyoti, umuminsoniyat madaniyatiga qo'shgan hissasi, jahon tutgan o'rni, vijdon erkinligiga oid ma'lumotlarni berish	
Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida faoliyatini tashkil etish	
O'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, turmush tarzi, til xususiyatlari, vijdon erkinligiga hurmat, milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi shakllantirish	
O'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro aloqalarini o'rnatishga amaliy jihatdan tayyorlash	
.....ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi. Kurashish	
Vatan va millat obro'yi,, or-nomusini himoya qilish	
Yurt ravnaqi va millat ishonish	

4-topshiriq. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir topshiriqlar

1-topshiriq. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir ijodiy test topshirig'i

1. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlaning topib qo'ying.
... o'quvchilarga huquqiy mehyorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongning shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.
2. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlaning topib qo'ying.
... muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va ehtiyoqlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.
3. Gapni tugallang.
Huquqiy mehyorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida ehtiyoqlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.
4. Gapni davom ettiring.
...xalqni xalq, millatni millat qilib ko'rsatadi.

5. Gapni davom ettiring.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

6.Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o‘zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.

4.2-topshiriq. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir tushunchalar tahlili metodini bajarish

TUSHUNCHALAR TAHLILI		
Tushunchalar	Mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o‘rni
Huquqiy ta’lim		
Huquqiy ong		
Huquqiy madaniyat		
Huquqiy tarbiya		
Huquqiy faoliyat		
Milliy g‘urur		

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

Mavzu: Fuqarolik tarbiyasi

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Inson huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari” bo‘limini konspekt qilish.

2. Savollarga javob bering. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi nimadan iborat? Xuquqiy tarbiyaning maqsadini izohlang. Fuqarolik nima?

Adabiyot: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

2. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
3. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.
4. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.
5. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
6. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.
7. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.
8. Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma’naviyat. 2007

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

15- mavzu: Ma’naviy-axloqiy tarbiya

(Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyatini.
2. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir g‘oyalari.
3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish.
4. “Yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi: muammo va yechimlar” mavzusida insho yozish.

1-topshiriq. “Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishish nima uchun zarur?” mavzusida erkin yozish va muhokama qilish.

Topshiriq:“Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligiga erishish nima uchun zarur?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing.

O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.
2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi mahlum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.
3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

2-topshiriq. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir blits-so‘rov savollari

1. “Axloq”, “axloqiylik”, “etika” tushunchalariga tahrif bering.
2. Mazkur tushunchalar o‘rtasidagi farq nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Sizningcha, mazkur tushunchalar bizning jamiyatimizda qay tarzda namoyon bo‘lmoqda?
4. Mazkur tushunchalar sizning hayotingizda qanday ahamiyatga ega?
5. Axloqiy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
6. Maktab, kollej va oliy ta’limdagi o‘qituvchilar sizning tarbiyangizga qanday tahsir ko‘rsatishgan (ko‘rsatishmoqda)?
7. Siz kelajakda o‘z o‘quvchilaringizni qanday tarbiyalashni tasavvur qila olasizmi?
8. Siz kelajakda o‘z farzandlaringizni qanday tarbiyalashni xohlaysiz?
9. O‘zingizni tarbiyali inson deb ayta olasizmi?
10. O‘zingizni axloqli inson deb hisoblay olasizmi?
11. Sizda o‘zingiz tuzatishni xohlaydigan axloqiy kamchiliklar mavjudmi?
12. O‘zingizda qanday sifatlarni rivojlantirishni xohlaysiz?
13. Qanday inson axloqiy yetuk hisoblanadi?
14. Sizningcha, axloqiy yetuklik bugungi kunda qanday tarzda namoyon bo‘lishi muhim sanaladi?
15. Bugungi kunda tengdoshlaringizni axloqiy yetuk insonlar deb ayta olasizmi?
16. Kursdoshlaringizning axloqiy rivojlanishidagi asosiy muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarni sanab bering.

3-topshiriq. O‘ylang / juftliklarda fikr almashing.

Quyida keltirilgan Sharq mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir qarashlari bilan tanishing va ularni muhokama qiling.

1. Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo‘lsa, u ko‘p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo‘rin bo‘lib ko‘ringan narsalar zaruriy bo‘lib chiqadi (Abu Nasr Forobiy).

2. Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aqlzakovat ato etilgan, shuning uchun xar bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim (Abu Rayxon Beruniy).

3. Ma’lumki, inson hech qachon tug‘ilganda yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi... Biroq har bir kishida biron bir fazilatga yoki qabixlikka mayl, qobiliyat bo‘ladi:

1. Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib, aqllilik, donolik fahm-farosatlilik zehnilikdan iborat. 2. Xulqiy fazilat – intiluvchi quvvatga kirib iffat, injoat, sahiylik va adolatlilikni o‘z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir (Abu Nasr Forobiy).

4. Yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo‘ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo‘lishida hukumat ahllarining ta’siri ham zo‘r bo‘ladi (Abu Ali ibn Sino).

5. Kishi ikki narsa bilan xayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo‘lsa, ikkinchisi yaxshi so‘z (Yusuf Xos Xojib).

6. Ey farzand, yaxshilik qil va qilg'on yaxshilikdan hargiz pushaymon bo'lmagil. Bir kishiga bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetadi, sening ko'nglingga ham undan ziyodroq shodlik va yozish xuramlik yetishur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, yetgusidur. Yaxshilikning yaxshilik bilan qaytishi ayni haqiqatdir (Kaykovus).

7. Insonda ikki narsa bo'lsa unga muruvvat yo'li yopiladi: biri bexuda so'zlarni ko'p gapirsa, ikkinchisi, uning so'zlari yolg'on bo'lsa (Ahmad Yugnakiy).

8. Ulug'likka yetsang, unutmaga o'zing

Agar atlas kiysang, unutmaga bo'zing (Ahmad Yugnakiy).

9. Insonparvarlik va mardlikni Alloh ham, xalq ham ulug'laydi (Amir Temur).

4-topshiriq. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. "Kerakli so'zlarni topib qo'yning" treningini o'tkazish.

Treningning maqsadi: talabalarda guruhdoshlariga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish.

Treningning borishi:

I. O'qituvchi talabalarga bir varaq qog'oz olib, doskaga yozilgan quyidagi gaplardagi tushirib qoldirilgan so'zlarni topib yozishni so'raydi.

1. Men ko'proq insonlardagi ... qadrlayman.
2. Men o'z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilaman.
3. Men o'z tengdoshlarimni ... uchun hurmat qilmayman.
4. Men o'zimda ko'proq ... fazilatlarini aks ettirishni xohlayman.
5. Mening hayotdagi eng asosiy maqsadim – bu ...
6. Men istalgan qarorni chiqarishda ... asoslanaman.

II. Talabalar individual tarzda gaplardagi kerakli so'zlarni yozib bo'lishgandan so'ng, dastlab juftliklarda va so'ngra guruhlarda o'z fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashdilar.

III. Guruhlarda muhokama qilish uchun ajratilgan vaqt tugagach, o'qituvchi doskaga quyida ko'rsatilganidek, "Toifalash jadvali"ni chizadi va uni guruhlarda to'ldirishni so'raydi.

Bizning	Biz	Biz	Bizning	Biz
qadrlaymiz..	hurmat qilamiz.	hurmat qilmaymiz	maqsadimiz...	tayanadigan asoslar...

IV. Har bir guruh o'z toifalash jadvalarini to'ldirib bo'lishgach, alohida-alohida taqdimot qiladilar.

2-topshiriq. Muammoli savollar.

Quyida keltirilgan muammoli savollar bilan tanishing va ularni hal eting.

1. Uchinchi sinf o'quvchilari shuhratparastlik va manmanlik tushunchalarining mazmuni bir xil yoki boshqacha ekanligi to'g'risida bahslashib qoldilar. Nima uchun bolalar bu masalani tushunib olishlari qiyin? Ularga qanday qilib yordam berish mumkin?

2. "Uning vijdoni toza emas", "Bu – vijdotsiz kishi", "Bu ishni qilishga mening vijdonim yo'l qo'ymaydi" degan gaplarni siz qanday tushunasiz? Vijdonning kishi axloqiy tarbiyasiga qandaydir aloqasi bormi? Bu qanday aloqa?

3. Televidenie orqali namoyish etilayotgan chet el seriallarining yoshlar tarbiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta'siri bor deb o'ylaysiz? Ularni tomosha qilish va unga munosabat bildirishda ota-onalar qanday yo'l tutishlari lozim, deb hisoblaysiz?

4. Siz insonlarda qadrlaydigan, ulug'laydigan axloqiy fazilatlar qaysilar va siz "axloqsizlik" deb qaraydigan sifatlar nimalar?

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Mavzu: Ma'naviy-axloqiy tarbiya

1. Sharq allomalarining insonparvarlik to'g'risidagi fikrlarini alhida ajratib, konspekt qiling.

2. Toxir Malikning "Saodat saroyining kaliti" asari tahlili.

3. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiladigan quyidagi tushunchalar glossariysini yarating.

Insonparvarlik, halollik, qanoat, sabr, miqyosi nafs, saxovatlilik.

Adabiyotlar: Xoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010; Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2009.

Mavzu: Mehnat tarbiyasi

Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, mehnat tabiyasining turlarini konspekt qilish.

Adabiyotlar: : Slastenin V.A. Общaya pedagogika. ЧАСТЬ 1. М.: VLADOS, 2003; Podlasby I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003; Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

2. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

3. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent, Fan, 2008.

4. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'.Asqarova. – Toshkent, Istiqlol, 2005.

5. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

6. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

7. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

8. Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma'naviyat. 2007

16-mavzu: Oila tarbiyasi

(Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. Oila, uning vazifalari va turlari.
2. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllari

1-topshiriq. Oila, uning vazifalari va turlariga doir blits-so'rov savollari

1. "Oila" tushunchasiga tahrif bering.
2. Oila qanday jihatlarni o'zida aks ettiradi?
3. Jamiyatga munosabatiga ko'ra oila qanday vazifalarni bajaradi?
4. Insonga nisbatan munosabatiga ko'ra oilaning vazifalariga nimalar kiradi?
5. Oilaning iqtisodiy funksiyasi qanday vazifani bajaradi?
6. Oilaning ijtimoiy funksiyasiga nimalar kiradi?
7. Oilaning reproduktiv funksiyasi nimalardan iborat?
8. Nikohiy holat bo'yicha oilalarni qanday turlarga bo'lish mumkin?
9. Bolalar soniga ko'ra zamonaviy oilalarning qanday turlari mavjud?
10. O'zaro munosabat turiga ko'ra oilalarni qanday turlarga tasnif qilish mumkin?
11. Shaxslararo munosabatlar tavsifiga ko'ra oilalar qanday guruhlashtiriladi?
12. Jamiyat va oilaning o'zaro munosabatini sharhlab bering.
13. O'zbek oilasidagi shaxslararo munosabatlar sizni qoniqtiradimi? Bunga munosabatingiz.
14. Oilaning maktab bilan hamkorligi qanday bo'lganda tarbiya samarali bo'ladi, deb o'ylaysiz?
15. Bola tarbiyasida mahalla, jamoatchilikning o'rni qanday?

2-topshiriq. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflashga doir ikki qismli kundaliklar topshirig'i

Quyida keltirilgan "Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xosliklari" mavzusidagi ikki qismli kundalikning chap tomondagi ustunida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va o'ng tomondagi ustunga ularning har biriga izoh yozing.

Shahar va qishloq oilalarining ijtimoiy hayot tarzidagi farq	
--	--

Ota-ona qanchalik yuqori ma'lumotga ega bo'lsa, ularning bolalari ta'lim muassasasida shunchalik muvaffaqiyatli bo'qishadi.	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy jihatdan turlicha tahminlanganlik	
Oiladagilar sonini kamaytirish, tug'ilishning oldini olish	
Zamonaviy oilalar ajralishlar sonining ko'zga ko'rinarli ko'payganligi	
Oilada ota-onalar psixologik jihatdan tayyor bo'lishi mumkin. Lekin hammasi ham yetarlicha pedagogik bilimlarga ega emas.	
Ijtimoiy hayotning madaniy saviyasining pastligi	
Oilada ayollarga tushadigan «yuk»ning kattaligi	
Avlodlar orasidagi konfliktlarning kuchayib borayotganligi	

3-topshiriq. “Hayotiy vaziyatlar” mashqi.

Maqsad: talabalarda turli hayotiy vaziyatlarni borligicha, asldek, tabiiy qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ko'rsatma: Sizing hayotingizda turli-tuman hayotiy vaziyatlar sodir bo'lgan. Ularning ayrimlari ijobiy, ayrimlari esa salbiy mazmunga ega. Ayni vaqtda Sizga hayotingizda sodir etilgan hayotiy vaziyatlarning jadvalini yaratish topshirig'i beriladi. Jadvalda to'rtta ustun hosil qilib, ularning birinchisini “Ijobiy ahamiyatga ega hayotiy vaziyatlar”, uchinchisini “Salbiy xarakterga ega hayotiy vaziyatlar” deb nomlang. Ikkinchi va to'rtinchi ustunlarni esa “Ularning oqibatlari” deb nomlab, hayotiy vaziyatlar Sizga nimalarni taqdim etganligini, buning natijasida o'zingizda qanday fazilat (sifat yoki illat) shakllanganligini tahlil qiling.

Jadvalni to'ldirishni tug'ilganingizdan boshlab, to 7 yoshgacha bo'lgan davrda hayotingizda sodir bo'lgan voqea-hodisalardan boshlang. Eslashga harakat qiling: qanday hayotiy vaziyatlarga duch kelgan va ularni qanday baholagansiz.

Ijobiy ahamiyatga ega hayotiy vaziyatlar	Ularning oqibatlari	Salbiy xarakterga ega hayotiy vaziyatlar	Ularning oqibatlari

4-topshiriq. Mavzu bo'yicha ijodiy topshiriqlar:

4.1 -topshiriq

Boy madaniy-ma'naviy me'rosimizdan biri bo'lmish «Avesto»da oila-nikoh, masalalari qanday yoritilgan?

4. 2-topshiriq

Hozirgi zamon oilasining qanday turlari farqlanadi?

4.3 -topshiriq

Hozirgi zamon oilasining qanday asosiy funktsiyalari bor?

4. 4-topshiriq Quyidagi misralarni o'qing va mushohada qiling.

«Nikoh - hayot maktabi bo'lib, unda o'quvchi roli ko'prok erkaklarga tushadi

(Yu.Bulotovich)

«Nikoh uzugi bu oila zanjirining birinchi xalqasidir.(F. SHoumarov)

4.5-topshiriq

Yanush Korchak hohlovchilarga «Buvi oilada tarbiya omili sifatida» mavzusida traktat yozishni taklif qiladi. Bunda buvi bolalar yoki nevaralar bilan birga yashaydigan joyida u bajaradigan asosiy rollarnin yozishga harakat qiling.

(Javob: buvilarning roli xilma-xil. Bulardan bir nechtasini aytishimiz mumkin: 1) Baxtsiz kampir; 2) Oilada boshliq-general; 3) tartib posboni; 4) eng mehribon buvi; 5) Uy o'qituvchisi; 6) Quvnoq va muloyim bola; 7) Qari donishmand kishi sifatida va hokazo).

4. 6 -topshiriq

Quyidagi pedagogik vaziyatni yeching:

1.Siz ko'chada o'tuvchilar ko'z o'ngida o'z bolasini qattiq urayotgan ayolni uchratdingiz. Bola achchiq yig'layapti. Agar ayolga ahamiyat bersangiz, u yanada g'azablanadi, shunchaki o'tib ketib ham bo'lmaydi. O'zingizni qanday tutasiz?

O'ylash uchun.

1.Zamonaviy oilaning inqirozi nimada aniq nomoyon bo'ladi? Bunga kim aybdor: oilami, maktabmi, jamiyatmi?

2.Zamonaviy oilalarda bolaga ota-onalardan ko'ra televidenie va kompyuterning ta'siri ko'proqmi, siz buni tasdiqlaysizmi?

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Mavzu: Jismoniy va estetik tarbiya

1. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, jisminiy va estetik tarbiyaning vositalarini konspekt qilish.

2. Savollarga javob bering. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi? "Jismoniy kamolat" tushunchasi o'zida nimani ifoda etadi? Jismoniy tarbiya samaradorligini.Jismoniy tarbiyaning maqsadi nima?Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy vazifalariga nimalar kiradi?"Sog'lom avlod dasturi" talablariga muvofiq respublika miqyosidagi qanday sport musobaqalari yo'lga qo'yilgan? Jismoniy madaniyat qanday mazmunga ega?

Adabiyotlar: Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 1993; Podlasny I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003; Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1 Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. O'quv qo'llanma. I.Sh.Alqarov, R.Mamatqulova, N.D.Norqulov.-Toshkent. 2009

2. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

3. Oila pedagogikasi. Jamoa. – Toshkent, Aloqachi, 2008.

4. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. – Toshkent, Istiqlol, 2005.

5. Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

6. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.


17-mavzu: O‘quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi (Seminar mashg‘uloti ishlanmasi 2 soat) Reja

1. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
2. Estetik tarbiya mazmuni.
3. Jismoniy va estetik tarbiya vositalari..
4. Muzeyga ekskursiya uyushtirishga doir ishlanma.

1-topshiriq. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalariga doir blits-so‘rov savollari

1. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi?
2. “Jismoniy kafolat” tushunchasi o‘zida nimani ifoda etadi?
3. Jismoniy tarbiyaning maqsadi nima?
4. V.A.Slastenin, I.F.Isaev, Ye.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning qanday vazifalarini ajratib ko‘rsatishadi?
5. B.T.Lixachev tasnifi bo‘yicha jismoniy tarbiyaning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, sog‘lomlashtiruvchi va umummadaniy vazifalariga izoh bering.
6. Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy vazifalariga nimalar kiradi?

2-topshiriq. Jismoniy va estetik tarbiya: tushunchalar mazmunini ifodalang va qiyosiy taqqoslang.



3-topshiriq. Muzeyga ekskursiya uyushtirishga doir ishlanma tayyorlash.

Ekskursiya ishlanmasini tayyorlashga doir ko'rsatmalar:

- 1) ekskursiya ishlanmasi o'zaro bir-biri bilan bog'langan quyidagi aniq *tarkibiy tuzilishga* ega bo'lishi lozim: tayyorlov bosqichi, ekskursiyaning borishi va ekskursiyadan keyin amalga oshiriladigan ish;
- 2) *tayyorlov bosqichida* ekskursiya mavzusi, uning mazmun-mohiyati, o'tkazilish muddati belgilab beriladi. SHuningdek, ekskursiya uyushtiriladigan

O'yinning mazmuni: ta'lim muassasani boshqarish uslublarining o'ziga xosliklari.

O'yinning borishi. Ishbop o'yinda quyidagi ishtirokchilar qatnashishdi:

ishbop o'yin tashkilotchisi (o'qituvchi), munozara ishtirokchilari (direktor o'rinbosarlari, o'qituvchilar, munozara ishtirokchilari), hakamlar.

O'yin tashkilotchisi:

- 1) o'yinning borishini boshqaradi;
- 2) ishtirokchilar bilan o'tkaziladigan o'yinning maqsadi, borishi, mezonlari, kutiladigan natijalar bo'yicha suhbat o'tkazdi;
- 3) barcha ishtirokchilarning o'zaro harakatini amalga oshirdi;
- 4) munozaraning boshqardi;
- 5) yakunlarini chiqarib o'yinni baholashga hakamga yordam berdi. *Munozara ishtirokchilari:*

- 1) taqdim etilgan mavzuni muhokama qilishda ishtirok etishadi;
- 2) boshqaruv uslublari yuzasidan o'z mulohazalarini bayon etdi;
- 3) boshqaruv uslubini qo'llash bo'yicha o'z g'oyasini taklif etdi. *Hakam:*
- 1) ishtirokchilarning xatti-harakatlarini yo'naltirib turadi;
- 2) munozara vaziyatini hosil qilish uchun tashviqotga doir savollarni

o'rtaga tashlaydi;

- 3) munozara ishtirokchilarining chiqishlarini baholaydi.

Rollar quyidagi tavsifga egabo'ldi:

Rahbar portreti. Rahbar o'zining boshqaruv uslubini himoya qiladi. O'z nuqtai nazarida qoldi. boshqaruv uslubiga doir mulohazalar kiritadi.

Optimist portreti. U rahbarni qo'llab-quvvatlaydi, uning fikrlarini to'ldiradi. Rahbar boshqaruv uslubining afzalliklarini ta'kidlab o'tadi.

Konformist portreti. U o'zining mustahkam nuqtai nazariga ega emasligini namoyish etadi. vaziyatga qarab, ba'zan rahbarni qo'llab-quvvatlaydi, ba'zan qarshilik ko'rsatadi.

Konservator portreti. U rahbarning boshqaruv uslubining samarali emasligini ta'kidlaydi. Rahbar boshqaruv uslubining salbiy tomonlarini ajratib ko'rsatadi.

Hakam portreti. U rahbarning boshqaruv uslubiga doir ma'lumotlarni tahlil qilib uning eng asosiy jihatlarini ajratib ko'rsatadi. Rahbarning boshqaruv uslubini

o'zgartirishga doir ko'rsatmalar beradi. **2-topshiriq. Ta'lim muassasasi menejmenti mohiyatini aniqlashtirishga doir blis-so'rov savollari**

1. Boshqarish deb nimaga aytiladi?
2. Boshqaruv ob'ekti va boshqaruv sub'ekti tushunchalariga izohbering.
3. Ta'lim muassasasini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
4. Menejment deganda nima tushuniladi?
5. Ta'lim muassasasi menejmenti deb nimaga aytiladi?
6. Ta'lim menejmentining o'ziga xos jihatlari nimalarda yorqin namoyon bo'ladi?

3-topshiriq. Ta'lim muassasasini boshqarish funksiyalari, tamoyillariva metodlariga doir toifalash jadvali

Boshqaruv funksiyalari	Boshqaruv tamoyillari	Boshqaruv funksiyalari	Boshqaruv metodlari

4-topshiriq. Ta'lim muassasasini boshqarishga doir me'yoriy hujjatlarni o'rganish bo'yicha amaliy topshiriqlar

4.1-topshiriq. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari to'g'risidagi Nizom asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Bo'limlarning nomlanishi	Bo'lim mazmuni
Umumiy qoidalar	
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi, vazifalariva uni tashkil etish	
Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari ga o'quvchilarni qabul qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni	
Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini mablag' bilan ta'minlash va moddiy texnika ta'minoti	
Xalqaro hamkorlik	

4.2-topshiriq. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining Ustavi asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Bo‘limlarning nomlanishi	Bo‘lim mazmuni
Qisqacha ta’lim muassasasi haqidagi ma’lumotlar	
Ta’lim muassasasining Maqsadvavazifalari	
Ta’lim muassasasiniboshqarish	
O‘quv-tarbiyava ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish	
O‘qituvchi. Huquqvaburchlari	
O‘quvchi. Huquqvaburchlari	
O‘quv-ishlab chiqarish ustalari, ma’muriyva yordamchi xodimlarning huquqvaburchlari	
Ota-onalar yoki ularning o‘rninibosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatva mas’uliyatlari	
Ta’lim muassasasining moddiyva moliyaviy xo‘jalik ta’minoti	

Mustaqil ta’lim topshiriqlari:

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi

Quyidagi me’yoriy hujjatlarni o‘qib-o‘rganib, O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining funktsiyalarini yozing.

Adabiyotlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar Ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018 yil

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

2. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. –Toshkent, Fan, 2008.

3.Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O‘quv qo‘llanma. O‘.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

4.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

5.TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

6. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

7. Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma'naviyat. 2007.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar Ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2018 yil

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

19-mavzu: Ta'lim muassasasida metodik ishlarni boshqarish (Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat)

Reja

1. Pedagogik kengash, Metodika kengashi va metod birlashmalari.
2. Pedagogika kengashi, Metodika kengashi va metod birlashmalarining faoliyatini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. "Men Pedagogik kengash haqida nimalarni bilaman?" mavzusidagi erkin yozish topshirig'i

Topshiriq: "Men Pedagogik kengash haqida nimalarni bilaman?" mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting. Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.
2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.
3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

2-topshiriq. Pedagogik kengash, Metodika kengashi va metod birlashmalarining maqsad va vazifalariga doir blis-so'rov savollari

1. Pedagogik kengashni tashkil etishning maqsad nimada?
2. Pedagogik kengashning maqsad va vazifalariga nimalar kiradi?
3. Pedagogik kengash qanday huquqlarga ega?
4. Pedagogik kengash hujjatlariga nimalar kiradi?
5. Metodik kengash qanday boshqaruv organi?
6. Metodik kengashning maqsadi nima?
7. Metodik kengashning vazifalariga nimalar kiradi?
8. Metodik kengash hujjatlariga nimalar kiradi?

3-topshiriq. Pedagogika kengashi, Metodika kengashi va metod birlashmalarining faoliyatini tashkil etishga doir topshiriqlar

1-topshiriq. Pedagogika kengashi, Metodika kengashi va metod birlashmalarining namunaviy yilliy ish rejasini tuzish.

Yillik ish rejalarini tuzishda quyidagi chizmaga asoslaning.

	Bajariladigan ishlar	Bajarilish muddati	Mas'ul

3.2-topshiriq. O'qituvchilarning malakasini oshirish va yosh o'qituvchilar bilan ishlash shakllariga doir quyidagi jadvalni to'ldiring.

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish shakllari	Yosh o'qituvchilar bilan ishlash shakllari

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Mavzu: Ta'lim muassasasi menejmenti

1. Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi va metod birlashmalarning vazifalarini konspekt qilish.

2. Mazkur tushunchalar mohiyatini yoritib bering.

Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari, ta'lim muassasalarining Nizom va Ustavlari, ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari, ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni, ta'lim muassasasining boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari rahbarlarining vazifalari, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Adabiyot: Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va varovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: O'zbekiston, -2017.

3. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

4. Djuraev R.X. va boshq. Pedagogik atamalar lug'ati. –Toshkent, Fan, 2008.

5.Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar /O'quv qo'llanma. O'.Asqarova. –Toshkent, Istiqlol, 2005.

6.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.

7.TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore 2012.

8. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, "Sanostandart" nashriyoti, 2017.

20-mavzu: Korreksion pedagogika(Seminar mashg'uloti ishlanmasi 2 soat) Reja 1.Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalari.

2.Rivojlanishdagi nuqsonlarni klassifikasiyalash.

3.Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash metodlariga doir amaliy topshiriqlar.

1-topshiriq. "Korreksion pedagogikani o'rganishning ahamiyati shundaki..." mavzusida asoslangan esse yozish.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazarini bayon eting.

2. Nuqtai nazarini asoslash uchun dalillar kiriting.

3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

2-topshiriq. Korreksion pedagogikaning maqsad va vazifalariga doir blisso'rov savollari

1. Korreksion pedagogika fani nimani o'rganadi?

2. Korreksion pedagogika fani yana qanday nomlar bilan ataladi?

3. Korreksion pedagogika fani qay tarzda paydo bo'lgan?

4. Korreksion pedagogikaning qanday sohalari mavjud?

5. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

6. Korreksion pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?

7. Anomal bilan olib boriladigan korreksion ishning asosiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?

3-topshiriq. Talabalarni rivojlanishdagi nuqsonlarni tasnif etishga doir toifalash jadvali

M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar tasnifi	O.N.Usanova tasnifi	V.S.Raxmanova tasnifi

4-topshiriq. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash metodlariga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Anomal bolalarning fikrlashini o'rganish maqsadida taxminiy so'rovnoma variantini ishlab chiqing.

2-topshiriq. Anomal bolalarning rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda ularga chizish taklif etiladigan rasmlar ro'yxatini ishlab chiqing.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Mavzu: Korreksion pedagogika asoslari

Rivojlangan davlatlarda maxsus pedagogika holatini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish.

Adabiyotlar: Novotortseva N.V. Korrektsionnaya pedagogika i spetsial'naya psixologiya. Slovarь. – Moskva: Pedagogika, 1999;

Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta'minlashning ilmiy-pedagogik asoslari. L.Sh.Nurmuhammedova.-Toshkent. 2014.

Maxsus pedagogika. Toshkent.: "Fan va texnologiyalar" 2014.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 1.Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
- 2.Pedagogik entsiklopediya. I va II jild. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -Toshkent, 2012.
- 2.Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
- 3.Usanova O.N. Ruhiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar. –Moskva: Pedagogika, 1995.
- 4.Novotortseva N.V. Korrektsionnaya pedagogika i spetsialnaya psixologiya. Slovarь. – Moskva: Pedagogika, 1999.. Shubina A.B. Toshkent. 2009.
6. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta’minlashning ilmiy-pedagogik asoslari. L.Sh.Nurmuhammedova.- Toshkent. 2014.
7. Maxsus pedagogika. Toshkent.: “Fan va texnologiyalar” 2014.
8. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sanostandart” nashriyoti, 2017.
5. Boshqalardan farqli bola: parvarishlash va rivojlantirish
9. TEACHING AND LEARNING Pedagogy, Curriculum and Culture by Alex Moore

MUSTAQIL TA'LIM MAQSADI, MAZMUNI VA VAZIFALARI

Mustaqil ta'limning maqsadi:

- talabalarni "Umumiy pedagogika" fanining pedagogika nazariyasi bo'limi bo'yicha nazariy bilimlar mustahkamlash va umumlashtirish;

- talabalarda fan asoslarini mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- talabalarning bilish faolligi, mustaqil ijodiy ish qobiliyatlari va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish;

- talabalarda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish va takomillashtirish malakalarini qaror toptirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim mazmuni

Mustaqil ta'lim mavzusi talabalar mustaqil o'rganadigan ma'ruza va seminar mashg'uloti mavzulalaridan iborat bo'ladi. Jumladan: Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslari.

Mustaqil ta'lim talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga mavzularni tushunishg qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyoqarashlini kengaytirishga yordam beradi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *birinchi turi* – bu sirdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya'ni

dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko'zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *ikkinchi tipi* - bunda o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi, talabalardan ushbu g'oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *uchinchi tipi* talabalarda uchinchi bosqich – tipik bo'lmagan vazifalarni bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir.

Bu maqsadga talabalardan o'rganilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlar sabablarining algoritmi asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining *to'rtinchi tipi* ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir.

Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilayotgan ob'ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar munosabatlarni o'rnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

namunalar bo'yicha mustaqil ishlar;

rekonstruktiv-variantiv; evristik (qisman, ijodiy); ijodiy tadqiqot.

Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materialni o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o'stirmaydi.

Rekonstruktiv-variantiv mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda tutadi.

Evristik mustaqil ishlar lektsiya, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog'liqdir.

Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko'ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo'ljallaydi.

Ijodiy tadqiqot ishlari. Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Talaba o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi,

tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

SHunday qilib, mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim metodi bo'lib, unda talabalar mashg'ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: *mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;*

mustaqil ravishda o'z bilimlarini yanada oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi; mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish; mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.

Mustaqil ta'lim jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil ta'limning asosiy metodi *adabiyotlar ustida individual* ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo'lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.

SHuningdek, mustaqil ta'limga amaliy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalarni bilan ishlash ham kiradi.

Mustaqil ta'limning muhim metodlaridan biri ularning *muloqotidir*. Mustaqil ta'limning pirovard maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'zi ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlarning miqdoriy taqsimoti.

Mustaqil ta'limga "Umumiy pedagogika" fanining pedagogika nazariyasi bo'limi bo'yicha 56 soat ajratilgan. **Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar.**

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'roq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari

	Mustaqil ta'lim mavzusi va topshiriqlari	Soat
--	---	-------------

	<p>Kadrlar tayyorlash Milliy modeli</p> <p>1.“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning “Kadrlar tayyorlash Milliy modeli” bo‘limini konspekt qilish.</p> <p>1.“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning “Kadrlar tayyorlash Milliy modeli” bo‘limini konspekt qilish.</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar Ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni yuzasidan fikr - mulohaza yuritish.</p> <p>3.Ta’lim sohasidagi davlat siyosati tamoyillarini tahlil qilish.</p> <p>Adabiyot:Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.</p>	2
	<p>Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari</p> <p>“Pedagogika” darsligidan pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini o‘qib-o‘rganib, konspekt qilish.</p> <p>Adabiyot: Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	2
	<p>Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi</p> <p>1.“Pedagogika” darsligining mavzuga bag‘ishlangan bo‘limini o‘qib chiqib, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilari yosh davri xususiyatlariga tavsif yozish.</p> <p>2. O‘quvchilarni pedagogik va psixologik jihatdan o‘rganib tavsifnoma tayyorlash.</p> <p>Adabiyotlar: Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	2
	<p>Didaktika ta’lim nazariyasi sifatida</p> <p>1.Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlaridan “Didaktik tizimlar” mavzusini konspekt qilish.</p> <p>2. Savollarga javob bering. “Didaktika” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi? Didaktikaning predmeti, ob’ekti va vazifalari nimalardan iborat? Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?</p> <p>Zamonaviy didaktik tizimning o‘ziga xos belgilari nimalardan iborat? Ta’lim jarayoni nima? Bilimlarni egallash bosqichlari nimalardan iborat? “Ta’lim tamoyili” deganda nimani tushunasiz?</p> <p>Adabiyotlar: Slastenin V.A., Isaev I.F. pedagogika. – M.: Akademiya, 2005; pedagogika.</p> <p>Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	2

	<p>Ta’lim qonuniyatlari Quyida keltirilgan adabiyotni o‘qib, “Ta’limning xususiy qonuniyatlari”ni konspekt qilish. Adabiyot: Podlasъy I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	2
	<p>Ta’lim mazmuni Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlarini o‘qib, ta’lim mazmunini tanlash mezonlari va tamoyillarini konspekt qilish. Adabiyotlar: Slastenin V.A. Obщaya pedagogika. CHastъ 1. M., 2003; Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017</p>	2
	<p>Ta’lim metodlari va vositalari 1.Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlarini o‘qib, ta’lim metodlarini turlicha tasnif qilinishi sabablarini aniqlash va konspekt qilish. 2.Ushbu tushunchalar glossariysini yarating. O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari. O‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish va motivlash metodlari.Nazorat va o‘zo‘zini nazorat metodlari. Adabiyotlar: Slastenin V.A., Isaev I.F. Pedagogika. – M.: Akademiya, 2005; Podlasъy I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	2
	<p>Ta’lim turlari va ta’limni tashkil etish shakllari. Dars – ta’limni tashkil etishning asosiy shakli Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlardan mavzuga doir qismlarini o‘qib, quyidagi masalalarni yozma bayon etish: 1. O‘qitishning sinf-dars tizimining boshqa ta’lim tizimlaridan farqi nimada? 2. Nostandart darslarga tavsif yozing. Adabiyotlar: Slastenin V.A., Isaev I.F. Pedagogika. – M.: Akademiya, 2005; Podlasъy I.P. pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. –</p>	4
	<p>M.: VLADOS, 2003. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	

	<p>Ta'lim olganlikni tashxis etish</p> <p>Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, quyidagi masalalarni konspektlashtirish:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'quvchilarning bilimni baholashga doir chet el tajribasi. 2. Ta'limda o'zlashtirishdan ortda qolish sabablari. <p>Adabiyotlar: Slastenin V.A. <i>Общая педагогика. Часть 1.</i> M.: VLADOS, 2003; Podlasyy I.P. <i>Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1.</i> – M.: VLADOS, 2003;</p> <p>Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.- Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017.</p>	4
0.	<p>Tarbiyaning maqsad va vazifalari</p> <p>Quyida ko'rsatilgan adabiyotni o'qib, milliy tarbiyaning o'ziga xosliklariga doir esse yozish.</p> <p>Adabiyot: Quronov M. <i>Milliy tarbiya – T.: Ma'naviyat.</i> 2007. <i>Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.</i> B.X.Xodjaev.- Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017.</p>	2
1.	<p>Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlaridan tarbiya tamoyillarini o'qib, konspekt yozish. 2. Mazkur tushunchalar glossariysini yarating. Tarbiya nazariyasining mohiyati, tarbiya jarayonining mazmuni, ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifalari, tarbiya tamoyillari, tarbiya qonuniyatlari. <p>Adabiyotlar: Quronov M. <i>Milliy tarbiya – T.: Ma'naviyat.</i> 2007. <i>Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.</i> B.X.Xodjaev.- Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017.</p>	2
2.	<p>Bolalar tarbiya jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonning asosiy shakli</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, guruh rahbarining sinfdan tashqarida o'tkaziladigan ish shakllarini konspekt qilish. 2. Mavzuga oid keys tuzib kelish. <p>Adabiyotlar: M.Quronov <i>milliy tarbiya</i> 2012; Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Paradaev A. <i>Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya,</i> 2010.</p>	4
3.	<p>Tarbiyaning umumiy metodlari</p> <p>Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini qayta tarbiyalash</p>	2

	<p>metodlarini konspekt qilish.</p> <p>Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlarini o‘qib, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash metodlarini konspekt qilish.</p> <p>Adabiyotlar: Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyviy ish metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010;</p> <p>Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyviy ish metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010;</p> <p>Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma’naviyat. 2007</p> <p>Xalq pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. M.Mutalipova. – Toshkent, 2015</p>	
4.	<p>Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.</p>	
5.	<p>O‘quvchilarning aqliy tarbiyasi</p> <p>Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlaridan mavzuga diir qismini o‘qib, konspekt yozish.</p> <p>Adabiyotlar: : Slastenin V.A. Obshaya pedagogika. CHast’ 1. M.: VLADOS, 2003; Podlasuy I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003; Titov V.A. Obshaya pedagogika. - M., 2003.</p> <p>Quronov M. Milliy tarbiya – Toshkent: Ma’naviyat. 2007</p> <p>Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	
6.	<p>Fuqarolik tarbiyasi</p> <p>1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Insonhuquqlari, erkinliklarivamajburiyatlari” bo‘liminikonspektqilish.</p> <p>2.Savollarga javob bering. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi nimadan iborat? Xuquqiy tarbiyaning maqsadini izohlang. Fuqarolik nima?</p> <p>Adabiyot: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.</p> <p>Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	
7.	<p>Ma’naviy-axloqiy tarbiya</p> <p>1.Sharq allomalarining insonparvarlik to‘g‘risidagi fikrlarini alhida ajratib, konspekt qiling.</p> <p>2. Toxir Malikning “Saodat saroyining kaliti” asari tahlili.3.Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiladigan quyidagi tushunchalar glossariysini yarating.</p> <p>Insonparvarlik, halollik, qanoat, sabr, miqyosi nafs, saxovatlilik.</p>	

	<p><i>Adabiyotlar: Xoshimov K., S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2010; Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009.</i></p>	
8.	<p>Mehnat tarbiyasi Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlarini o‘qib, mehnat tabiyasining turlarini konspekt qilish. Adabiyotlar: Slastenin V.A. Общaya pedagogika. ЧHасть 1. M.: VLADOS, 2003; Podlasыy I.P. pedagogika. V 2-x kn. Kn.1. – M.: VLADOS, 2003; Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy taxriri ostida. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	
9.	<p>Jismoniy va estetik tarbiya 1. Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlarini o‘qib, jisminiy va estetik tarbiyaning vositalarini konspekt qilish. 2. Savollarga javob bering. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi? “Jismoniy kamolat” tushunchasi o‘zida nimani ifoda etadi? Jismoniy tarbiya samaradorligini. Jismoniy tarbiyaning maqsadi nima? Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy T.: O‘qituvchi, 1993; Podlasыy I.P. Pedagogika. V 2-x kn. Kn.1.M.: VLADOS, 2003; Pedagogika.// M.Toxtaxodjaevaning umumiy taxriri ostida. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017.</p>	
10.	<p>Oila tarbiyasi asoslari 1. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. I.Sh.Alqarov, R.Mamatqulova, N.D.Norqulov.-Toshkent. 2009 Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.-Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017. Oila pedagogikasi. Jamoa.–Toshkent, Aloqachi, 2008.</p>	
11.	<p>O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi Quyidagi me’yoriy hujjatlarni o‘qib-o‘rganib, O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi</p>	
	<p>muassasalarining funktsiyalarini yozing. Adabiyotlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar Ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2018 yil</p>	

2.	<p>Ta'lim muassasasi menejmenti</p> <p>1. Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi va metod birlashmalarning vazifalarini konspekt qilish. 2. Mazkur tushunchalar mohiyatini yoritib bering.</p> <p>Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari, ta'lim muassasalarining Nizom va Ustavlari, ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari, ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni, ta'lim muassasasining boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari rahbarlarining vazifalari, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Adabiyot: Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjaev.Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017.</p>	
3.	<p>Korreksion pedagogika asoslari</p> <p>Rivojlangan davlatlarda maxsus pedagogika holatini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish.</p> <p><i>Adabiyotlar Novotortseva N.V. Korreksionnaya pedagogika i spetsial'naya psixologiya. Slovar'. – Moskva: Pedagogika, 1999;</i></p> <p><i>Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini ta'minlashning ilmiy-pedagogik asoslari. L.Sh.Nurmuhammedova.-Toshkent. 2014.</i></p> <p><i>Maxsus pedagogika. Toshkent.: "Fan va texnologiyalar" 2014.</i></p>	
	<p>Jami:</p>	6

Mustaqil ishga har bir seminar mashg'ulotining umumiy 2,5 balldan 0,5 bali ajratilgan.

Mustaqil ishlarni baholash mezonlari

Baholash mezonlari	Ball
Mavzuning mohiyati, nazariy asoslari aniq va tizimli yoritilgan, mavzuning dolzarbligi talabning mustaqil qarashlari, zamonaviy adabiyotlar, internet manabalarini asosida tahlil etilgan, ijodiy yondashilgan xollarda	0,5 ball
Mustaqil ish mavzusi dolzarb yo'nalishda tanlangan, uning mazmuni to'liq yoritib berilgan, ammo talabning mustaqil fikrlari va qarashlari bilan boyitilmagan xollarda	0,4 ball
Mustaqil ish mavzusining mohiyati va mazmuni talab	0,3 ball
darajasida yoritilmagan, zaruriy adabiyotlar bilan ishlanmagan, mavzuning asosiy tushunchalariga izohlar keltirilmagan hollarda	

Mustaqil ish mavzusi talab darajasida tayyorlanmagan va flagiatlikka yo‘l qo‘yilgan hollarda	0,2 ball
--	-------------

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi materiallari.
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonun [2016 yil 14sentyabr](#).
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning [2016yil](#)O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan ma‘ruzasi materiallari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvar “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risi”da farmoyish.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari tashkil etilganining 25-yilligi munosabati bilan 2017 yil 13 yanvardagi ma‘ruzasi materiallari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” [2017 yil 15](#) yanvardagi ma‘ruzasi materiallari.
7. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantrishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi materiallari.
8. Karimov I. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch. T.: Ma‘naviyat, 2008.
9. *Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.*
10. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995.
11. *Usanova O.N. Ruhiy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar. – Moskva: Pedagogika, 1995.*
12. *Novotortseva N.V. Korreksionnaya pedagogika i spetsial'naya psixologiya. Slovar'. – Moskva: Pedagogika, 1999.*
13. Ma‘naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
14. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. – T.: Fan, 2001.
15. Quronov M. Milliy tarbiya – T.: Ma‘naviyat. 2007.
16. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika nazariyasi. T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
17. Xasanboyev J, To‘rakulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
18. Komilova N, Xaydarov F. Muammoli o‘smir: moslashuv, tashxis, korreksiya usullari. T.: RBIMM, 2008.

19. Egamberdieva N.M. *Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish.* – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009.

20. M.X. Toxtaxodjaeva va boshqalar. *Pedagogika.* T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

21. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normurodova B. *Tarbiyviy ish metodikasi.* – T.: Tib-kitob, 2010.

22. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. *Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/* – T.: Fan va texnologiya, 2010.

23. Kaldibekova A.S. *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg‘ulotlari.* – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013. **Internet saytlari**

1. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. www.ziyonet.uz– O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali.
4. www.pedagog.uz- O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali
5. www.edu.uz-O‘zbekiston Respublikasi ta’lim porta

GLOSSARIY

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur soxalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi

Aqliy xujum zamonaviy usul nomi

Audio texnik vosita

Amaliy ishlar metodi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul

Aksioma-	Axiom	Аксиома	isbot talab qilinmaydigan holat
Bakalavriat	Baccalaureate	Бакалавриат	mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.
Bashoratlash	Prognosing	Прогнозирование	bo'lajak darsni tashkil etilishining turli
			variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.
Baho.	Mark	Оценка	ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rahbatlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.
Bilim olish	Study, take knowledge	Учение	borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida hulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

Bilim	Knowledge	Знание	shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
Verbal	Verbal, using words	Устно	bilim(ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.
Vatanparvarlik	Patriotism	Патриотизм	kishiningo'zitug'ilibo'sgan, kamoltopganjoy, zain, o'lkagabo'lganmexrmuhabbati, munosabatlariniifodaetadiganijti moyivama'naviy-axloqiy fazlatlar
Gnoseologiya	Gnoseology	Гносеология	(yunon tilidan gnosibilim, ong, o'rganish)- bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.
Dars	Lesson	Урок	bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruxi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.
Dars berish	To give lessons	Преподавать	ta'lim oluvchilarga bilimlar, mahorat va ko'nikmalar yig'indisini ma'lum qilishga va ularni o'quv jarayonida tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim beruvchining maxsus faoliyati. O'qish faoliyatini boshqarish dars berish predmeti xisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi)	Didactics	Дидактика	(yunoncha “o’rgatuvchi,” “o’rganuvchi”)- nazariy jihatlarini (ta’lim mohiyati, tamoyillari, o’qituvchi va o’quvchi	“didaktikos”- “didasko”- ta’limning jarayonining qonuniyatlari,
			faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va hokazo muammolari)ni o’rganuvchi fan.	
Didaktik tashhis maqsadi	Aim of Didactic diagnosing	Цель дидактического диагноза	o’quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.	
Didaktik o’yin	Didactic games	Дидактические игры	o’rganilayotgan ob’ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o’quvchining bilishga bo’lgan qiziqishi va faollik darajasini rag’batlantiruvchi o’quv faoliyat turi.	
Jamoa	Collective, community	Коллектив	(lotincha “kollektivus” so’zining tarjimasini bo’lib, yig’ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi)- bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.	
Ijtimoiylashuv	Socialising	социализация	ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.	
Ijtimoiy reabilitatsiya	Social rehabilitation	Социальная реабилитация	(yunoncha “rehabilitas”- qobiliyatini tiklash)-	layoqati,

			anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va meg'natga jalb etish.
Institut	Institute	Институт	bilimlarni bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	Training specialists and re-training	Повышение и переподготовка специалистов	mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.
Kasb-hunar kolleji	Professional vocational college	Профессиональный колледж	o'quvchilarning kasbhunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasbhunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta-maxsus, kasbhunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi
Ko'nikma	Habit, practice, custom	Навыки	olingan bilimlarga asoslanib, qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi
Loyihalashtirish (rejlash tirish)	Project work	Проект	o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.
Magistratura	Post graduate course	Магистратура	aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Malaka	Skill	Навыки	ongli hatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.
Ma'lumot	Information	Информация	ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.
Metod	Method	Метод	yunoncha tarjimasi "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatad
Maqsad-(o'qish,ta'lim)	Aim,purpose	Цель	ta'lim unga intiladi,uning kuchlari yo'naltirilgan kelajak.
Mazmun (o'qitish, maorif)	Content of teaching	Содержание обучения	o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar egallashi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalar, faoliyat va tafakkur usullarining tizimi.
Pedagogik paradigma (yunoncha	Pedagogic paradigm	Педагогическая парадигма	pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va

"paradigma" misol, namuna)			tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiypedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami: ta'limning kontseptual modeli.
Pedagogik texnologiya	Pedagogical technology	педтехнология	ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondoshuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Tashxis	Diagnosis	Диа гноз	didaktik jarayon kechadigan barcha shroitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash
Ta'lim-	Education	Обу чение	o'quvchilarganazariy bilimlarni berish asosida, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.
Ta'lim vositalari-	Educational aids	Сред ства обуче ния	ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat,
			rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.
Ta'lim jarayoni	Teaching process	Учебн ый проце сс	o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi g'amda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.
Ta'lim metodlari	Teaching methods	Мето ды обуче ния	ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.
Ta'lim kontseptsiyalari	Teaching principles	Прин ципы обуче ния	(lotin tilidan "conceptio"-tizim) - ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi: uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim maqsadi-	Teaching goal,aim	Цели обучения	(o'qish, bilim olish maqsadi)-ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya
Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli)	The result, effect of teaching	Результат обучения	ta'limyakunining mohiyati i qaydetuvchitushuncha: o'quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.
Ta'lim usuli-	Ways of teaching	Виды обучения	belgilangan vazifa bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining bir-biri bilan bohliq faoliyatini tartiblashgan usuli.
Ta'limni tashkil qilish shakli	Forms of teaching	Формы обучения	o'quv jarayonini yashash usuli bilan bog'liq, ta'lim oluvchilarni soni, o'qitish vaqti joyi bilan, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini tashqi ko'rinishi bilan, frontal yoki individual ish, guruxlardagi ish bilan bog'liq.
Usul	Way,method	Метод	muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodini ayrim elementlaridan foydalanish.
Faoliyat	Action,activity	Деятельность	shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.
Shaxs	Person	Личность	psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va hattiharakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan hulq-atvor va o'unoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.
Shaxsni ijtimoiylashtirish	Socialising person	Социализация	uni jamiyat tomonidan tan olingn hulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

O'qitish-	Teaching	Обучение	yo'naltirilgan ta'lim beruvchini ta'lim oluvchi bilan tartibli o'zaro harakati. O'qitish ikkita bir-biri bilan uzluksiz bog'liq hodisalardan iborat: dars berish va o'qish .
O'qish	Learning	Учение	ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

Umumiy pedagogika fanidan oraliq nazorat savollari

1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning asosiy tarkibiy qismlari.
2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.
3. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
4. O'qituvchi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.
5. Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
6. Pedagogika fanining asosiy kategoriya(tushuncha)lari.
7. Pedagogika fanining tuzilishi.
8. Pedagogika fanlari tizimi.
9. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari va ularning tasnifi.
10. Shaxs haqida tushuncha.
11. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
12. Bolalarning yosh davrlari xususiyati tavsifi.
13. Didaktika pedagogika faning tarkibiy qismi sifatida.
14. Ta'lim jarayonining mohiyati.
15. O'qitish jarayonining vazifa (funksiya)lari.
16. O'qitish jarayonining ikki tomonlama xususiyati.
17. Ta'lim tamoyil (prinsip)lari.
18. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha.
19. O'quv rejasi tavsifi.
20. O'quv dasturi tavsifi.
21. Darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi.
22. Davlat ta'lim standartlari haqida tushuncha.
23. Ta'lim metodlari va ular haqida tushuncha.
24. Ta'lim metodlari tasnifi va ularga tavsif.
25. O'qitish vositalari.
26. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli.
27. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakli.
28. Lisey va kollejlarda ma'ruza, seminar mashg'ulotlari.
29. O'quv ishlarini tashkil etishning maktab va darsdan tashqari shakllari.

30. O'quvchilar bilimni tashxis etishning mohiyati.
31. Ta'lim natijalarini tekshirish va nazoratga qo'yladigan talablar.
32. O'quvchilar o'quv faoliyatini hisobga olish turlari, shakl va metodlari.
33. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanganlik ko'rsatkichlari.
34. Tarbiyaning vazifalari va mazmuni.
35. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi.
36. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari.
37. Tarbiya jarayonining mazmuni.
38. Tarbiya tamoyillari.
39. O'quvchilar jamoasi – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli.
40. O'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari.
41. Tarbiya metodlari va tasnifi.
42. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlari.
43. Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari.
44. O'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash metodlari
45. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.
46. Fuqorolik tarbiyasi.
47. Xuquqiy tarbiya.
48. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.
49. Ongli intizom va xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash.
50. O'quvchilarning mehnat tarbiyasi.
51. Nafosat (estetik) tarbiyasi.
52. Jismoniy tarbiya.
53. Oila tarbiyasi asoslari.
54. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi.
55. Ta'lim muassasasining Ustavi.
56. Ta'lim muassasasining Nizomi.
57. Ta'lim muassasasini boshqarish tamoyillari.
58. Ta'lim muassasasini ichki boshqarishning vazifalari.
59. Ta'lim muassasasi direktori, o'rinbosarlari, ularning huquqlari va majburiyatlari.
60. Pedagogik kengash va uning vazifalari.
61. Metodik kengash va uning vazifalari.
62. Anomal bolalar va ularning tavsifi.
63. O'zbekiston Respublikasida anomal bolalarning ijtimoiy ahvoli.

4-semestr uchun oraliq nazorat savollari

1. “Pedagogika tarixi” fanini predmeti, maqsadi va vazifasi nimalardan iborat.
2. “Pedagogika tarixi” fani qanday fan? U qaysi fanlar bilan uzviy aloqador?

3. “Pedagogika tarixi” fanini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchiga qanday imkoniyat yaratib beradi.
4. btidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
5. Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Halq oo‘zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar uluo‘langan?
7. Mahmud Qosho‘ariyning “Devonu luo‘atit-turk” asaridagi o‘gitlardan misollar keltiring.
8. “Avesto”dagi axloqiy uchlik jadvalini tuzing.
9. Qadimgi turkiy bitiglarda uluo‘langan xislatlarni yozib chiqing va mazmunini izohlang.
10. Buyuk olmon olimi Xerler: «Sharq Yevropaning muallimidir» deganda nimani nazarda tutgan ?
11. Pedagogika tarixi» fanini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchiga qanday imkoniyat yaratib beradi ?
12. «Pedagogika tarixi» fani qanday fan? U qaysi fanlar bilan uzviy aloqador Izoxlab bering.
13. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tarixiy merosimizni o‘rganish xaqida qanday o‘oyalarini ilgari suradi?
14. Yurtboshimiz I.A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» asari mazmuni va mohiyatini sharxlab bering.
15. Qadimgi davlatlarda ta’lim-tarbiyaning paydo bo‘lishi kadimgi yozuvlar.
16. Xalq oo‘zaki ijodida ta’lim-tarbiya mazmuni, usuli va vositalari.
17. «Avesto»da ta’limiy-axloqiy masalalarning ifodalanishi.
18. Urxun-Enisey obidalarida ozodlik, erk, insonparvarlik xislatlarining ifodalanishi.
19. Maxmud Qoshgariyning «Devonu luo‘atit turk» asarida keltirilgan qadimgi o‘gitlarni daftaringizga yozib chiqing.
20. “Eng qadimgi davrlarda insonda uluo‘langan asosiy xislatlar” jadvalini tuzing.
21. Sharq Uyo‘onish davrida ilm-fan, madaniyat ta’lim-tarbiya taraqqiyotini nimalarda ko‘ramiz?
22. Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va didaktik qarashlarining mohiyati nimada?
23. Forobiy fanlar tasnifi xaqida.
24. Forobiyning ta’lim-tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?
25. Forobiyning Fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining xozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang?
26. Beruniyning axloqiy, aqliy, jismoniy, nafosat tarbiyasi xaqidagi fikrlarini izohlang?
27. Beruniy ilmiy merosining axamiyati nimada?
28. Ibn Sino ta’lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini qanday izoxlaysiz?

29. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi xaqida qanday fikrlarni ilgari surgan?
30. XIV-XVI asrlarda Movarounnaxrda fan, madaniyat va maorif taraqqiyoti qay darajada edi?
31. Nima sababdan XIV asrning ikkinchi yarmi - XVII asrlar Sharq uyo'onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?
32. Soxibqiron Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida qanday madaniy - ma'rifiy maskanlar barpo etildi, tarixiy obidalarni izoxlang?
33. Amir Temur o'zi amal qilgan sifatlar qanday edi va ularni izoxlang?
34. Uluo'bek Akademiyasi («Dorul-ilm») va undagi ta'lim tizimini izoxlang?
35. «Ziji Ko'ragoniy» asari va uning moxiyati nimada?
36. Boburning «Boburnoma» asari va uning didaktik moxiyatini yoritib bering.
37. Boburning ma'rifiy-axloqiy qarashlarining axamiyati nimada?
38. Musulmon maktablarida ta'lim tizimi va mazmuni qanday edi?
39. Qur'oni Karimda ilgari surilgan axloqiy tamoyillar haqida so'zlang.
40. Hadis ilmida qaysi davr «Oltin davr» deb nom oldi.
41. Hadislarda ilgari surilgan axloqiy tamoyillarni daftaringizga yozib chiqing.
42. So'fiylik ta'limotining jadvalini tuzing va uning asosiy suluklarining ma'nosini tushuntirib bering.
43. Sharq Uyo'onish davrida ilm-fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya taraqqiyoti nimalarda namoyon bo'ldi?
44. Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va didaktik qarashlarining ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
45. Abu Nasr Forobiy yashagan davrda ijtimoiy tuzum qanday edi.
46. Abu Nasr Forobiy fanlar tasnifi haqida.
47. Abu Nasr Forobiyning ta'lim – tarbiyaga oid qanday asarlarini bilasiz?
48. Beruniyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlarining hozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang.
49. Beruniyning axloqiy, aqliy, nafosat tarbiyasi haqidagi fikrlarini izohlang.
50. .Beruniy ilmiy merosi va uning fanlar taraqqiyotida tutgan o'rni.
51. Ibn Sinoning hayoti va siyosiy ijtimoiy tuzum.
52. Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya usullari, shakl va metodlarini izohlab bering.
53. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari surgan.
54. .Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati. «Qutado'u bilig»ning yaratilishi haqida qisqacha ma'lumot.
55. IX-XII asrlarda ta'limiy-axloqiy asarlarning paydo bo'lishi shartsharoitlari.
56. Hozirgi davr ta'lim mazmunida foydalanish mumkin bo'lgan tarbiya tajribalarimizga misollar keltiring.

57. Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda fan, madaniyat, ta'lim qanday rivojlandi?
58. Nima sababdan XIV asrning ikkinchi yarmi — XVI asrlar Sharq Uyo'onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?
59. Amir Temurning ta'lim-tarbiya taraqqiyotida tutgan o'rni haqida gapirib bering.
60. Uluo'bekning fan va ta'limni rivojlantirishdagi xizmati nimalardan iborat?
61. Boburning ilm-fan taraqqiyoti va ma'rifiy-axloqiy tarbiyada tutgan o'rni haqida so'zlab bering?
62. XVII-XIX asrning birinchi yarmida Movarounnahrda qanday ijtimoiysiyosiy o'zgarishlar yuz berdi?
63. 79.Xonliklar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyadagi o'zgarishlar haqida gapiring.
64. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy xayotda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
65. Jadid harakati namoyondalari kimlar boshchiligida maktab, maorif sohasida qanday islohotlar o'tkazishga xarakat qilgan edi?

Umumiy pedagogika fanidan yakuniy nazorat savollari.

1. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari misolida).
2. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. ("Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 3-modda)
3. "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun (1997) asosida O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida kadrlar tayyorlashning milliy modeli.
5. Pedagogika fanining maqsadi va vazifalari.
6. Pedagogika faninig asosiy tushunchalari (kategoriyalari).
7. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
8. Pedagogikaning ilmiy- tadqiqot metodlari.
9. Pedagogika fanlari tizimi.
10. O'qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.
11. Shaxs xaqida tushuncha.
12. Shaxsning rivojlanishi va tarbiyasi.
13. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
14. Shaxsning rivojlanishida faoliyatning o'rni.
15. Tarbiyada yosh xususiyatlarini hisobga olish va yosh davrlarga bo'lish.

16. Yaxlit pedagogik jarayonning asosiy vazifalari.
17. Pedagogik jarayonning qonuniyatlari va tamoyillari.
18. Pedagogik jarayonning bosqichlari.
19. Didaktika xaqida tushuncha. Asosiy didaktik tushunchalar (bilim, ko'nikma, malakalar).
20. Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari.
21. Ta'lim jarayonining mohiyati va vazifalari.
22. Ta'lim printsiplari (tamoyillari).
23. Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigmalari.
24. Ta'lim mazmunini belgilovchi davlat xujjatlari (DTS, o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklari)ga tasnif.
25. Ta'lim turlari va ularning tasnifi.
26. Ta'limni tashkil etish shakllari.
27. Darsning tiplari va tuzilishi.
28. Ta'limni tashkil etishning darsdan boshqa turlari.
29. Ta'limni tashkil etishning asosiy shakli dars va unga qo'yiladigan talablar.
30. O'qituvchining darsga tayyorgarligi.
31. Ta'lim metodlarining turlari va vazifalari.
32. Ta'lim metodlari va vositalari.
33. O'qitish metodlarining tasnifi.
34. Ta'limning og'zaki metodlari.
35. Ta'limning ko'rgazmali metodlari.
36. Ta'limning amaliy metodlari.
37. O'quvchilar bilimni tashxis etishning mohiyati.
38. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning vazifalari.
39. O'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari.
40. O'rta maxsus kasb-xunar ta'limi mazmuni.
41. O'rta maxsus kasb xunar ta'limi tamoyillari.
42. Tarbiyaning maqsadi, vazifasi.
43. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.
44. Tarbiya turlari va ularning tasnifi.
45. Tarbiya printsiplari (tamoyillari).
46. Tarbiya qonuniyatlari.
47. Tarbiya metodlari va ularning vazifalari.
48. Xalq pedagogikasi tarbiya metodlari.
49. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlari.
50. Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari.
51. O'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash metodlari.
52. Jamoa va uning rivojlanishi xaqida tushuncha.
53. Jamoa va uning o'ziga xos xususiyatlari.
54. O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari.
55. Aqliy tarbiyaning maqsadi, vazifasi va mazmuni.
56. Axloqiy tarbiyaning maqsadi, vazifasi.

57. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va metodlari.
58. Ekologik tarbiyaning maqsadi, vazifalari va metodlari.
59. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi va vazifalari, metodlari.
60. Vatanparvarlik va baynalminallik xislatlarini shakllantirish yo'llari.
61. Xuquqiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va metodlari.
62. Ma'naviy - axloqiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va metodlari.
63. Estetik tarbiyaning maqsadi, vazifa va metodlari.
64. Mehnat tarbiyasining maqsad, vazifa va metodlari.
65. Oilada bola tarbiyasini tashkil etish.
66. Jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish shakllari.
67. Pedagoglar bilan ota-onalarning birgalikdagi tarbiyaviy ishlari.
68. Shaxsda ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish.
69. O'quvchilarni fuqarolik ruxida tarbiyalashda davlat ramzlarining axamiyati.
70. Shaxs dunyoqarashini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni.
71. Ta'lim muassasasi menejmenti.
72. Ta'lim tizimiga kiruvchi ta'lim muassasalarining vazifalari.
73. Ta'lim muassasasi direktorining vazifalari.
74. Ta'lim muassasalarining Nizom va Ustavi.
75. Ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari. 76. Pedagogik kengash - ta'lim muassasasining boshqaruv organi.
77. Ta'lim muassasasida metodik ishlar, pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish.
78. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining vazifalari.
79. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.
80. Sinf, gurux raxbarlarining vazifalari.
81. Maxsus pedagogikaning maqsadi, vazifasi.
82. Maxsus pedagogikaning asosiy kategoriyalari.
83. Anomal bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar yo'nalishlari.
84. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarning turlari.

4-semestr uchun yakuniy nazorat savollari

1. Turkistonda pedagogika tarixida Furqat, Anbar otin, S.Siddiqiy, M.Bexbudiy va boshqalarning xizmati nimada deb bilasiz?
2. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining yaratilishi va uning asosiy o'oyalari nimadan iborat?
3. Avloniy tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya yo'nalishlari va vazifasi qanday ifodalangan?
4. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Avloniy faoliyatiga qanday baho bergan?
5. Respublikamizda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng ta'lim soxasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
6. Mustaqillik yillarida pedagogika fani taraqqiyoti xaqida so'zlang?
7. Yoshlar ongiga milliy istiqlol o'oyasini qanday singdirish mumkin?

8. Y.A.Komenskiyning tarbiyaning vazifasi, maqsadi, ahamiyati haqidagi fikrlarini izoxlang?
9. Y.A.Komenskiyning sinf dars tizimi nimalardan iborat edi?
10. Pedagogik mahorat fanining o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati nimalardan iborat?
11. Eng qadimgi davrlardan hozirgi davrgacha bo'lgan davrda o'qituvchi – ustoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rni, mahorati haqida qanday tasavvurga egasiz?
12. Bilish qobiliyati qanday jarayonlardan tashkil topgan?
13. A.Jomiy o'qituvchining nutq madaniyati haqida qanday o'oyalarni ilgari surigan ?
14. Pedagogika tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifasi.
15. Eng qadimgi davrlarda tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari.
16. Xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarning ifodalanishi.
17. Xalq og'zaki ijodi namunalarida ta'lim-tarbiya.
18. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari.
19. Avestoning tuzilishi va uning mazmuni.
20. "Avesto"ning yaratilishi unda ta'lim-tarbiya masalalari.
21. Movarounnaxrda islom dinining yoyilishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
22. Xadis ilmining paydo bo'lishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri.
23. Imom-al Buxoriy va At-Termiziyning xadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlari.
24. Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari.
25. Abu Nasr Forobiyning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari.
26. Forobiyning "Fozil odamlar shaxri" asari ta'limiy-axloqiy ahamiyati.
27. Abu Rayxon Beruniyning ilmiy merosi va uning pedagogik taraqqiyotidagi o'rni.
28. Abu Ali Ibn Sino ta'lim-tarbiya masalalari.
29. Ibn Sino ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasi xaqida.
30. Ibn Sino oila tarbiyasi xaqida.
31. Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari va uning ta'limiy-axloqiy ahamiyati.
32. "Qutadg'u bilig" asari va uning ta'lim-tarbiya masalalari.
33. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ta'lim-tarbiya masalalari.
34. Kaykovus javonmardlik tarbiyasi xaqida.
35. A.Yugnakiyning "Xibbat ul-Xaqqoqiyoq" asarida ta'lim-tarbiya masalalari.
36. Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan madaniyat.
37. XIV-XVI asrlarda Movarounnaxrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.
38. Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan va ta'lim-tarbiyaning ravnaq topishi.
39. Soxibqiron Amir Temurning ma'rifiy qarashlari.

40. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari.
41. Mirzo Ulug‘bekning ta’lim sohasidagi isloxlari.
42. Mirzo Ulug‘bekning ilm- ma’rifat sohasidagi xizmatlari.
43. Z.M. Boburning ma’rifiy qarashlari.
44. Z.M. Boburning “Hatti Boburiy” xamda “Boburnoma” asarlarining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.
45. A.Jomiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.
46. A.Navoiy ta’lim-tarbiya xaqida.
47. A.Navoiyning “Maxzub ul-qulub” asarida shaxs kamoloti masalalari.
48. J.Davoniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari.
49. Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoni” asari va uning tarbiyaviy ahamiyati.
50. Voiz Koshifiyning “Axloqiy Muxsiniy” asari va uning ahamiyati.
51. Buxoro amirligi Xiva va Qo‘qon xonliklarida ilm-fan va ta’lim-tarbiya.
52. J.O.Uvaysiyning ta’lim-tarbiyaga quygan hissasi.
53. M.S.Qoshg‘ariy va uning “Odob as-Solixin” asarining tarbiyaviy ahamiyati.
54. Turkiston o‘lkasida diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalarning an’anaviy tizimi.
55. Turkistonda chorizm maktab sistemasining boshlanishi.
56. Turkistonda jadidchilik harakati va ta’lim sohasida islohatlar.
57. Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘lining ta’lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari.
58. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik faoliyati.
59. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.
60. Abduqodir Shaquriyning pedagogik faoliyati.
61. H.H.Niyoziyning pedagogik faoliyati va ilmiy-pedagogik merosi.
62. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalq ta’limi va pedagogika.
63. XX asrning 70-80 yillarida O‘zbekistonda xalq ta’limida.
64. Mustaqil O‘zbekiston respublikasida ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
65. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta’lim-tarbiya.
66. Qadimgi yunon faylasuflari Suqrot va Aflotun ta’limotida tarbiya masalalari.
67. Qadimgi yunon faylasuflari Arastu va Demokrit ta’limotida tarbiya masalalari.
68. G‘arbiy Ovrupa mamlakatlarida ta’lim-tarbiya.
69. M. Koshgariyning “Devonu lug‘atit turk” asarining mazmuni, tuzilishi va unda ilgari surilgan g‘oyalar.
70. Hadis ilmining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
71. Imom Ismoil al-Buxoriy va uning “Al-adab, Al-mufrad” va “As-Sahih” asarlari.
72. At-Termiziyning xadis ilmining taraqqiy etishidagi o‘rni.

73. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.
74. Al-Xorazmiy ta'lim va ilmiy bilimlarni o'rganish haqida.
75. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari va unda tarbiya masalalarning yoritilishi.
76. Abu Rayxon Beruniy ta'limotida ta'lim-tarbiya masalalari.
77. Ibn Sino va uning ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasihaqiqat ta'limoti.
78. Ibn Sinoning jismoniy tarbiya haqidagi qarashlari.
79. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, mazmuni va tuzilishi.
80. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ta'limiy-axloqiy tarbiya masalalari.
81. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni.
82. A. Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asarida ta'lim-tarbiya masalalari.
83. A. Yugnakiy. Uning "Hibbat ul-haqoyiq" asarining mundarijasi, mazmuni va tarbiya usullarining yoritilishi.
84. XIV-XVI asrlarda Movarounnaxrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
85. Amir Temurning ma'rifiy qarashlari va uning pedagogika fanida tutgan o'rni.
86. Amir Temurning Movarounnaxr madaniy-ma'rifiy taraqqiyotida tutgan o'rni.
87. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi va uning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari.
88. Mirzo Ulug'bekning ta'lim sohasidagi islohotlari.
89. Z.M. Boburning madaniy-ma'rifiy, ta'limiy-axloqiy qarashlari.
90. A. Navoiyning ma'rifiy-axloqiy qarashlari.
91. A. Navoiyning maktab va madrasalarva o'qituvchi-ustoz haqida. Komil insonni shakllantirishga oid fikrlari.
92. A. Navoiyning ma'rifiy-axloqiy qarashlari.
93. Abduraxmon Jomiyning axloqiy merosi.
94. Muslixiddin Sa'diyning "Guliston" asari-shaxs kamolotini tarkib toptirishdagi o'rni.
95. Jaloliddin Davoniy va uning "Axloqi Jaloliy" asarida axloqiy tarbiya masalalari.
96. Xusain Voiz Koshifiy. Koshifiyning "Axloqi Muxsiniy" va "Futuvvatnomai Sultoniy" asarida komil inson tarbiyasi.
97. XVII-XVIII asrlarda Buxoro, Xiva hamda Qo'qon xonliklarida ilm-fan va ta'lim-tarbiya.
98. Qo'qon va boshqa xonliklarda qizlar maktabi.
99. Jahon Otin Uvaysiyning maktabdorlik faoliyati.
100. Anbar Otin va Dilshod-Barnolarning ayollar ta'limining rivojlanishidagi o'rni.

101. M.S.Qoshg'ariyning "Odob-as-solohin" asarida odob-axloq masalalari.
102. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya hamda pedagogik fikrlar.
103. Turkistonda jadidchilik harakati va ta'lim sohasidagi islohotlar.
104. Turkiston o'lkasida yangi usul maktablarining paydo bo'lishi.
105. A.Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida ta'limiy-axloqiy masalalar.
106. A.Avloniyning pedagogik faoliyati va maktab darsliklari.
107. Munavvar Qorining ta'lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari.
108. X.X. Niyoziyning ta'lim sohasidagi faoliyati va ilmiy-pedagogik merosi.
109. A. Fitratning ilmiy-pedagogik merosi.
110. M.Behbudiyning ta'lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari.
111. A.Shakuriyning ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda tutgan o'rni.
112. XX asrning 70-80 yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi.
113. 1946-1990 yillarda O'zbekistonda ta'lim va pedagogik fikrlar.
114. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
115. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 19 sessiyasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida kadrlar tayyorlashning milliy modeli.
116. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlari. (O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonun. 1997).
117. Uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari. (O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonun. 1997).
118. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997) va unda ta'lim tarbiya isloh qilishning asosiy yo'nalishlari.
119. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
120. Qadimgi Yunon faylasuflari Arastu va Demokrit ta'limotida tarbiya masalalari.

TARQATMA MATERIALLAR

O'quv materialini topshiriqlari:

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

<p>TEST</p> <p>Pedagogik muhit nima?</p> <p>A. Bir butun o'quv-jarayonni tashkil etishning asosiy shaklidir.</p> <p>*B. Pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar sistemasidir.</p> <p>C. Inson shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlarning sistemasidir.</p>	<p>MUAMMOLI VAZIYAT</p> <p>Dehqon nopob urug' sepsa, achchiq «hosili»ni bir o'zi «o'rib oladi». O'sha yili.</p> <p>O'qituvchi bolaning qalbiga nobop urug' sepsa, achchiq «hosili»ni butun jamiyat o'rib oladi. Yigirma yildan keyin...</p> <p>Muallim moddiy boylik yaratmaydi,</p>
<p>D. shaxslararo munosabatning doirasi kabi omillarning bir-birini boyituvchi va muvofiq kelishdir.</p>	<p>deydiganlar jamiyatni ichidan portlatuvchi bombadir!</p>
<p>BELGILARI:</p> <p>Didaktika -</p> <p>Pedagogik antropologiya -</p>	<p>AMALIY KO'NIKMALAR:</p> <p>Yosh o'qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo'lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb uylaysiz?</p>

Assesment” metodi

<p>TEST Pedagogikani asosiy prinsipi? *A. O'quv-tarbiyaviy jarayonni, bolalarning jismoniy, badiiy, ijodiy, mehnat va boshqa har qanday faoliyatiga pedagogik rahbarlikni tashkil etishga bog'liq bo'lgan qonuniy aloqalardir. B. O'qituvchi tomonidan amaliy qonunlarni ijodiy va faol ravishda o'zlashtirish. C. Jamiyatning alohida bir olingan shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirishdir. D. Hammasi to'g'ri.</p>	<p>MUAMMOLI VAZIYAT Bir gazeta redaksiyasiga VII sinf o'quvcisining onasidan xat keldi: "Hurmatli redaksiya! Mening o'g'lim to'g'ri yo'l tutgantutmaganligini tushunib olishimda menga yordam bersangizlar. U VII sinfda o'qiydi. Yaqinda u maktabdan kelib geografiya darsida sodir bo'lgan bir hodisa haqida gapirib berdi. O'qituvchi bir qizchani doskaga chiqaribdi va Yevropa daryolarining nomini doskaga yozishni undan so'rabdi. Qizcha alang-jalang qilib har tomonga va nomlarni kartadan ko'chirib yozibdi. O'qituvchi buni sezmadib va : -Juda yaxshi! Senga besh qo'yaman!- debdi. Shunda mening o'g'lim qo'lini ko'tarib joyidan turibdi va qizcha nomlarning hammasini kartadan ko'chirib yozganligini aytibdi. O'qituvchi qizchadan: -Shu to'g'rimi?- deb so'rabdi. U hech narsa demasdan boshini ham qilganicha jim turaveribdi. O'qituvchui uni aldashganlarini tushunibdi va</p>
	<p>bashning o'rniga ikki qo'yibdi. O'g'limning bu gaplarini tinglab turdim, lekin uning bu ishda haq yoki nohaq ekanligi haqida nimagadir hech narsa demadim. Lekin har vaqt o'ylayman: u boshqacha yo'l tita olarmidi va boshqacha yo'l tutishi kerakmidi? Buni anglab olishda menga yordam bersangizlar".</p>
<p>BELGILARI: Quyida keltirilgan jummalarni o'qing va jumlagi mos keladigan bir so'z bilan ifodalanadigan javobni tanhlang. 1) o'zi istamagan holda bironing yomonlik qilib qo'ysa ham, mazkur ishidan afsuslanadi, vijdon azobida qiynaladi -... 2) individlar ichida bir tur -... 3) jamiyatda o'z o'rniga ega, ijtimoiy axamiyatga ega maqsad yo'lida bir yoki bir nechta kishini o'z orqasidan ergashtira oladi -...</p>	<p>AMALIY KO'NIKMALAR: Yosh o'qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo'lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb uylaysiz?</p>

Assesment" metodi

<p>TEST Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'zgzamali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgaan o'quv materialini o'zlashtirish metodi qaysi bandda ko'rsatilgan A .Og'zaki, amaliy B .*Ko'rgazmali C .Reproduktiv D .Induqtiv, deduktiv</p>	<p>MUAMMOLI VAZIYAT Sergeli tumanidagi 268-maktabning biologiya fani o'qituvchisi «Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari» bo'lganligi uchun darslarni ham vaqtida o'ta olmas edi. Darslarni o'tgan vaqtida ham o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilib bormasdi. O'quv yilning birinchi choragi tugab, o'quvchilar ta'tilga chiqishganida o'qituvchi ularning choraklik baholarini qo'yib qo'ygandi. II chorak boshlangach o'quvchilar sinf rahbarlaridan biologiya fanidan qo'yilgan baholarni eshitib hayratlanib qolishdi. Chunki baholar o'quvchilar tomonidan olinmagan edi. 1. O'qituvchi to'g'ri ish qilgan deb o'ylaysizmi? 2.O'qituvchi ta'lim olganlikni tashxislashning qaysi tamoyillarini buzgan? 3. O'qituvchining o'quvchilarni o'quv faoliyatini bunday nazorat qilishi ularning bilim olishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadimi?</p>
<p>BELGILARI: <u>Diagnostika</u> (tashxis)— bu..... <u>O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlari</u> bu</p>	<p>AMALIY KO'NIKMALAR: Yosh o'qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo'lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb uylaysiz?</p>

Assesment" metodi

<p>TEST Tarbiyaning asosiy vazifasi nima? *A. Tarbiya yosh avlodni jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalari mos keladigan e'tiqodini, axloqiy ko'nikma va malakalarini, extiyoji va intilishlarini tarkib toptirishdan iborat B. Odamlaming dunyo bilan munosabatlarining bir butun sistemasini ta'minlovchi, vosita C. Zarurat, ehtiyojlilik-qandaydir bir vosita, o'zga narsaga javob berish, insonning ruhiy holatini to'g'rilovchi omil. D. Odamning jamiyat a'zosi sifatida o'z-o'zini anglash va tafakkurini, faoljyatining ob'yektivligini biluvchanlik tushunchasidir</p>	<p>MUAMMOLI VAZIYAT Sergeli tumanidagi 268-maktabning biologiya fani o'qituvchisi «Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari» bo'lganligi uchun darslarni ham vaqtida o'ta olmas edi. Darslarni o'tgan vaqtida ham o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilib bormasdi. O'quv yilning birinchi choragi tugab, o'quvchilar ta'tilga chiqishganida o'qituvchi ularning choraklik baholarini qo'yib qo'ygandi. II chorak boshlangach o'quvchilar sinf rahbarlaridan biologiya fanidan qo'yilgan baholarni eshitib hayratlanib qolishdi. Chunki baholar o'quvchilar tomonidan olinmagan edi. 1. O'qituvchi to'g'ri ish qilgan deb o'ylaysizmi? 2.O'qituvchi ta'lim olganlikni tashxislashning qaysi tamoyillarini buzgan? 3. O'qituvchining o'quvchilarni o'quv faoliyatini bunday nazorat qilishi ularning bilim olishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadimi?</p>
---	---

BELGILARI: Tarbiya –bu Tarbiya jarayonining mohiyati – bu Tarbiyaprinsiplari bu	AMALIY KO‘NIKMALAR: Yosh o‘qituvchi faoliyatini tahlil qiling. Ancha tarbiyasi murakkab bo‘lgan sinfda ijobiy natijalarga erishishga nima yordam berdi deb uylaysiz?
---	--

“Metod”, “ta’lim metodi”, “usul”, “qoida” tushunchalarining mohiyatini o‘zlashtirishga doir blits-so‘rov savollari

1. Metod deganda nima tushuniladi? 2. Ta’lim metodi tushunchasini qanday izohlash mumkin?
3. “Ta’lim metodlari” va “ta’lim usullari” tushunchalari bir xil mazmunga egami? 4. Ta’lim usullari deganda nima tushuniladi?
5. Ta’lim metodlarini qo‘llashda qandaydir ko‘rsatmalarga rioya etish zarurmi?
6. Ta’lim metodlarini qo‘llashga doir ko‘rsatmalar nima deb ataladi?

Ta’lim metodlari tasnifiga doir to‘ldirilmagan jadvallar

Topshiriq: quyidagi to‘ldirilmagan jadvallar bilan tanishing va ularni tugallang. 1)

Анъанавий (манбасига кўра) таълим методлари таснифи

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod

2) Ўқувчиларнинг билиш фаолияти тавсифига кўра таълим методлари таснифи

Ta’lim metodining nomlanishi	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati

3)

Таълимнинг бинар методлари

O‘rgatish metodlari	O‘rganish metodlari

--	--

4)

Интерфаол методлар


O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar

Ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga qo'llashga doir doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Mutaxassislik faningiz bilan bog'liqlikda quyidagi metodlarni har birini qo'llashga doir bittadan misol yozing.

2)suhbat; 2) o'quv munozarasi; 3) mashq; 4) kitob bilan ishlash. 2-topshiriq. Kichik guruhlariga bo'lining va og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metod-lardan birini tanlab olib, biror mavzu misolida metodni amaliyotda qo'lla

Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



“O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari” mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi

Quyida keltirilgan jumlar bilan tanishing. Ularni mos ravishda jadvalning kerakli ustuniga yozib qo'ying.

13.Beshta bo'lim, o'ttiz to'rt moddadan iborat. 2.Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasi. 3. SHaxs. 4. Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish. 5. Fan. 6. Ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi. 7. Bilim olish huquqi. 8. Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish. 9. Ishlab chiqarish. 10. Xalqaro hamkorlik. 11. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi. 12. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlariga doir amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Quyida keltirilgan jummalarni davom ettiring.

9. O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat'iy nazar...
10. Davlat ta'lim standartlari...
11. Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:...
12. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ...
13. O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi: ...
14. Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar...
15. Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash....
16. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish...
17. Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash...
18. Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul...
19. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: ...
20. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo'li bilan...

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'z yoki jumlani topib qo'ying.

1. ... aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.
2. O'zbekiston Respublikasida ta'lim ... turda amalga oshiriladi.
3. ... bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.
4. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ... uchun majburiydir.
5. ... yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.
6. ... o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.
7. ... o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.
8. ... umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan.
9. ... bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.
10. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va ...

11. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi ... tomonidan belgilanadi.

12. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni ... asosida olishga haqlidirlar.

Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan asoslangan esse yozish topshirig'i

“O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining afzalligi va o'ziga xosligi shundaki...” mavzusida asoslangan esse yozish

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazarinigizni bayon eting.
2. Nuqtai nazarinigizni asoslash uchun dalillar kiriting.
3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.

“Ikki sahifali kundalik” strategiyasi yordamida ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari metodini mohiyatini yoritish

Kundalikning birinchi qismi	Kundalikning ikkinchi qismi
Odatlantirish	
Mashq	
Topshiriq	
Pedagogik talab	
Venn diagrammasi yordamida tarbiya metodlari va tarbiya vositalarini, umumiy jihatlarini yoriting.	Venn diagrammasi yordamida tarbiya metodlari va tarbiya vositalarini, umumiy jihatlarini yoriting.
O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish	
Izohlash	
Munozara	

Venn diagrammasi yordamida tarbiya metodlari va tarbiya vositalarini, umumiy jihatlarini yoriting.



Tarbiya turlarini aniqlash bo'yicha charxpalak metodi

Turlari	Rag'batlantirish turlari	Jazolash turlari	Tarbiya usullari ning turlari

Ijobiy vaziyatni yanada mustahkamlovchi			
O'quvchining zimmasiga mashuliyatli vazifa yuklash			
Tanbeh berish			
Estalik sovg'asini berish			
Uyaltirish			
Maxsus stipendiyalar tayinlash			
Salbiy vaziyatni yanada kuchaytiruvchi			
Fotosuratni hurmattaxtasiga qo'yish			
Ogohlantirish			
Safda birinchi o'rindaturishi			
Tarbiyalanuvchida ishonch hosil qiluvchi			
Jamoa nomidanminnatdorhilik			
Maqtash			
Hayfsan berish			
Maqtov yorlig'i bilan taqdirlash			
Qo'llab-quvvatlash			
Musobaqalarda bayroqdorbo'lishi			
Maktab devoriy gazetasi yoki radiosi orqali nomini qayd etish			

Shaxsning rivojlanishiga doir yondashuvlar

Quyidagi fikrlar bilan tanishing, ularda shaxs rivoji masalasi qaysi nuqtai nazardan o'rganilayotganligini tushuntiring.

1) inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi;


2) inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi;

3) insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi;

4) shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. SHu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashga doir topshiriq

“Shaxsning shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar” chizmasini tugallang.



MAVZU YUZASIDAN KEYS TOPSHIRIQLARI

1-keys bayoni

9-sinf o’quvchisi Bobur tarix darsida o’qituvchi bilan tortishib qoldi. Tarix o’qituvchisi Boburni gap qaytargani uchun urdi. Boburni o’rtoqlari yonini olib o’qituvchi bilan tortishib qoldilar. O’qituvchi o’quvchilarni bu qilgan ishlari uchun ularni jazolashini aytdi. Tarix fanidan davlat imtihonlarini topshirishayotganlarida o’qituvchi “5” bahoga o’qiydigan o’quvchilarga “3” baho qo’yib berdi. SHundan so’ng o’quvchilar tarix o’qituvchisini yomon ko’rib qoldilar.

Keys savollari:

- 1.O’qituvchi bunday vaziyatda qanday yo’l tutishi kerak edi?
- 2.Bu vaziyatda o’qituvchi tarbiya metodlardan qaysi birini samaral qo’llay olishi zarur?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

Tarbiya metodlari, pedagogik jarayonda tarbiya metodlaridan foydalanishga oid adabiyotlar. p

Keys tahlili:

Vaziyat negizini juda nozik masala tashkil etadi. O’qituvchining oldida ikkita yo’l bor: 1) gap qaytargan o’quvchiga tarbiyali bolalar kattalarga gap qaytarish yaxshi emasligini, “ustoz – otaday ulug’l”igini rivoyatlar, alaomalimizning o’g’itlari orqali tushushtrish kerak edi; 2) imtihon jarayonida o’quvchilarga nohaqlik qilgan, dars vaqtidayoq o’rtoqlariga “kuch - birlikda” ekanligini o’qtirib, kattalarni hurmat qilish, o’rtog’i xato ish qilsa unga yordam berishi kerakligini, agar o’quvchilarga ta’sir ko’rsata romasm sinf rahbaridan yordam so’rash kerak edi. Vaziyatdan to’g’ri chiqmaganligi sababli o’quvchilarni o’qituvchiga hurmatlar so’ngan. **Talabalar uchun ko’rsatmalar:**

- 1.Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
- 2.Muammoning samarali yechimini ifodalovchi tarbiya metodlari tizimini aniqlang.
- 3.Aniqlangan tarbiya metodlari tizimi orasidan muammoga ko’proq dahldor bo’lgan metod (yoki ikkita metod)ni ajrating.
- 4.Ajratib olingan metodlar asosida o’qituvchining voqeaga nisbatan munosabatini asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi metodlarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan metod (yoki ikkita metod)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan metod (ikkita metod) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi. **O'qituvchining yechimi**

O'qituvchi dastlab talabada nima sababdan bunday holat ro'y berayotganligini, unda o'ziga bo'lgan hurmatning pasayishiga sabab bo'lgan holatlar, jumladan, talabaning sog'ligiga oid ma'lumotlarni yig'ishi, uning otasini, o'quvchining ruhiy holatini o'rganishi, sinfda dars beradigan boshqa fanlarning o'qituvchilari bilan suhbatlashishi, so'ngra to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishi zarur. Faqat shundan keyingina u samarali yo'lni qo'llay oladi

2-keys bayoni

Oshxonada ovqat tayyorlayotgan onasining yoniga kelgan 2-sinf o'quvchisi Sardor kartoshkani tozalamoqchi bo'ldi. Biroq, onasi: "Pichoqni joyiga qo'y! U o'g'il bolalar qiladigan ish emas!", - dedi. Sardor kartoshkani tozalashni judajuda xohlagani uchun pichoqni joyiga qo'yishni xohlamadi. Bundan jahli chiqqan onasi uning qo'lidan pichoqni tortib oldi. Onasining keskin harakatlaridan qo'rqib ketgan Sardor yig'lab yubordi va o'zining xonasiga chiqib, ketdi.

Keys savollari

1. Onasi bu kabi keskin harakatlarni Sardorning shikastlanishdan saqlab qolish uchun qildimi? 2. Bu vaziyatda ona qanday yo'l tutganda to'g'ri bo'lardi?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

Tarbiya metodlari, pedagogik jarayonda tarbiya metodlaridan foydalanishga oid adabiyotlar. **Keys tahlili**

Darhaqiqat, pichoq xavfli sanaladi. SHu sababli ko'p holatlarda kattalar bolalarga pichoqqa tegishni man qiladilar. Sardorning onasi ham ana shu nuqtai nazardan yondashgan holda pichoqni o'g'lining qo'lidan tortib oldi.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Muammoning samarali yechimini ifodalovchi tarbiya metodlari tizimini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya metodlari tizimi orasidan muammoga ko'proq dahldor bo'lgan metod (yoki ikkita metod)ni ajrating.

4. Ajratib olingan metodlar asosida o'qituvchining voqeaga nisbatan munosabatini asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Bu vaziyatda garchi go'yo o'g'lini shikastlanishdan saqlagan bo'lsa-da, uni oqlab bo'lmaydi. Zero, Sardor pichoqdan shikastlanmagan bo'lsa-da, onasining qo'polligi va qo'rsligidan aziyat chekdi. Qolaversa, onasi pichoqning xavfli ekanligini bu tahlitda uqtirmasligi kerak edi. 2. Onaning quyidagi tahlitda yo'l tutishi boshlang'ich sinf o'quvchisida mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi:

a) onasi dastlab Sardorni o'ziga yordamchi bo'lib qolganligidan quvonayotganligini aytishi, ammo pichoq bilan ishlash xavfli ekanligini xotirjamlik bilan uqtirishi kerak;

b) bugungi kunda har bir xonadonda kartoshka tozalashga moslashtirilgan xavfsiz oshxona anjomi bor, onasi Sardorga ana shu anjom bilan savbzini tozalab berishi mumkinligini, o'g'il bolalar ham ovqat qilishni bilishi kerakligini aytishi lozim;

v) bordi-yu, bu oilada ana shunday oshxona anjomi bo'lmasa, u holda Sardorning onasi o'g'lining ishtiyoqi, shashtini so'ndirmagan holda shaxsan o'zi nazorat qilib u karoshkani tozalab bo'lguncha sabr qilishi va Sardor ishni tugatganidan keyingina pichoqning xavfli ekanligini, o'zi uyda yo'q bo'lganida unga tegmasligi kerakligini aytishi lozim. Bu holatda boshlang'ich sinf o'quvchisi onasining o'zi haqida qayg'urayotganligini dildan his qiladi.

O'qituvchining yechimi

Onasi dastlab pichoqni xavfli ekanligini, hali yosh ekanligini, uni judayam yaxshi ko'rishini, qulini kesib olishi mumkinligini, agar qo'lini kesib olsa dars tayyorlashga qiynalishini aytib, boshqa uy ishlarida, masalan chang artishda, gullarga suv quyishda yordam berishi mumkinligini aytish kerak edi.

3-keys bayoni

5-sinf rahbari o'quvchilarning darslarga yaxshi tayyorgarlik ko'rib kelishi va yuqori o'zlashtirishga erishish maqsadida o'quvchilarga hafta davomida kim ko'p "a'lo"va "yaxshi" baho olsa, ko'p baho olgan bitta o'quvchiga "Haftaning eng a'lochi o'quvchisi" bayroqchasini taqdim etilishi hamda bir hafta davomida uni o'zi bilan birga olib yurishi mumkinligini aytdi. Hafta yakunida sinfda ikki o'quvchi Nodir va Aziza teng baho oldilar. **Keys savoli:**

O'qituvchi bu vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

Tarbiya metodlari, pedagogik jarayonda tarbiya metodlaridan foydalanishga oid adabiyotlar.

Keys tahlili:

Vaziyat negizini juda nozik masala tashkil etadi. O'qituvchining oldida ikkita yo'l bor: 1) ikkala o'quvchiga ham bayroqcha berish; 2) "Haftaning eng a'lochi o'quvchisi" musobaqasi shartiga ko'ra bitta o'quvchi olishi kerakligi uchun qo'shimcha sinov o'tkazish.

O'qituvchi bunday vaziyatda, adolatli qaror chiqarishi, o'quvchilar kelgusi haftada ham bayroqsaga ega bo'lish maqsadida a'lo bahoga o'qishga harakatlarini kuchaytirish kerak.

Bunday holatda eng muhimi xato qilmaslik. Albatta, "Haftaning eng a'lochi o'quvchisi" bayroqchasiga ega bo'lish uchun Nodir va Aziza harakat qilishgan, lekin bayroqcha bitta.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiladigan metodlarni aniqlang.
3. Aniqlangan metodlar orasidan muammoning samarali bo'lishini ta'minlovchi metod (yoki ikkita metod)ni ajrating.
4. Ana shu metodlar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi metodlarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan metod (yoki ikkita metod)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan metod (ikkita metod) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

Eng maqbul yechim: Sinf rahbari Nodir va Azizani hafta davomida eng a'lochi o'quvchi bo'lganlarini, harakatlarini inobatga olgan holatda birinchi partaga o'tkazib, partani o'rtasiga "Haftaning eng a'lochisi" bayroqchasini qo'yib qo'yishi adolatli yechim bo'ladi.

4-keys bayoni

Adabiyot fani o'qituvchisi seshanba kuni birinchi soatga 8 "B" sinfda ochiq dars tashkillishtirgan edi. O'tkazilayotgan ochiq darsga 5 nafar o'quvchi 15 daqiqa kechikib keldi. O'qituvchi dars kuzatishga kirgan hamkasblari oldida noqulay vaziyatga tushib qoldi. **Keys savoli:**

Bu vaziyatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

O'qituvchining pedagogik mahorati, kasbiy kompetentligi to'g'risidagi adabiyotlar.

Keys tahlili:

O'quvchilarning bu tarzda darslarga ommaviy kech qolib kelishlari kamdan kam holatda ro'y beradi. Mazkurguruh bilan ishlaydigan o'qituvchiga o'z o'quvchilarining kundalik xatti-harakatlari yaxshi ma'lum. SHu sababli uchun o'quvchilarning kundalik xatti-harakatlariga tayangan holda ularning kechikishlariga nisbatan munosabat bildirishi zarur. **Talabalar uchun ko'rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiladigan metodlarni aniqlang.
3. Aniqlangan metodlar orasidan muammoning samarali bo'lishini ta'minlovchi metod (yoki ikkita metod)ni ajrating.
4. Ana shu metodlar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi metodlarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan metod (yoki ikkita metod)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan metod (ikkita metod) asosida bayon etadi.
5. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

O'qituvchining muammoga yondashuvi turlicha bo'lishi mumkin.

1-yondashuv: agar bunday holat birinchi marta ro'y berayotgan bo'lsa, u holda o'qituvchi: "Darsga kech qolishingizlar noto'g'ri. Kelinglar, Sizlar bilan o'zaro kelishib olamiz. Sizlar koridorda turib o'zinglarni tartibga solib olasiz va keyin sinfga kirasiz. Lekin bu birinchi va oxirgi marta bo'lsin! Kelishdikmi?!".

2-yondashuv: bodi-yu, o'quvchilarning darslarga kech qolishlari odat tusiga kirgan bo'lsa, bu holatda o'qituvchi o'quvchilarning xulqini to'g'rilash maqsadida o'zining o'quvchilari yoki qoidalari to'plamini ishlab chiqishi kerak. Masalan: kech qolgan o'quvchi qo'shimcha uy vazifasini bajaradi.

5-keys bayoni

Mavzu: Halollik hotirjamlik garovi.

Hikoyat: Shundoq eshitdimki, bir kishini qo'ylari bag'oyat ko'p edi. U har kuni qo'ylarini sog'ib, har na hosil bo'lg'on sutni qo'y egasining oldiga kelturur erdi. Qo'y egasi ul sutga yarim hissa suv qo'shib, cho'ponga sotg'il deb berur erdi. CHo'pon unga bundoq nasihat berur erdi: "Ey xo'ja, musurmonlarga xiyonat

qilmag'ilki, o'zingga zarar yetkarursan". Ul kishi cho'ponning nasihatini eshitmadi va ul ishni qilur erdi.

Bir kecha bahor vaqtida cho'pon qo'ylarni osoyishi uchun bir sel oqadig'on past joyga qo'yimish va o'zi baland joyga chiqib uyquga bormish erdi. Ittifoqo ko'p yomg'ir yog'ib, sel oqib kelib qo'ylarni oqizib ketdi va barcha qo'ylar halok bo'ldi. So'ngra cho'pon shaharga keldi. Qo'y egasi unga dedi: "Bugun nima uchun sut kelturmading?"

Keys savollari: 1. Qo'y egasi bergan savolga cho'pon fanday javob beradi?

2. Cho'ponning xatti-harakatini Siz qanday baholaysi? **Talabalarga tavsiya**

etiladigan manbalar:

Kaykovisning "Qobusnoma" asarini o'qib tahlil etish.

Keys tahlili:

Alloma hikoyat orqali molingga o'zgalarning moli deb qaragin, o'zgalarning molini o'z molingdan ham afzalroq, ziyodroq deb bilgin, omonatga hech qachon xiyonat qilmagin, bu ishing hech qachon senga foyda keltirmaydi. Agar to'g'ri bo'lsang el nazariga tushasan, xalq seni izzat hurmat qiladi. Nopoklik, o'zgalarning moliga hiyonat qilish sharmandalikka olib keladi va el orasida bosh ko'tarolmay qolishingga sabab bo'ladi demog'chi. **Talabalar uchun ko'rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

2. Muammoning samarali yechimini ifodalovchi kalit so'zlarni ajratib oling.

4. Ajratib olingan kalit so'zlarni voqeaga nisbatan o'rnini asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talaba keys mohiyatini o'rganib chiqishadi, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qiladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning samarali yechimi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlarini aniqlaydi. 3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlarini asosida bayon etadi.

4. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

Cho'pon dedi: "Ey xo'ja, men senga necha bor:

"Sutga suv qo'shmag'il, oxirini o'ylag'il",-dedim. Lekin mening so'zimni hargiz eshitmading. Oxiri sutga qo'shg'on suvlarning hammasi yeg'ilib, o'tgan kecha bir sel bo'lib shunday oqdi, hamma qo'ylarni oqizib ketdi".

Bas, ey farzand xiyonatdin qochg'ilki, har kishi bir martaba xiyonat qilsa, unga hech odam aslo e'timod qilmas. Rostlikni pisha qilki, norostlik ulug' qaroqchilikdur. Olmoq va sotmoqda muloyim bo'lg'il va kishiga va'da qilmag'il, agar va'da qilsang xilof etmag'il. Olg'uvchi odamga yolg'on so'z demag'il va agar so'z desang, rost so'zni aytg'il... Muamalada olmoq va bermoq hujjatiga ogoh

bo'lgil, xujjat bermoq tilasang, toki avval haqni qo'lga olmag'uncha hujjatni qo'ldin bermag'il"¹³ - deb javob qaytaradi. **Nazorat uchun savollar:**

1. Qanday sifatlar manaviy-axloqiy sifatlar sanaladi?
2. Qanday inson axloqiy yetuk hisoblanadi?
3. Ma'naviyqadriyatlar degani nimani anglatadi?
4. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, biznes-rejaga ega bo'lish nima? Saxovatlilik tushunchasini izohlab bering.
5. Oila nima? Uni o'z fikringiz bilan izohlab bering.
6. Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi va oila tarbiyasi borasidagi mavjud muammolar nimalardan iborat?
7. Intizom o'quv ishlarini tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?

6-keys bayoni

Halollik hotirjamlik garovi.

Hikoyat: Shundoq eshitdimki, bir kishini qo'ylari bag'oyat ko'p edi. U har kuni qo'ylarini sog'ib, har na hosil bo'lg'on sutni qo'y egasining oldiga kelturur erdi. Qo'y egasi ul sutga yarim hissa suv qo'shib, cho'ponga sotg'il deb berur erdi. Cho'pon unga bundoq nasihat berur erdi: "Ey xo'ja, musurmonlarga xiyonat qilmag'ilki, o'zingga zarar yetkarursan". Ul kishi cho'ponning nasihatini eshitmadi va ul ishni qilur erdi.

Bir kecha bahor vaqtida cho'pon qo'ylarni osoyishi uchun bir sel oqadig'on past joyga qo'ymish va o'zi baland joyga chiqib uyquga bormish erdi. Ittifoqo ko'p yomg'ir yog'ib, sel oqib kelib qo'ylarni oqizib ketdi va barcha qo'ylar halok bo'ldi. So'ngra cho'pon shaharga keldi. Qo'y egasi unga dedi: "Bugun nima uchun sut kelturmading?" **Keys savollari:** 1. Qo'y egasi bergan savolga cho'pon fanday javob beradi?

2. Cho'ponning xatti-harakatini Siz qanday baholaysi? **Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:** 1. Kaykovisning "Qobusnoma" asarini o'qib tahlil etish.

2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

3. Ziyomuxammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. T.: Fan va texnologiyalar. 2007.

Keys tahlili:

Hikoyatda quyidagi g'oyalar ilgari surilmoqda molingga o'zgalarning moli deb qaragin, o'zgalarning molini o'z molingdan ham afzalroq, ziyodroq deb bilgin, omonatga hech qachon xiyonat qilmagin, bu ishing hech qachon senga foyda keltirmaydi.

Agar to'g'ri bo'lsang el nazariga tushasan, xalq seni izzat hurmat qiladi. Nopoklik, o'zgalar moliga hiyonat qilish sharmandalikka olib keladi va el orasida bosh ko'tarolmay qolishingga sabab bo'ladi. **Talabalar uchun ko'rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Muammoning samarali yechimini ifodalovchi kalit so'zlarni ajratib oling.
4. Ajratib olingan kalit so'zlarni voqeaga nisbatan o'rnini asoslashga uring.

¹³КайковусКобусномаТошкент: Ўқитувчи, 1986. - Б.108.

5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talaba keys mohiyatini o'rganib chiqishadi, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qiladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning samarali yechimi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlarini aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlarini asosida bayon etadi.

4. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

CHO'pon dedi: "Ey xo'ja, men senga necha bor:

"Sutga suv qo'shmag'il, oxirini o'ylag'il", - dedim. Lekin mening so'zimni hargiz eshitmading. Oxiri sutga qo'shg'on suvlaring hammasi yeg'ilib, o'tgan kecha bir sel bo'lib shunday oqdiki, hamma qo'ylarni oqizib ketdi". Bas, ey farzand xiyonatdin qochg'ilki, har kishi bir martaba xiyonat qilsa, unga hech odam aslo e'timod qilmas. Rostlikni pesha qilki, norostlik ulug' qaroqchilikdur. Olmoq va sotmoqda muloyim bo'lg'il va kishiga va'da qilmag'il, agar va'da qilsang xilof etmag'il. Olg'uvchi odamga yolg'on so'z demag'il va agar so'z desang, rost so'zni aytg'il... Muamalarda olmoq va bermoq hujjatiga ogoh bo'lg'il, xujjat bermoq tilasang, toki avval haqni qo'lga olmag'uncha hujjatni qo'ldin bermag'il"¹⁴ - deb javob qaytaradi.

7-keys bayoni

Beparvolik va loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, hushyorlik va jonkuyarlik

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narokagressiya va SPID singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularning oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular G'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir.

"Menga nima" deb qarash, loqaydlik, bepisandlik, o'zini, o'z manfaatini hammadan ustun qo'yish, xudbinlik, hamma narsalar mening huzurhalovatinga xizmat qilishi kerak, deyish, shuhratparastlik, kibr, mahmadonalik, tajanglik, birovni eshita bilmaslik, xatosini tan olmaslik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik – egotsentrizm dardiga duchor bo'lgan odamning belgilari.

Masalan, ikki nafar o'smir mahallamizda sigaret chekib turibdi. Ilgari buni ko'rib, "Ie. Nega chekadi-ya bu bolalar", deb, tanbeh berardik. Bugun esa to'xtab, gapirishga irodamiz yetmaydi. Ichimizdagi xudbinlik "Nima qilaman kayfiyatimni buzib. Qo'y, indama, menga nima, bolaga ota-ona tarbiya bersin", - deb, beparvolik bilan o'tib ketamiz. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgach mahallada sigaret chekib

¹⁴КайковусКобусномаТошкент: Ўқитувчи, 1986. - Б.108.

turgan bolalarning soni ko'paya boshladi. Vijdonimiz qiynalib, bolalarga tanbeh berishga yana harakat qildik. Hozirgi o'smirlar ham anoyi emas. Betga choparligi bor. "Nima ishingiz bor. Amakimmisiz, holammisiz", deydi. Biz esa, "menga nima", – deb yo'limiznidavom ettiramiz. Chunki ishlarimiz juda ko'p, qaergadir shoshilyapmiz. Bizning gaplarimiz o'spirin bolalarga yoqmaydi. Ma'lum bir vaqt o'tgach, o'spirin bolalar sekinasta giyohvand modda istemol qila boshlashdi. Mahallada birin-ketin ayanchli fojealar ro'y bera boshladi. O'g'irlik, mushtlashishlar, zo'ravonlik, tartibsizlik... Qaerdan keldi bu illat? Kim aybdor? Qo'shni xonadonda istiqomat qilayotgan bola giyohvand moddani me'yordan ko'proq iste'mol qilganligi tufayli olamdan o'tdi. Oradan yana bir necha kundan so'ng yana falokat. Qo'shni ayolning farzandi mushtlashib, og'ir jarohat olibdi. Endi mahalladoshlar insoniylik va odamgarchilik haqida qayg'urib, qo'shnilardan ko'ngil so'rashga kirishishibdi.

Bobolarimiz: "Bir bolaga yetti qo'shni ham ota, ham ona" degan, shunga amal qilgan. Ko'rayapsizmi? Lekin nega biz bobolar udumiga amal qilmadik? Avlodlar haqida qayg'urmadik. Boshimizga obdan birin-ketin kulfatlar tushgandan keyingina odamiylik va insonparvarlik haqida o'ylay boshladik?

Odam qanday qilib egotsentrist bo'lib qoladi? Ota-onaning pedagog dastidan. Qanday qilib? Ota-ona o'zlari tuqqan bolasini yeru jahonga ishonmay bu dunyoning markaziga aylantirib oladilar. Bolaga buni (dunyoning markazi bo'lishni) o'rgatishadi. Bola nima qilsin? O'rganadi. Bunday ota-onalar tarbiyasida: "Faqat mening bolamga yaxshi bo'lishi kerak. Bolam baxtli bo'lishi kerak" degan tamoyilga amal qiladilar va ... qattiq adashadilar.

Bolasining istagan, hatto istamagan, so'ramagan narsalarni ham uyub tashlashadi. Mehnatni, birovga g'amxo'rlikni, boshqalar ham xuddi o'zi kabi odam ekanligi, ularning ham hurmati, manfaatlari borligini eslatmaydilar.

Bola bog'chasiga boradi. O'zidek bolalar bilan birinchi uchrashuv. Boshqalardan ota-onasinikichalik g'amxo'rlikni kutadi. Ko'rmagach talab qiladi. Birinchi uchrashuv – jamoa bilan birinchi to'qnashuvga aylandi.

Yig'laydi.

Maktabda muomala, murosasiz, burchni bilmaydi. Mas'uliyatsiz. Jon kuydirmaydi. Ota-ona buni qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa maktabga ko'chiradi. "katta bo'lsa hammasi joyiga tushib ketadi", - deb o'zlarini aldaydilar. U katta bo'ladi. Unga qo'shib talablari, ishyoqmaslik, mas'uliyatsizlik, boshqalarga iddaolari, illatlari ham voyaga yetadi. Kuchga kiradi.

Ota-onaning belidan kuchi, cho'ntagidan baraka ketadi. Endi befoyda, keraksiz odamlarga aylanib qoladilar.

Xudbin yigit endi jamoaviylik, ko'pchilik bo'lib yashash tartibqoidalariga, burchlariga to'qnashadi. Birinchi to'qnashuvdayoq yengiladi. "Men yaxshi – hamma yomon" degan qulay yolg'on qobig'iga uy qurib, yashay boshlaydi. SHunday qilib, ota-onaning, kishilarning loqaydligi jamiyatdan, hayotdan asossiz norozi egotsetristlarni paydo qiladi. Ma'naviy qarovsizlik, burchsizlik o'smirni giyohvandlarga, jinoyatchilarga, kim mo'may pul va'da qilsa, o'shalarga topshiradi.

Shu tariqa, egotsentrist-xudbinlar jabrini birinchi – ularning ota-onalari tortadi. Keyin boshqalar. Chunki tushuntirib, odamlarga yaxshilik qilish kerak desangiz, “buning tomi ketibdi”, - deb o’ylaydi. “Vatanga nima berding?” desangiz, u: “Vatanim menga nima berdi?”, - deydi o’qrayib. Chunki u tug’ilgani, yashayotgani borligi uchun hamma unga nimadir berishi kerak. U esa hech kimga hech narsa bermasligi kerak. U sizga “foydalansa bo’ladigan yo bo’lmaydigan narsa”, - deb qaraydi. Bizlarni bu ko’yga tushishdan Xudoning o’zi asrasin.

Savollar:

1. Sizning fikringizcha ushbu maqolada muallif qanday muammoni ko’tarib chiqqan?
2. Maqolada muammoni tasdiqlovchi qanday dalillar mavjud?
3. Vaziyatdagi beparvolik, loqaydlik tufayli vujudga kelgan salbiy illatlarni ajratib oling hamda ushbu muammoning kelib chiqish sababi nimada deb uylaysiz?
4. Muallif o’z maqolasida muammoni oldini oldish yo’llarini qanday bayon etgan?
5. Sizning fikringizcha ushbu muammoni qanday yechish mumkin?

8-keys bayoni

Gulmira hovlilarining oldidagi ko’chaga suv sepayotgandi. Yozda har kuni suv sepilib, supirib, tozalanmasa, onasi uni urishadi. Milliy odat shunaqa, deyiladi. SHu vaqtda uning kursdoshi Aziz velosipedda ketayotgan ekan. Aziz to’xtadi, ular ozgina gaplashib qolishdi. Gulmiraning suv sepishi lozimligi esidan chiqdi. Institutda bo’lgan voqealarni eslab, ancha kulishishdi. SHunda Gulmiraning dadasi ishdan kelib qoldi. Dadasi Gulmiraning salomiga alik olmay uyda kirib ketdi. Aziz ham salom berdi-da, tezda yo’lga tushdi. Bir pastda Gulmiraning onasi ko’chaga chiqib, Gulmirani baland ovoz bilan urishib ketdi. Gulmira, nima ayb qilganini hech tushina olmas edi. Onasi uni yomon urishdi. Juda qattiq gaplarni aytdi. Gulmira uyga kirib rosa yig’ladi.

Gulmiraning fikru o’ylari: Onam hadeb urishaveradi. Nima, xotinlar faqat mehnatga tug’ilganmi?! Faqat ish, faqat ish... Nuqul, onam bitta gapni qaytaradi: - “Biror joyga borsang, meni sharmanda qilasan. Kelinlar ertalabsoat

5 dan kechqurun soat 12 ish qilishi lozim. Sen faqat “o’qishim, o’qishim” deysan. Menga o’qishing kerak emas, menga hammaga o’xshab erga tegishing kerak. Ayolning baxti o’z vaqtida erga tegishda...”, deyaveradilar. Qurib ketsin o’sha er! Bir minut ham tinchlik yo’q! Hoxlaganingni hech qila olmas ekansanda...Er menga nima karomat ko’rsatib beradi, u ham faqat mendan ish talab qiladi, faqat o’zi bo’lsa mayli-ku, yana qaynona, qaynота, jiyanu tog’avachchalar - hammasiga mening mehnatim kerak bo’ladi. Hammasiga men egilishim kerak. Mening inson sifatida qadrim bormi o’zi?! Ayol kishining baxti qursin, faqat mehnatga tug’ilgan, faqat bo’ysunishga tug’ilgan. Hech kim “Sen nimani istaysan”, demaydi. Nima uchun ayol kishi faqat erga tegibgina baxtli bo’lishi lozim. Agar eri har kuni uni do’pposlasa-chi... Undayam er yaxshimi...

Onaning fikru o’ylari: Bu qiz tushmagur hech hayotni o’ylamaydi. Osmonlarda hayoli... O’qib nima karomat ko’rsatib berardi... Menga qolsa darrov

erga berardim-u, undan qutilardim... Dadasini oldida uyalmay begona bolalar bilan xiring-xiring qilganiga o'laymi.. Gap gapirsang, hech tushunmaydi. Xuddi boshqa olamda yurgandek... Bir gap aytasang, o'nta javob olasan... Qaylardagi bo'lmag'ur gaplarni aytadi. Hozirdan o'zini ustun qo'yadi. Erga berib qutilmasam, hali meni rosa qiynaydi...Tanlayveradi, tanlayveradi...

Eri ikki marta do'q qilsa, ancha aqli kirib qoladi... Uni erga berish kerak...

Keys savoli:

1. Nima uchun Gulmirani onasi yomon urishdi va unga juda qattiq gaplarni aytdi. Onaning mazkur harakatiga o'z fikringizni bildiring.

2. Gulmiraning fikru o'ylarini qanday baholaysiz?

3. Eri ikki marta do'q qilsa, ancha aqli kirib qoladi... Uni erga berish kerak... Sizningcha ona to'g'ri fikrlayaptimi? 4. Ona manfaatlari bilan qiz manfaatlari o'zaro kelisha olmayaptimi?

5. Ushbu vaziyat qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?

6. Mazkur vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

Pedagogikaga oid adabiyotlar. **Keys tahlili:**

Keysdan aniq va ravshan ko'rinib turganidek, ona va qiz o'rtasida ziddiyat vujudga kelmoqda. Vaziyatda ham har tomonning o'z fikri, o'z o'ylari, o'z xisssiyotlari mavjud. Bir tomonning fikru o'ylari faqat mana shu tomon uchun qadrlil bo'lib qolmoqda. Ikkinchi tomon birinchi tomonning fikru o'ylari, qarashlari, mulohazalari mavjudligini, ular o'sha tomon uchun ham ardoqli ekanligini tan olmaydi, ularni bilmaydi, yoki bilmaslikka oladi. Bir tomon ikkinchi tomonning ma'lum qadriyatlaril va fikrlari, qarashlari mavjudligini tan olgisi ham kelmaydi, bunga urinib ham ko'rmaydi. SHuningdek, ikkinchi tomon ham birinchi tomonning so'zlari va qarashlarini anglashga, tushunishga harakat qilmaydi. Oqibatda, yoshlar tafakkurida

“kattalar bizni tushunmaydi”, kattalarda esa “yoshlar gapga kirmaydigan, o'zboshimcha bo'lgan” degan noto'g'ri fikr o'rnashib, qotib qoladi.

Demak, vaziyatda har bir tomonning o'z qarashlari, o'ylari, fikrlari tizimi, majmuasi mavjud. Mana shu o'y va fikrlar tizimi xuddi mana shu tomonning o'z shaxsiy manfaatlari ni anglatadi. Inson o'z shaxsiy manfaatlarsiz yashay olmaydi.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

O'qituvchining pedagogik mahorati, kasbiy kompetentligi to'g'risidagi adabiyotlar.

Talabalar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiladigan metodlarni aniqlang.

3. Aniqlangan metodlar orasidan muammoning samarali bo'lishini ta'minlovchi metod (yoki ikkita metod)ni ajrating.

4. Ana shu metodlar asosida yechimni asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talaba keys mohiyatini o'rganib chiqishadi, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qiladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning samarali yechimi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlarini aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan ma'naviyaxloqiy tarbiya mezonlarini asosida bayon etadi.

4. Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

Eng maqbul yechim: Agar mazkur vaziyatlarda ona va uning qizini ularga xos bo'lgan manfaatlarni muvofiqlashtirib, bir xillashtirish yo'lidan borsalar, muammoni yechimiga og'ir bosiqlik bilan qarasarlar, tomonlarning qarashlari bir xillashtirilsa qilinsa vaziyat ijobiy hal qilinida. Ota-onaga nisbatan farzandda mehr saqlanib qoladi. Uyat andasha ko'tarilmaydi. Hamma o'z maqsadiga yetadi.

9-keys bayoni

“Ommaviy madaniyat”

“Ommaviy madaniyat” - Bizga chetdan kirib kelayotgan, ma'naviyatimiz, madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizga mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga olgan illatlar yig'indisi.

“Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzini ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlardir.

“Ommaviy madaniyat” odamlarning didini yuksaltirishga, milliy va jahon san'atining mumtoz asarlarini tushunishga emas balki ulardan uzoqlashtiradi. O'zbekistonliklarga xos yuksak badiiy didni o'rtamiyona, ommabop, “bizga shu ham bo'laveradi”, - deydigan darajagacha tushirib, pasaytirib yuborishi mumkin.

Keys savollari:

1. “Ommaviy madaniyat” nima? SHaxsan Siz uni qanday tushunasiz?

2. “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida ma'naviyatga tahdid soluvchi qandan harakatlar yashiringan?

3. “Ommaviy madaniyat” barham topishida tarbiya metodlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsating.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

Tarbiya metodlari, tarbiya jarayonida ulardan foydalanishga oid adabiyotlar.

Keys tahlili:

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. **Talabalar**

uchun ko'rsatmalar:

- 1.Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
- 2.Muammoning samarali yechimini ifodalovchi tarbiya metodlari tizimini aniqlang.
- 3.Aniqlangan tarbiya metodlari tizimi orasidan muammoga ko'proq dahldor bo'lgan metod (yoki ikkita metod)ni ajrating.
- 4.Ajratib olingan metodlar asosida o'qituvchining voqeaga nisbatan munosabatini asoslashga uring.
- 5.Echimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

- 1.Talaba keys mohiyatini o'rganib chiqishadi, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qiladi.
- 2.Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning samarali yechimi hisoblangan ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlarini aniqlaydi.
- 3.Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan ma'naviyaxloqiy tarbiya mezonlarini asosida bayon etadi.
- 4.Echim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

Ma'naviyatga tahdidlarni bartaraf etishdagi vazifalar muvafaqqiyatli bajarilishi lozim. Ular quyidagilar:

- Tinglovchilar ongida axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish
- Tinglovchilarda mustaqil fikrni shakllantirish ➤Tinglovchilarda ma'naviy jasoratni yuksaltirish
- Tinglovchilar qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish
- Tinglovchilarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish
- Tinglovchilarni yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish

Aniq vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va hal etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Ish bosqichlari va vaqti	Maslahat va tavsiyanomalar
Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa	Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag'ishlanganligini aniqlang.

2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O'z fikringizni guruh bilan o'rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e'tibordan chetda qoldirmang.
Muammo yechimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa	Guruh bilan birgalikda muammo yechimini toping. Muammoga doir yechim bir necha variantda bo'lishi ham mumkin. SHu bilan birga siz topgan yechim qanday nati jaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.
Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Guruh bilan birgalikda keys yechimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo'lishi tamoyillariga rioya qiling.

Keysni yechish bo'yicha individual ish yo'riqnomasi

Avvalo, keys bilan tanishing. Ma'naviy-axloqiy fazilatlar, beparvolik va loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, hushyorlik va jonkuyarlik, boylikka ruju qo'ymaslik, mabr-qanoat kabilar haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang.

1. Sizing fikringizcha, keysda qanday muammolar ko'targan. (Yordam: keys mavzulariga e'tibor bering).
2. Muammoni tasdiqlovchi dalillarni ko'rsating.
3. Ma'naviyatimizni izdan chiqarishga qaratilgan taxdidlarni ajratib oling. Ularni sanab bering.
4. Vaziyatdagi vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy illatlarni ajratib oling va muammoning kelib chiqish sabablarini ko'rsating.
5. Keyslardan muammoni oldini oldish yo'llarini ko'rsatib bering.
6. Xalqimizga xos bo'lgan qanday ma'naviy-axloqiy fazilatlarini muammoni yechishda qo'llash mumkin.
7. Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash zarurati oshib borishi sabablarini, uning millat, mamlakat va umuminsoniyat oldida turgan ulkan vazifalar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib bering.

Guruhlarda keysni yechish bo'yicha yo'riqnoma

1. Individual yechilgan keys vaziyatlar bilan tanishib chiqing.
2. Guruh sardorini tanlang.
3. Vatman qog'ozlarda quyidagi jadvalni chizing
4. Ishni yakunlab, taqdimotga tayyorlang.

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillari	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomonidan taklif qilingan yechim	Guruh yechimi

10-keys

Muammoning turi	Muammo ning kelib chiqish sababi	Muammoni yechishda sizning harakatingiz	Muammoni yechishda uchraydigan to'siqlar
<p>Quyidagi jummalarni o'qing:</p> <p>-Ustoz otangdek ulug', deganlari bejiz emas. Ota hayot beradi. Ustoz esa yashashga o'rgatadi. Tug'ilishdan ko'ra yashash qiyinroq....</p> <p>Dehqon nopob urug' sepsa, achchiq "hosili"ni bir o'zi "o'rib oladi". O'sha yili. O'qituvchi bolaning qalbiga nobop urug' sepsa, achchiq "hosili"ni butun jamiyat o'rib oladi. Yigirma yildan keyin...</p> <p>Muallim moddiy boylik yaratmaydi, deydiganlar jamiyatni ichidan portlatuvchi bombadir!</p> <p>Muammo: o'qituvchining jamiyatdagi o'rni va uning ahamiyati, bu boradag muammolar nimalarda ko'zga tashlanadi???</p>			

11- keys:

Muammoning turi	kelib chiqish sababi	yechishda sizning harakatingiz	Muammoni yechishda uchraydigan to'siqlar
<p>1. Muammoli savol. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega qarg'a o'rtacha 200-300 yil yashaydi. Lekin uning bolaligi uzog'i bilan besh-olti oy davom etadi. Inson o'rtacha 60-70 yil umr ko'radi. Biroq u 20-25 yoshlarida mustaqil hayot boshlaydi. Mazkur holatni qanday izohlash mumkin?</p> <p>2. Muammoli savol. Quyidagi fikrlarga qo'shilasizmi?</p> <ul style="list-style-type: none"> • "Agar bolalar muntazam tanqid qilinsa, aldashga o'rganadi"; □ "Agar bolalar qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinsa, dunyoni go'zal ko'rishga o'rganadi"; • "Agar bolalarga hurmat bilan munosabatda bo'linsa, ular oliyjanob va saxiy bo'lishni o'rganishadi" 			

12- keys:

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoni yechishda sizning harakatingiz	Muammoni yechishda uchraydigan to'siqlar
<p>O'qituvchining hikoyasidan: "O'g'lim qorong'ulikdan va balandlikdan qo'rqadi. Men imkon boricha uni ana shu qo'rquvni eng oladigan sharoitga qo'yaman: Gohida ob-havo qandayligini bilib kelish uchun hovliga, gohida esdan chiqqan narsani olib kelish uchun qorong'u xonaga yuboraman. O'yin paytlari ayrim vaqtda chuqurlikka sakraymanda: daraxtning hov anavi navdasini olib ber. Uni emas, narigi yuqoridagisini deyman..."</p> <p><i>O'qituvchitarbiyajarayonidaqaysi metoddan foydalanmoqda? Mazkur yo'l orqali natijaga erishish mumkinmi?</i></p>			

13- keys:

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoni yechishda sizning harakatingiz	Muammoni yechishda uchraydigan to'siqlar
<p>Dars boshlanishidan avval o'qituvchi erda g'ijimlangan qog'oz parchasi yotganini ko'rib, bir o'quvchidan qog'ozni olib, axlatqutisigatashlashniso'radi. O'quvchior'nidanturmasdan, qog'ozni utashlamaganligisababliuni olmasliginima'lumqildi.</p> <p><i>O'qituvchi mazkur vaziyatda qanday yo'l tutish kerak? Qaysitarbiya metodini qo'llash orqali vaziyatni ijobiy hal etish hamda guruhni hayratlantirish mumkin?</i></p>			

14- keys:

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoni yechishda sizning harakatingiz	Muammoni yechishda uchraydigan to'siqlar
<p>1-muammoli vaziyat. Siz ishlaydigan kollejdagi bir nechta o'quvchiga o'zingiz o'tayotgan fandan 1-semestr bo'yicha baho qo'ymadingiz. Biroq o'quv yili yakunida jurnalda mazkur o'quvchilarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Siz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga uchrashdingiz. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ularga bahoni guruh rahbari qo'yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'ladingiz?</p> <p>2-muammoli vaziyat. Geografiya darsiga har doim tayyor bo'lib keladigan Sunnatni o'qituvchi doskaga chaqirdi. Biroq u tayyor emasligini aytdi. O'qituvchi unga ikki baho qo'ydi. Sunnat indamasdan joyiga o'tirdi. Sunnatning uch kun oldin buvisi vafot etgan edi, shuning uchun u darsga tayyorlana olmagan edi. Siz sababini bilgan va bilmagan holatda tutishingiz mumkin bo'lgan vaziyatni sharhlang</p>			

Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari
 (mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)
Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan mak s. 6.b.	Muammoli ziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko'rsatilgan maks. 4.b.	Vaziyatdan chiqib ketish harakat-lari aniq ko'rsatilgan maks. 10. b.	Jami maks. 20. b.

UMUMIY PEDAGOGIKADAN TEST SAVOLLARI

№ 1 Fan bobi -1 Fan bo'limi -1 Qiyinlik darajasi -1

O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasa qaysi?

- Akademik litsey
- Kasb-hunar kolleji
- Maktab internat
- Ta'lim maktablari

№ 2 Fan bobi -1 Fan bo‘limi -1 Qiyinlik darajasi - 1

.....- ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan

Pedagogika

Valeologiya

Psixologiya

Sotsiologiya

№3 Fan bobi -1 Fan bo‘limi -1 Qiyinlik darajasi -1

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha

Kategoriya

Qonuniyat

Tamoyil

Shakl

№4 Fan bobi - 1 Fan bo‘limi -1 Qiyinlik darajasi - 1

..... - shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon

Rivojlanish

Taraqqiyot

Shakllanish

O‘sh

№5 Fan bobi -2 Fan bo‘limi -3 Qiyinlik darajasi - 1

Ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui nima deb ataladi?

Ma’lumot

Ko‘nikma

Munosabat

Rivojlanish

№ 6 Fan bobi -1 Fan bo‘limi -1 Qiyinlik darajasi -2

... - ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda etakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi

Pedagogika tarixi

Pedagogik mahorat

Maxsus pedagogika

Pedagogika

№7 Fan bobi -1 Fan bo‘limi -1 Qiyinlik darajasi -2

Qaysi javob variantida pedagogika fanlari tizimi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Umumiy pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, korreksion pedagogika, metodika, pedagogika tarixi, ta’limni boshharish, ijtimoiy pedagogika

Umumiy pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, korreksion pedagogika surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya

Umumiy pedagogika, metodika, ta'limni boshqarish axloq-tuzatish pedagogikasi, pedagogika tarixi, ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi Umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb ta'limi bikasi va metodikasi, boshlang'ich ta'lim pedagog, gengenik pedagogikasi va korreksion pedagogikasi

№8 Fan bobi - 1 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi -1

Shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi nima deb ataladi?

Faoliyat

Muloqot

Ta'lim

Tarbiya

№9 Fan bobi -1 Fan bo'limi - 3 Qiyinlik darajasi - 3

Nima uchun V-VII sinflarda ba'zi o'quvchilarning o'zlashtirishi va intizomi susayadi? Mazkur davrda o'quvchilarning rivojlanishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq

Sinf rahbari, o'qituvchilar boshlang'ich sinfdagiga qaraganda kam e'tibor beradi O'quvchilar o'qishning yangi talablari va sharoitiga o'rganmagan yoki tayyor emaslar

Mazkur davrda o'quvchilarning rivojlanishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq emas.

№10 Fan bobi -3 Fan bo'limi -1 Qiyinlik darajasi -2

Tarbiyaga ta'rif bering

Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni

Shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy bilish qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni

Ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

№11 Fan bobi -3 Fan bo'limi -2 Qiyinlik darajasi -2

Shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bu.....

Aqliy tarbiya

Aqliy ta'lim

Axloqiy tarbiya

Estetik tarbiyasi

№12 Fan bobi -3 Fan bo'limi -2 Qiyinlik darajasi -2

O'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga

yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Bu qaysi tarbiya turiga berilgan ta'rif?

Jismoniy tarbiya

Ijtimoiy tarbiya

Axloqiy tarbiya

Fuqarolik tarbiyasi

№13 Fan bobi -3 Fan bo'limi -2 Qiyinlik darajasi -2

Muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayon. Bu qaysi tarbiya turiga berilgan ta'rif?

Axloqiy tarbiya

Jismoniy tarbiya

Aqliy tarbiya

Mehnat tarbiyasi

№ 14 Fan bobi -3 Fan bo'limi -2 Qiyinlik darajasi -2

SHaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Bu qaysi tarbiya turiga berilgan ta'rif?

Mehnat tarbiyasi

Odob-axloq tarbiyasi

Jismoniy tarbiya

Aqliy tarbiya

№ 15 Fan bobi - 3 Fan bo'limi -4 Qiyinlik darajasi -3

Estetik tarbiyaga berilgan ta'rifni toping

Shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, to'g'ri tushunishni o'rgantish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni

Shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni

Muayyan ijtimoiy voqelik, tabiat, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayon

Shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan jamiyat, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish va ilmiy qarashni shakllantirish

№16 Fan bobi -3 Fan bo'limi - 1 Qiyinlik darajasi -3

Tarbiya jarayonining xususiyatlarini aniqlang

Aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon, ko'p qirrali jarayon uzoq muddatli jarayon yaxlit tizimlilik jarayon ikki tomonlama aloqa jarayoni qaramaqarshiliklardan iborat jarayon

Ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi, o'zaro aloqadorlik, hamkorlikdagi yaxlit jarayon

Shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob'ektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini tez ijobiy hal etishi

Axloqiy tarbiya jismoniy tarbiya aqliy tarbiya mehnat tarbiyasi estetik tarbiya, uzoq muddatli jarayon yaxlit tizimlilik jarayon bo'lib, ikki tomonlama teskari aloqa o'rnatish jarayoni

№17 Fan bobi -2 Fan bo'limi -1 Qiyinlik darajasi -1

Ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillash tirish yo'llari va h. muammolar)ni o'rganuvchi fan

Didaktika

Tamoyil

Metodologiya

Menejment

№18 Fan bobi - 2 Fan bo'limi - 1 Qiyinlik darajasi -1

Didaktika so'zi fanga kim tomonidan kiritilgan?

V.Ratke

G.Adolf

K.Ushinskiy

A.Disterverg

№19 Fan bobi -2 Fan bo'limi - 1 Qiyinlik darajasi -1

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bu...

Ta'lim jarayoni

Aqliy jarayon

Muloqot jarayoni

Axloqiy jarayon

№20 Fan bobi -2 Fan bo'limi - 1 Qiyinlik darajasi -1

Ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya bu-

Ta'lim maqsadi

Ta'lim menejmenti

Ta'lim tizimi

Ta'lim yo'nalishi

№ 21 Fan bobi -2 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi - 2

Ta'lim funksiyalarini ko'rsating

Ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash

Ta'lim berish, ijtimoiylashish, moslashish

Korreksiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish
Nutqini o'stirish, muloqotga o'rgatish, kommunikatsiya
№ 22 Fan bobi -2 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi -2

Ta'lim jarayoni bu -

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

Korreksiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish, hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

Faoliyat va aniq maqsad yo'lida ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

№23 Fan bobi -2 Fan bo'limi -4 Qiyinlik darajasi -1

Muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashgan shakli

Malaka

Ko'nikma

Faoliyat

Bilim

№24 Fan bobi -2 Fan bo'limi -1 Qiyinlik darajasi -3

Ta'lim jarayonini boshqarish qanday bosqichlardan iborat?

Rejalashtirish tashkil etish boshqarish nazorat natijalarni baholash va tahlil qilish

Ta'lim berish, ijtimoiylashish, moslashish, nazorat natijalarni baholash va tahlil qilish

Korreksiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish va tahlil qilish

Nutqini o'stirish, muloqotga o'rgatish, nazorat natijalarni baholash va tahlil qilish

№ 25 Fan bobi - 2 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi -2

Materialni qabul qilish, tushunib olish, bilimlarini mustahkamlash va amaliy qo'llash.

Bu erda ...tuzilishi tasvirlangan.

Bilimlarni o'zlashtirish Ko'nikma hosil qilish

Malakaga erishish

Ma'lumotga ega bo'lish

№26 Fan bobi -2 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi -2

Bu ----- jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modeli.

Ta'lim mazmuni

Ta'lim nazariyasi

Ta'lim paradigmalari

Ta'lim jarayoni

№ 27 Fan bobi -2 Fan bo'limi - 3 Qiyinlik darajasi -3

O‘quv dasturida nimalar ko‘rsatilgan?

Har bir o‘quv predmetining mazmuni, o‘quv yillari bo‘yicha programma materiallarining mazmuni va mavzularining taxminiy soatlari O‘quv yilining strukturasi o‘quv yillari bo‘yicha programma materiallarining mazmuni va mavzularining taxminiy soatlar ko‘lami va xajmi O‘quv predmetining ajratilgan haftalik soatlar miqdori va davlat ta‘lim standartlari talablari va dastur mazmuni

O‘quv shaxsini tarbiyalash maqsadi va vazifalari asosida ta‘limni tashkil etishning mazmun-mohiyati, talab va taklifi aniq ko‘rsatilib qoyiladi

№ 28 Fan bobi -1 Fan bo‘limi -3 Qiyinlik darajasi -2

O‘quvchining iste‘dod va qobiliyatining rivojlanishi nimaga bog‘liq?

Faoliyatning turlariga, aloqa va muloqotga, ta‘lim – tarbiyaning metodik jihatdan muvofiqligiga

O‘zlashtirgan bilimlarning miqdori va hajmiga bog‘liq ta‘lim – tarbiyaning metodik jihatdan muvofiqligiga

O‘qitish va tarbiyalash metodlariga bog‘liq O‘zlashtirgan bilimlarning miqdori va hajmiga bog‘liq

Tarbiyaviy tug‘ma nishonlarga bog‘liq ta‘lim – tarbiyaning aniq metodik jihatdan muvofiqligiga

№29 Fan bobi -2 Fan bo‘limi -3 Qiyinlik darajasi -2

“Metod” – bu ...

Metod – bu yunoncha “yo‘l, yo‘riq”, usul orqali maqsadga erishish degan ma‘noni bildiradi

Metod – bu fransuzcha “yo‘l” so‘zidan olinib maqsadga erishish degan ma‘noni bildiradi

Metod – bu lotincha so‘zidan olinib usul axborotini uzatish orqali hatijaga erishmoq demakdir

Metod – bu nemischa so‘z bo‘lib, usul orqali maqsadga erishish degan ma‘noni bildiradi

№30 Fan bobi -2 Fan bo‘limi -3 Qiyinlik darajasi -1

Pedagogika olamiga savol – javob “Evristik” suhbat metodini olib kelgan faylasuf olim?

Suqrot

Arastu

Aflotun

Demokrit

№31 Fan bobi -2 Fan bo‘limi - 3 Qiyinlik darajasi -2

O‘qituvchining suhbat ta‘limning qaysi metodiga kiritiladi?

Og‘zaki

Ko‘rgazmali

Intefaol

Amaliy

№32 Fan bobi -2 Fan bo‘limi -3 Qiyinlik darajasi -2

Ta‘limning og‘zaki metodlariga nimalar kirishini ko‘rsating?

Hikoya, tushuntirish, suhbat, ma‘ruza

Mashq qilish, amaliy ishlar, ma'ruza, suxbat

Suhbat, ma'ruza, ko'rgazmali, hikoya

Test, algoritmlash, izlanish, tushuntirish

№ 33 Fan bobi -2 Fan bo'limi - 3 Qiyinlik darajasi -2

Ta'limning amaliy metodlariga nimalar kirishini ko'rsating?

Mashq qilish, laboratoriya va amaliy ishlar

Ilyustratsiya, namoyish qilish, amaliy ishlar

Test, izlanish, induksiya, laboratoriya

Hikoya, suhbat, ma'ruza, laboratoriya

№ 34 Fan bobi -2 Fan bo'limi -2 Qiyinlik darajasi -1

“Takrorlash bilimning asosidir”. Ushbu ibora qaysi pedagogga tegishli?

K.D.Ushinskiy

Ya.A.Komenskiy

A.S.Makarenko

A.V.Redkin

№35 Fan bobi -2 Fan bo'limi -2 Qiyinlik darajasi -1

Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy sanaluvchi usul, bu?

Mashq

O`yin

Namoyish

Taqlid

№36 Fan bobi -2 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi – 3

Noan'anaviy ta'lim shakliga nimalar kiradi?

Ma'ruza, fakultativ, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiya, bahs – munozara, davra stoli, viktorina

Yangi bilimlarni bayon qilish darsi va takrorlash darslari bahs – munozara, davra stoli, viktorina

Kirish darslari, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish darslar ,takrorlash va davra stoli,mustahkamlash

Takrorlash va mustahkamlash, umumlashtirish darslari, laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiya

№37 Fan bobi -2 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi -1

“Sinf – dars tizimi” ning asoschisi ...

Ya.A.Komenskiy

A.V.Suxomlinskiy

A.S.Makarenko

K.D.Ushinskiy

№38 Fan bobi -2 Fan bo'limi -3 Qiyinlik darajasi -2

“Darsning boshlanishini tashkil etish uy vazifasini tekshirish, darsning maqsadi va vazifalarini bayon qilish, yangi materiallarni tushuntirish, mustahkamlash, darsga yakun yasash va uyga vazifa berish” tuzilishidagi darsning tipini ko'rsating?

Kombinatsion -aralash dars

Bilimlarni takrorlash va mustahkamlash darsi

Yangi bilimlarni o'rganish va mustahkamlash darsi

Umumlashtirish darsi

№ 39 Fan bobi -2 Fan bo'limi - 1 Qiyinlik darajasi -2

Ta'lim funksiyalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

Bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish

Bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish

O'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish

Tevarak-atrofdagi voqealarni tushuntirish

№ 40. Fan bobi -4 Fan bo'limi -4 Qiyinlik darajasi -2

... - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi

Ta'limni boshqarish

Ijtimoiy pedagogika

Pedagogik mahorat

Maxsus pedagogika

№ 41 Fan bobi -1 Fan bo'limi -4 Qiyinlik darajasi -1

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui...

Ta'lim tizimi

Maktab tizimi

Oliy ta'lim

Ta'lim boshqarmasi

№42 Fan bobi -4 Fan bo'limi -4 Qiyinlik darajasi -3

Ta'limni boshqarish bu -

Ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash

Ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha o'quv jarayonining oqibati belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi

Ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan o'quv-tarbiya muassasalari

№ 43 Fan bobi -1 Fan bo'limi -1 Qiyinlik darajasi -1

O'zbekiston Respublikasida 1-oktyabr Ustozlar va Murabbiylar kuni – Umumxalq bayrami sifatida qachondan beri nishonlanmoqda?

1997 yildan

1998 yildan

2000 yildan

1999 yildan

№ 44 Fan bobi -3 Fan bo'limi -4 Qiyinlik darajasi -1

Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida dehqonlar to'g'risida fikr yuritarkan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ... Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar

harakot, elga ham qut etkurur, ham barakot», - deb yozadi, bu misolni keltirish orqali qanday tarbiyani amalga oshirish mumkin

Mehnat tarbiyasi

Nafosat tarbiyasi

Nutq madaniyati

Ekologik tarbiya

45. Fan bobi -2 Fan bo‘limi -3 Qiyinlik darajasi -2

O‘quvchilar mehnat faoliyatining asosiy turlari qaysilar

O‘quv mehnati, ijtimoiy foydali mehnat, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, umumli mehnat

Texnik ijodkorlik, to‘garak faoliyati, oiladagi mehnat, o‘z-o‘ziga xizmat qilish

Mehnat ta‘limi, mehnat tarbiyasi va o‘quv mehnati, ijtimoiy foydali mehnat

Yer uchastkasida tashkil etiladigan mehnat, tajriba maydonida va laboratoriyadagi mehnat

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

“Umumiy pedagogika” kursi bo‘yicha o‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta‘lim resurslari ro‘yhati.

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

- 1.Xodjayev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik-T.: Sano STANDART
- 2.Ro‘ziyeva D.I. Tolipov O‘.Q. pedagogic texnologiyalar va pedagogic mahorat.- T.: innovatsiya-ziyo. 2019
- 3.Sh.Abdullayeva, D.I.Ro‘ziyeva. pedagogic diagnostika va korreksiya. Darslik. – D. Fan va texnologiyalar, 2019
- 4.Юзликаева Э. мадьярова С. Янбарисова Э. Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник.-Т.: ТГПУ, 2014.
- 5.КальдибековаА.С. Жалпыпедагогикатеориясы жене практикаси. Педагогика теорияси.-Т.:ТДПУ, 2013
- 6.YuzlikayevaE., AxmedovaM., QurbonovaG., Sh. Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. –Т.:TDPU, 2012.
- 7.Pedagogika.// M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. –Т.: O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati.2010.
- 8.СластенинВ.А. Исаев И.Ф. Шиянов Е.Н. Общая педагогика. –М.: ВЛАДОС, 2003.
- 9.Подласый, И.П. Педагогика. Новыйкурс: Учебникдлястуд.пед.вузов: В 2 кн.-М.: Гуманит. Издуюцентр. ВЛАДОС, 2006.
- 10.XalikovA.A. pedagogic mahorat. Darslik.-Toshkent, Iqtisodmoliya, 2012.
- 11.ЯкушеваС.Д. Основыпедагогическогоместерства. Учебник. –Москва.: Академия, 2012.

12. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012

Routledge Angliyskiy

13. Neil Selwyn Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum

14. Heather Fry Steve Ketteridge Stephanie Marshall. Handbook for Teaching and Learning in Higher Education USA, 2009 Routedge

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lihi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlariva 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi / Xalq so‘zigazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11

2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin vafarovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2017.

3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017

4. Ochilov M, Ochilova N. O‘qituvchi odobi. Saylanma. –T.: O‘qituvchi, 1997

5. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 fevral. 2017 yil.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gin qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997 y., 9-son, 225-modda, 2013 y., 41-son, 543-modda

7. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida” gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining Axborotnomasi, 1997y, 11-12-son, 150-modda, 2013y, 41-son, 543-modda.

8. Xasanboyev J, To‘raqulov X, Xaydarov M, Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. -T.: Fan va texnologiya. 2008

9. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg‘ulotlari. -T.: Fan va texnologiya. 2008

10. Elektron ta’lim resurslari.

1. www.tdpu.uz

2. www.pedagog.uz 3. www.edu.uz

4. www.ziyo.edu.uz

5. www.gov.uz

6. www.ziyonet.uz

7. www.istedod.uz

Fan bo‘yicha talabalar bilimni baholash va nazorat qilish mezonlari

KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – “a'lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat har semestrda bir marta yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabalar semestrlar davomida fanga ajratilgan amaliy mashg'ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg'ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

Shuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestrlar yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.